



Bugungi
QISHLQ AYOLLARINING
hikoyalari



Bugungi qishloq ayollarining hikoyalari / Истории современных сельских женщин / Stories of modern rural women, S.Shoeva,Sh. – 142 bet, Toshkent–2023

Muallif: *Sayyora Shoyeva*

Muharrir: *Sirojiddin Vohidov*

Maslahatchilar: *Shahnoza Zafariy, Muhabbat Turkmenova*

Dizayner: *Aleksandra Povarich, Otabek Eshmatov*

Fotosuratlar muallifi: *Otabek Eshmatov, Abbas Egamberdiyev, Muhammadali Qambarov*

O'g'iloy Mingboyeva, Umid Hojiyev, Iqbal Omonboyev

Ushbu kitob Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilayotgan, BMT Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) hamda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining hamkorlikdagi "Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sektorining "yashil iqtisodiyot"ga inklyuziv o'tishini qo'llab quvvatlash va iqlimga yo'naltirilgan qishloq xo'jaligi bilimlari va innovatsion tizimini rivojlantirish (EU-AGRIN)" loyihasi doirasida moliyalashtirildi va tayyorlandi.

Ushbu nashrda keltirilgan fikr va hulosalar muallifning o'z nuqtai nazari bo'lib, BMT, shuningdek BMTTD va BMT ga a'zo davlatlarning, shuningdek Yevropa Ittifoqining rasmiy nuqtai nazari hisoblanmaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) kambag'allik, tengsizlik va iqlim o'zgarishi sababli paydo bo'lgan adolatsizlikka qarshi kurashda BMTning yetakchi tashkilotidir.

170 ta mamlakatdagi keng ekspertlar va hamkorlar tarmog'i bilan faoliyat olib borib, biz odamlar va sayyora uchun muvofiqashtirilgan, uzoq muddatli yechimlarni yaratishga yordam beramiz.

Loyihamiz haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni undp.org/uzbekistan saytidan hamda ijtimoiy tarmoqlardagi @UNDPuzbekistan sahifalaridan olishingiz mumkin.

Kitobdagi hikoya mualliflarini aniqlashda amaliy yordam bergan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining Oila va xotin-qizlar kotibiyatiga, O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston "Agrar soha ayollari" uyushmasiga hamda viloyat hokimliklarga minnatdorchilik bildiramiz.



O'zbekiston Respublikasi
QISHLOQ XO'JALIGI
VAZIRLIGI



BUGUNGI QISHLOQ AYOLLARINING HIKOYALARI



Toshkent –2023





KIRISH

Markaziy Osiyoda, aniqrog'i O'zbekistonda yashaydigan xotin-qizlar hayotini ro'zg'origa, oilasiga, farzandlariga bag'ishlaydi. Ular tongni quyosh bilan birga qarshi oladi. Aslida uy yumushlarini bajarayotib quyoshga peshvoz chiqadi.

Bir qo'lida beshigu, ikkinchisida ketmon tutadi. Quyoshdan erta uyg'onib, uni shomda kuzatib qo'yadi. Hovlidagi sigir-buzoq, qo'y-echki ham uning zimmasida. Sut sog'ib, nonushta tayyorlaydi. Bir zumda xamir qorib, tandirga non yopadi. Uy ishlaridan ortib, tomorqasini gullatib qo'ygani-chi...

U tinim bilmaydi. Pardoz-andoz qilishga, so'nggi urfdagi liboslarni kiyishga, ijtimoiy-siyosiy hayotga aralashishga vaqt qayda deysiz. Negaki, u turmush o'rtog'i, oilasi, ro'zg'ori, farzandlari, qaynona-qaynota xizmatida bo'lishni burchi deb biladi. Busiz ayol ayol emas deydi.

Erkaklar ishlash uchun shaharga yoki xorijga ketishga majbur bo'lganida xotin-qizlarga ko'proq mas'uliyat yuklanadi.

Ayollar suv, yer, chorva bilan ko'proq shug'ullanib, ichki bozorlar to'kinligiga hissa qo'shish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda oilasini moddiy ahvolini yaxshilashga intilmoqda.

Xotin-qizlarning bunday tashabbuslari davlat tomonidan ham keng qo'llab-quvvatlanib, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar ajratilmoqda. Shuningdek, xotin-qizlar salomatligini mustahkamlash, jamiyatdagi mavqei va o'rnini yuksaltirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Chunki ayol bilimli, salohiyatli, kasb-hunar egasi bo'lsagina u tarbiyalayotgan farzandlar hayotda o'z o'rnini topadi. Agar tahlillarga qaraydigan bo'lsak, hozirgi vaqtda qishloq xo'jaligi korxonalariga rahbarlik qilayotganlarning 10 foizini xotin-qizlar tashkil qiladi.

Keyingi yillarda dunyoda yuz berayotgan iqlim o'zgarishi, xususan haroratning ko'tarilishi va o'zgarishi, yog'ingarchiliklar qishloq xo'jaligi, atrof-muhit, suv, yer, o'simlik va hayvonot dunyosi, oziq-ovqat xavfsizligi, inson salomatligiga ta'sir qilmoqda. Shuningdek, qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan ayollarning mashaqqati ortmoqda.

Shu bois O'zbekistonda qishloq xo'jaligi allaqachon, innovatsion sohalar qatoriga qo'shilgan, negaki, mahsulot yetishtirishdan to ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayonlarni ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar asosida olib borishni davrning o'zi taqazo qilmoqda. Bu jarayonda fermer yoki tomorqa bilan shug'ullanayotgan xotin-qizlarning o'rnini qanday? Sohada innovatsion texnologiyalarni qo'llashga ular tayyormi?

Halollik va mashaqqat bilan hayotga intilayotgan, bog'rog'laru dalalarda o'z qo'llari bilan yaratgan hosildan ilhomlanib, yangi g'oyalar sari dadil qadam tashlayotgan 22 nafar ayolning hikoyasida bu savollarga javob topasiz, degan umiddamiz.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

PALZADA SALIYEVA

YURAGIGA INSOF-DIYONATU MEHNATSEVARLIKNI
SIG'DIRA OLGAN AYOL

*...Olis hududda istiqomat
qilayotgan oddiy qoraqalpoq
qizining mehnatlari shunday
yuksak baholangani inson qadri
yuksalganidan dalolat*





*Shundaylar bo'lmasa edi dunyoda,
Bu qadar muhtaram bo'lmasdi ayol.*

Abdulla Oripov.

Qoraqalpog'istonlik Palzada Saliyevaning umr yo'lga nazar solganimizda, inson zoti guldan nozik, po'latdan mustahkam ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qildik.

Bir paytlar uch farzandi bilan yolg'iz qolgan, so'ng qayta turmush qurib, o'z baxtini topgan, nafaqat baxt topgan, balki mustahkam iroda, mehnatsevarlik, tadbirkorlik bilan oilasining oftobiga aylangan ayolni ko'rganmisiz?

Agar uchratmagan bo'lsangiz, hikoyamizga quloq tuting.

Biz tanishib suhbatlashgan, keyin bir umrga do'st bo'lib qolgan Kegeyli tumanidagi Janabazar ovulida istiqomat qilayotgan fermer ayol Palzada Saliyeva shunday ajoyib va ibratli taqdir egasidir.

Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo, deyishadi. Baxtli hayot izlaganga ham saodat oshyoni ekan bu hayot.

Palzada Saliyevaning birinchi turmushi omadsiz keldi. Uch farzandni tarbiyalash, o'qitish yolg'iz o'ziga qoldi. Farzandlari kelajagini o'ylab, uzun tunlar uyquasi qochib ketardi. "Otasi qayerda?", "Onasi nima ish qiladi?", "Yolg'iz ayolning bolalari kim ham bo'lardi?" kabi so'roqlarga duch kelganda, go'daklarimning holi ne kechadi, degan o'ylardan iztirob chekardi.

Ammo oyning o'n beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi yorug', degan so'z rost ekan. Yaxshi fazilatlar tufayli Palzadaxonni 40 yil birga yashab, farzand ko'rishmaganligi sababli ajralishayotgan bir oilaning bekasi sobiq turmush o'rtog'iga juft bo'lishni taklif qildi.

Faridaxon 40 yillik oilaviy hayoti davomida farzand ko'rmagani uchun ajrashishga qaror qilib, turmush o'rtog'i Karomiddin og'aga so'rab kelganda esa Palzadaning biroz boshi qotdi. "Bu inson meni qabul qilishi mumkin, ammo bolalarim-chi? 40 yil befarzand yashagan inson bilan balki farzand ko'rmiz, shunda bolalarimga mehr berar?" degan hadikli o'y bilan 2010-yilda qayta turmushga chiqishga rozilik berdi.

Alloh ularga 2011-yilda Mehriqulni, 2014-yilda esa Mehridini berdi. Farida opa Nukusda yashasa-da, Palzada oilaga ko'nikib, hayoti iziga tushib ketguncha o'tgan yillarda kelib, uy ishlarida yordam berdi.

Mard inson Karomiddin og'a va'dasini ustidan chiqdi. Palzada bilan kelgan Hurziyo, Asqarboy va Shulponoyga o'z farzandi kabi mehr berib, o'qitdi, bilmaganlarini o'rgatib kelmoqda. Biz uni bekorga mard inson demadik, u kishi Farida opani ham yolg'iz qoldirmadi, u bilan yashagan vaqtlarida birga asrab olishgan o'g'li uchun uy-joy qilib, yengil mashina ham olib berdi.

Endi Palzada Saliyevaning fermerlik faoliyatiga kelsak, u shunday boshlandi. Nukus davlat pedagogika institutining biologiya yo'nalishida tahsil olgan Karomiddin og'a 1994-yilda "Orzu" fermer xo'jaligini tashkil qilgan edi. U yangi turmush o'rtog'ining qobiliyati, bilimi va uddaburonligini sinovdan o'tkazgach, unga nafaqat oilasini, balki sevgan ishini ham topshirishga qaror qildi. O'zi esa eng yaqin yordamchi va maslahatchi bo'ldi.

Shu tariqa 2014-yildan boshlab Kegeyli tumanidagi Janabazar ovulida joylashgan bu xo'jalikni Palzada boshqara boshladi. 600 gektardan ko'proq maydonga ega ushbu xo'jalikning 100 gektarida qizilmiya, 175 gektarida esa paxta, g'alla, kunjut, poliz va dukkakli ekinlar yetishtirilmoqda.

– Mahalliy iqlim va tabiiy sharoitimizga mos bo'lgan kunjutni bir marta ham sug'ormagan holda mo'l hosil olamiz,–deydi Palzada.–Urug'ida 68 foizgacha yog', 16-22 foiz oqsil va 18 foiz eriydigan uglevodlar bo'lgan kunjut yog'i oziq-ovqat sanoati va kosmetologiyada keng qo'llaniladi. Qolaversa, kunjut qatorlari orasiga qovoq ekilib, qo'shimcha foyda olsa bo'ladi. Bir gektardan bir tonnagacha hosil olish mumkin va bir kilogrammi 35-40 ming so'm. Biz har yili o'n gektar maydondan o'n tonnadan ko'proq hosil olamiz.

Issiqsevar o'simlik bo'lgan kunjut urug'lari 15-16 daraja issiqda unib chiqadi. Poyasi qiyg'os o'sib chiqishi uchun 18-20 daraja harorat talab qilinadi. Kunjut bir bor ekilgan yerga 6-7 yildan keyin qayta ekilishi kerak. Aks holda, kasallik va zararkundalilar bilan ko'p shikastlanadi. Shu bois yer maydoni katta fermer almashib ekishga etibor qaratish bilan har gektarni 10-15 tonna mahalliy o'g'it, 40-50 kilo fosfor bilan oziqlantiradi.

Qoraqalpog'istonning ilm-fan yangiliklari dehqonlarning ko'p asrlik tajribasi bilan uyg'unlashib, taqir yerlarni yam-yashil vohaga aylantirdi. Misol uchun, xo'jalik 100 gektarda qizilmiya yetishtirib, chorva uchun ozuqa jamlab, yerlarning ball-bonitetini





yaxshilashga ham urinmoqda. Negaki, 5 yil davomida qizilmiya o'stirilgan yerda tuproqning sho'rlanganlik darajasi 2,5 barobargacha kamayib, azot, gumus bilan to'yinadi.

Tuproqqa o'zining kuchli ta'sirini o'tkazuvchi, hech bir qismi chiqindi sifatida tashlab yuborilmaydigan qizilmiya ildizi tuproqning gipsli qatlamini ham teshib o'tadi va yer osti suvidan oziqlanadi.

– Hisob-kitoblarimizga ko'ra, rentabelsiz bir gektar maydonda 5 yil mobaynida qizilmiya o'stirish uchun 20 million so'm xarajat qilib, 14 tonna o'simlik ildizini olish mumkin, – deydi yer egasi. – Jahon bozorida esa uning bahosi juda baland. Qolaversa, har gektardagi ekin poyasidan 8000 tonna quruq mahsulot olinadi. Yerning meliorativ holati yaxshilanib, unumdorligi ortadi. Ildiz hosili yig'ishtirib olingan yerga boshqa ekin ekilmasa, zarur agrotexnika tadbirlarini bajarish orqali o'simlikni qayta tiklash va yer ustidan har yili, yer ostidan esa 4 yildan keyin yana hosil yig'ishtirib olish mumkin.

To'rt yil avval ekilgan qizilmiyani joriy yilda qazib olishga hozirlik ko'rilmogda. Oziq-ovqat sanoatida qizilmiya ildizidan kaloriyasiz ichimliklar, qandolatchilik va non mahsulotlari, murabbo, shinni, konserva, ozuqa konsentratlari, tish pastasi kabilarni tayyorlashda foydalaniladi. Hattoki, chiqindisidan qog'ozli termoizolyatsiya plitasi, qog'oz singari mahsulotlar ishlab chiqariladigan bu o'simlikka AQSh, Yaponiya, Germaniya, Vengriya, Xitoy va boshqa ko'pgina davlatlarda talab yuqori.

Maqolamiz qahramoni daladagi ishlardan ortib, uydagi sigirlarni parvarishlab, sog'ishga ham ulguradi. "Sigirlarga qarash uchun ishchi yollasangiz bo'lmaydimi?", deganimizda, "Jonivorlarga hech kim o'zimdek mehr bermaydi", deydi jilmayib.

Xo'jalikda 45 bosh qoramol va 70 bosh qo'y-echki boqilmogda. Hozircha sigirlardan oila ehtiyojiga yarasha sut sog'ib olinadi, qolgani esa buzoqni haqqi sifatida qoldiriladi. Kelgusida sutni qayta ishlash sexi tashkil etilganda sutni to'liq sog'ib olish mo'ljallanmogda.

300 gektardan ortiq yaylovda qoramollar bilan yigirma bosh ot va tuyalar o'tlab yuribdi. "Qashqa" otni Palzada yeru-ko'ka ishonmaydi. Asabi buzilganda, qaysidir ishlari o'ngidan kelmay qolsa, ana shu ot "qanot chiqarib", uni uzoqlarga olib ketadi. Uyga qaytganda hamma tashvishlarni unutib, ishlarini qaytadan boshlaydi.

Uning jonkuyarligi, ish desa oromdan voz kechishini yaqinlari ham yaxshi biladi:

–Bir kuni tungi soat ikkilarda telefonim jiringladi, qaragam dugonam ekan,—deydi tadbirkor Zamira Xo‘jametova. – “Yer haydaydigan traktor buzilib qoldi, sizning texnikangizdan olib tursak bo‘ladimi?”, deb qo‘ng‘iroq qilibdi. Men uni to‘g‘ri tushundim. Negaki, haydov vaqtida har daqiqa hisobli bo‘lib, bu yumushni kechiktirib bo‘lmaydi. Dehqon bemavrid uxlasa, kerakli fursatni boy berib qo‘yishi mumkin. Tumanga chiqib, kerakli ehtiyot qismni yetkazib berdim. Dugonam ishiga pishiq, har bir ishni vaqtida bajarishga harakat qiladi.

Ha, yutuqqa erishmoqning ikkitagiga asosiy sinoati bor, biri – ishning ko‘zini bilish, ikkinchisi – g‘ayrat.

Palzadada bu ikki xislat ham bor. U “Klass orion” haydov traktorini ham bino-yidek boshqara oladi. Qator oralariga g‘ozalarni shikastlantirmay ishlov berish traktoridan tuzukkina tajriba talab etadi. U buni ham yaxshigina eplaydi.

– Aholi yashash joyidan uzoqroqdagi dalmizga ekinga ishlov berish uchun har qadamda texnikani boshqarishga odam kerak, – deydi fermer. – Avvallari bu yumushni turmush o‘rtog‘im bajarardi. Endi o‘zim o‘rganib oldim. Uchta farzandim yonimga kirdi. Kimni vaqti bo‘lsa, birga bajarib ketaveramiz.

Oramizda shunday saxovatli insonlar borki, ular huzuriga yordam so‘rab kelgan kishining ahvolini darhol fahmlaydi. Arzimas pulga muhtoj bo‘lgan qo‘shnisi yoki yaqinining tirikchiligi qanday o‘tayotganligi haqida o‘ylab, o‘z imkoniyatidan kelib chiqib, u so‘raganidan ham ko‘proq yordam berib, saxovat ko‘rsatadi. Sodda, mehnatsevar va yumshoq tabiatli Palzada ana shunday saxovtli.

U uch yil muqaddam “kovid” pandemiy davrida ovuldagi har bir oilaga imkoniyat darajasida yordamlashdi – un, yog‘, shakar va sabzavotlar yetkazib berdi. Ana o‘sha yilning bahorida “Onalar bog‘i”ni barpo etdi. Pakana bo‘yli o‘rik, olma va nok ko‘chatlari ekilgan bir gektar bog‘ning qator orasi ehtiyojmand oilada yashayotgan 8 nafar ayolga taqsimlab berdi. Ular ko‘chatlar orasiga oilasi ehtiyojlari uchun kartoshka, pomidor va turli xildagi dukkakli ekinlar yetishtirmoqda. Bu yilni nishona hosilni ham o‘zlari terib olishdi.



Kelayotgan bahorda yana o'n gektarda bog' tashkil qilib, tomchilatib sug'orish tizimlaridan foydalanishni mo'ljal qilmoqda. Uning ham teng yarmi yolg'iz onalar, no-gironligi bo'lgan va moddiy ahvoli qiyin oilalarga bo'lib beriladi.

Bu ehsonlarining o'рни ziyodasi bilan to'lib bormoqda. Xususan, 2021-yilda o'tkazilgan "Yil ayoli" ko'rik tanlovida "Orzu" fermer xo'jaligi raisi Palzada Saliyeva mutloq g'olib bo'ldi – "Prezident mukofoti" "Chevrolet Lacetti Gentra" avtomashinasi bilan taqdirlandi.

– O'lis hududda istiqomat qilayotgan oddiy qoraqalpoq qizining mehnatlari shunday yuksak baholangani inson qadri yuksalganidan dalolat, – deydi Palzada. – Bunday ishonch va e'tirofdan juda quvondim. Kelgusida yanada ko'proq yutuqlarga erishish va atrofimdagi insonlarga yaxshiliklar qilish maqsadida rejalar tuzib, mehnat qilmoqdaman.

O'tgan yili olingan foyda hisobidan Rossiyadan bug'doyni qayta ishlash texnologiyasini xarid qildi. Shu asosda un tayyorlash yo'lga qo'yildi. Kichik zavodni o'g'li Asqarboy boshqarmoqda. Kelgusi yilda sutni qayta ishlab, qaymoq, suzma, qurt va sariyog'ni qadoqlagan holda ichki bozorga, mahalliy usulda tayyorlangan ayronni eksportga chiqarmoqchi. Buning uchun esa xo'jalikda chorva soni yetarli.

Palzada o'zi yashab turgan ovulda bemorlar davolanadigan va hordiq chiqaradigan maskan tashkil etmoqchi. Shuning uchun tuya va ot sonini ko'paytirmoqda. Ot suti organizmdagi o'smalarda, o'pka va teri kasalliklari, yiringli yara va chipqonlarda, zamburug'li teri xastaliklarida shifo sanaladi. Tuya suti esa tarkibida kalsiy, fosfor va natriy mo'l bo'lgani uchun sigir sutidan 5 baravar quvvatli sanaladi, aqliy qobiliyatni oshiradi, Shuningdek, kamqonlik, darmonsizlik, oshqozon-ichak saratoni, sil kasalligi, oqqon, oshqozon yarasi, me'da osti bezi kasalliklarida tuya suti bebaho sanaladi.

Xo'jalikning yer maydoni katta. Yaqin istiqbolda ekoturizm maskani barpo etib, tabiatni asl holicha asrab qolish, sayyohlar cho'l landshafti negizida hordiq chiqarishiga erishish niyati bor. Tasavvur qiling-a, ot yoki tuya minib, keng dalada sayr qilasiz. Yovvoyi hayvonlar shundoq ko'z oldingizda. Buning uchun esa g'oz, o'rdak va kurkalarni ham ko'paytirmoqda.

2023-yil fevral oyida Jahon bankini Aralboyi regionida iqlim ozgarishini yumshartirish seminarida bogdorchilikni rovojlandirish boyicha biznes reja bilan qatnashgan Palzada 600 mln so'mlik grant yutib oldi. Bu boyicha har gektarga pakana navli kochatlardan 1000 tub olma ekiladi. Shunda 13 nafar kam taminlangan oilaning har biriga 35 sotix yer ajratib beriladi. Ular kochatlarni tarbiyalaydi va orasiga bozorbob savzobotlarni ekib daramod oladi.

Palzada kabi yuragiga insof-diyonat, muhabbat, mehnatsevarlik va kamtarlikni sig'dirgan ayollar bor ekan, dunyo gullab yashnaydi.

Uning umri oftob yo'liga o'xshaydi. Qalblarni isitadi, yo'llarni yoritadi.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI

ALIYA BAZARBAYEVA

QUM BARXANLARI BAG'RIDA BAXT UYINI QURAYOTGAN ALIYA

...Chorvachilikni yangi boshlaganlarga xorijdan zotdor mol olib kirish juda murakkab masala ekanini va bu ferma bankrotga uchrashiga sabab bo'lishini bilmasdan, katta zarar ko'rdim





Aliya o'z brendini yaratishni orzu qiladi. Shu maqsadda 2018-yilda "Ganesh" mas'uliyati cheklangan jamiyatini tashkil etdi.

U bilan Nukus tumanidagi Sananbay ovulida qurilayotgan bino yonida uchrashdik. Ikki qavatga mo'ljallangan bu binoda kelgusida sutni qayta ishlash sexi ishga tushadi. "Ganesh" brendi bilan sut, qatiq, qaymoq, tvorog hamda qurt shu yerda qadoqlanadi.

Jazirama. Qilt etgan shabada yo'q. Olislarda ko'rinib turgan to'lqin-simon qum barxanlari o'rkachli tuyalar harakatini yodga soladi. Salqinroq joyda suhbatlashish niyatida Aliya opaning xonadoniga yo'ldik.

Suhbat jarayonida oilaviy fotoalbomni varaqladik. Ularda bolaligi, oila a'zolari, o'zining va farzandlarining to'y marosimlari aks etgan suratlar anchagina. Bu suratlar Aliyaning xotiralarini yangiladi. Sekin-sekin har bir suratning tarixi bilan tanishtira boshladi.

– Bu Marat bilan nikoh to'yimiz, 1995-yilda olingan, – deydi Aliya Bazarbayeva. – Yonimizdagilar esa uning uchta ukasi va qaynota, qaynonam.

Bunisi ota-onam. Maktabda bolalarga dars berish jarayoni. Mana bu suratga bozorda tushganmiz, erim go'sht maydalab, men sotayotgan vaqt. Bunisi esa 1996-yilda o'g'lim Nurlan dunyoga kelganda tushganmiz. Bunda esa nikoh to'yi muhrlangan. Voy, echkilar orasida ham tushibman!

Suratlar Aliyaning hayot yo'llarini esga solib turadi.

Chorvador bo'lish, qassoblik bilan shug'ullanishga qanday qiziqqansiz? Bu savolimizga biroz sukut saqlagach, "To'g'risi, qassoblik bilan shug'ullanish hech ham xayolimga kelmagan. Chorvani esa bolaligidan yaxshi ko'raman", deya javob berdi.

Aliya kelin bo'lgan oila bo'rdoqichilik bilan shug'ullanardi. 100 bosh qoramol navbat bilan so'yilib, go'shti bozorda sotilar va o'rni to'ldirib borilardi.

2002-yilda yosh oila alohida uy-joy qurib, ko'chib chiqdi. Marat ota kasbini davom ettirib, go'sht sotish do'koni ochdi. Oila bozordan mol olib, semirtirib, go'shtini sotishni boshladi. Oila shu kasb orqali daromad topardi. Boshga tushgandan keyin inson har ishni bajarar ekan. Aliya ham qassoblik sirlarini eridan o'rgandi. Mahorati oshib, bozordan qoramol tanlash va go'sht chopishda ustozidan ham o'tdi.

O'zbekistonda tadbirkor-ishbilarmonlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan e'tibor oilaga yangi imkoniyat berdi.



2018-yil. Do'kondan kelib, choy ichib o'tirgan Aliyaning ko'zi televideniya da berilayotgan yangi xabarga tushdi. Unda yoshlar bandligini ta'minlash uchun yer ajratish haqida aytilgan edi. 1997 yilda tug'ilgan qizi Nuriya bilan maslahatlashib, biznes-reja tuzdi. Oradan yarim yilcha vaqt o'tib, Nukus tumanidan yarim gektar yer berildi.

Chorvachilikni rivojlantirish ko'zda tutilgan biznes rejaga ko'ra, bu yerning bir qismida ferma qurildi. Unga parallel ravishda chorva xaridi bo'yicha harakat olib borildi. Bu vaqtda yurtimizga xorijdan qoramollar olib kelishga e'tibor qaratilayotgandi. Oila bilan maslahatlashib, Zaanen zotli echkilarni xarid qiladigan bo'ldi. Ta'riflarga ko'ra, bu echkilarning sut mahsuldorligi yuqori bo'lib, iqlimga moslashuvchan edi.

Aliya ferma qurish, xorijdan chorva olib kelish tashvishlari bilan yurgan kunlarida turmush o'rtog'i Marat to'satdan olamdand o'tdi. 2019-yilda bankdan uch yilda qaytarish sharti bilan bir yarim milliard kredit evaziga har biri 5 million so'mga baholangan echkilar Avstriyadan olib kelindi. Kunlik sut sig'imi o'rtacha 4-8 litr bo'lgan echkilardan 3-5 kilo uloqchalar tug'ildi.

– Bu echkilarning asosiy qismi bizdagi issiq va quruq iqlimga moslasha olmadi, – deya eslaydi Aliya. – Garmselda o'pkasi ishdan chiqdi. Sut berishga moslashgani uchun go'sht yo'nalishida foydalanib bo'lmadi. Ularni asrab qolish uchun izlandik,



echki va uloqlarni sog'lig'idagi har bir o'zgarish nazoratga olindi. Hech narsani ko'zdan qochirmay veterinarlarni maslahatlashib, ko'p harakat qildik. Natijada uloqchalar va echkilarni bir qismini saqlab qoldik.

Aliya o'sha kunlarni eslab, og'ir xo'rsinadi. Oson bo'lmadi suyanchig'i, maslahatchisidan ajraldi. Bu yoqda uch farzandni oyoqqa turg'izish kerak. U o'zini qo'lga oldi. Eski do'konni qayta ochib, qassobchilik bilan shug'ullana boshladi. Har hafta – gohida Chimboyga, gohida Xo'jayli tumanidagi mol bozorga borib, chorva xarid qiladi. Go'sht sotadi. Qoramollarni ichak-chavog'i, kalla-pochasini tozalab, sotadi. Shu tariqa kredit to'lashga va oila ehtiyojlariga yetarli mablag'ni topardi.

Chorvaga bo'lgan qiziqish va orzulari sabab 2020-yilda Avstriya davlatidan Simmental zotli 93 bosh naslli g'unajin olib kelindi. Sut-go'sht yo'nalishidagi bu qoramol Shveysariyada mahalliy va Skandinaviya qoramollarini yaxshilash yo'li bilan yaratilgan va Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan. Ularning vazni 500-1000 kilo atrofida bo'lib, novvoslar bo'rdoqiga boqilganda tez semiradi. Rekordchi sigirlari bir yilda 14-15 ming litrdan oshiqroq sut beradi. Simmental qoramol zoti mahsuldor va turli iqlim sharoitlariga tez moslashadi.

Ana shunday ta'riflarga ishongan Aliya bankdan 7 yillik muddatga 19 foizdan 2,5 milliard so'm sarmoya oldi. Yirik-yirik qoramollarning ozuqaga bo'lgan talabi ham shu gavdaga va mahsuldorlikka yarasha edi. Ozuqa yetishtiray desa, fermerning yeri yo'q, bozordan xarid qildi. Shu tariqa texnika xarid qilishga mo'ljallab yig'ilgan mablag' ozuqaga sarflab yuborildi. Afsuski, bu ham qoramollarni saqlab qolmadi. Qoraqal-pog'istonning iqlim-sharoitiga moslashishi qiyin kechdi...

Yana inqiroz boshlandi. Oyiga 58 million so‘m kredit to‘layotgan ayol uchun har biri 23 million so‘mlik qoramollardan birma-bir ajralish og‘ir edi. Oylik foizlarni qoplash uchun uyini, avtomobilini sotishga majbur bo‘ldi. Ayolning xayolida “Endi nima bo‘ladi, bu yog‘iga qanday ishlayman?” degan savol bor edi. Shunda ikki akasi ko‘makka keldi. Ular ma‘naviy va moddiy qo‘llab-quvvatladi.

Hozirda iqlim injiqliklariga moslasha olgan 45 bosh sigirdan kuniga 15 litr sut sog‘ib olinmoqda. 2020-yilda e‘lon qilingan Nukus tumanidagi shifoxonalarga aut-sorsing shartlari asosida xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risidagi e‘lon fermerning joniga oro kirdi. Tanlovda g‘olib bo‘lgach, tibbiyot tashkilotlarini oziq-ovqat va sut mahsulotlari bilan ta‘minlash borasida shartnoma tuzildi.

Bir qarashda boshqa ayollardan farq qilmaydigan, yuzlari oftobda qoraygan, odmigina bu ayolning ulkan qalbi bor ekan. U tengi ish boshlagan ko‘plab chorvadorlar zararga ishlagandan ko‘ra, boshqa ish bilan shug‘ullanishni ma‘qul ko‘rishdi. Ishiga mehr ko‘ygan Aliya “Bu ishni tashla, foydasidan zarari ko‘p” degan maslahatlarga quloq solmadi. Hamon izlanishda davom etmoqda. Hozirda uning 47 gektar yeri bor. Bu maydonlarda chorva uchun makkajo‘xori va yo‘ng‘ichqa yetishtirmoqda.

– Chorvachilikni yangi boshlaganlarga xorijdan zotdor mol olib kirish juda murakkab masala ekanini va bu ferma bankrotga uchrashiga sabab bo‘lishini bilmasdan, katta zarar ko‘rdim, – deydi Aliya Bazarbayeva. – Bu menga achchiq saboq bo‘ldi. Mol zotini tanlashda chorvachilik fermasi yo‘nalishi bilan birga iqlim sharoiti o‘xshashligini, shuningdek, zotning reproduktiv xususiyatlarini inobatga olish zarur ekan. Biz boshlagan yillarda chorva kelgandan keyin ozuqa yetishtirish uchun yer berilardi. To‘g‘ri, hozirda bunday yondashuvga chek qo‘yildi.



Xato va yo'qotishlar ko'p bo'ldi. Yiqilgandan keyin turishni ham bilish kerak. Atrofida yaxshi insonlar shunchalik ko'p ekanki, hayotida uchragan muammolar, illatlar dengizga otilgan toshdek iz qoldirishiga yo'l qo'yishmadi. Hayotga go'zal ko'z bilan qarab, har bir ishdan hikmat izladi. Shu tariqa Aliya chorvachilik ortidan orzu-havaslariga erishmoqda. O'g'li Nurlan shifokor, qizi Nuriya o'qituvchilik kasbi bilan shug'ullanmoqda. Kenjatoy Nurtas endigina 12 yoshga kirdi, chorvaga mehr onasidan o'tgan. 3 nafar nabirasi buvisini ko'rsa, qanot yozgan polaponlar kabi unga talpinadi. Shunda Aliyaning yuzlarida oftob balqqanini ko'rsangiz edi...

ANDIJON VILOYATI

FARIDA MAMATISAKOVA

ISSIQXONADAN UNUMLI FOYDALANISH SAN'ATI

*...Yer-suvdan oqilona
foydalanish, daromadni
oshirish uchun
faoliyatimizni innovatsion
g'oyalarga tayangan
holda olib boryapmiz*





Qishloq odamlari tabiatan qiziqqon bo'ladi. Bir ishga kirishdimi, oxiriga yetkazmasdan qo'ymaydi. Aslida bu yaxshi fazilat. Shuning uchun ham bog'-rog'lar yashnab, tomorqalar daromad manbaiga aylanib bormoqda. Ko'klamda ketmonini ko'tarib dalaga chiqqach, sovuq etni junjiktira boshlagan izg'irinli kuzda ishini yakunlab, uyda o'tiradi. Buni oson deb o'ylaysizmi? Aslida qishloq deganda yashillik, sara mevalar, keng dalalar, sigir-buzoqlar tushuniladi. Bu to'g'ri. Ammo hammasi mashaqqatli mehnat va yelib-yugurishlar tufayli yaratiladi. Shuning uchun ham chorvador dehqonu sahibkorlarga qancha tahsinlar aytsak kam.

Farida ham ana shu muhitda yashab, shunday hayot tarzini boshidan o'tkazgan. Otasi Mirzahokim aka maktabda bolalarga fizikadan saboq berar, uydagi mo'jazgina hovlini ham gullatib qo'yardi. Ko'rgan kishining havasi kelardi. Kichik tomorqada pomidor, bodring, kartoshka, makkajo'xori, bulg'or qalampiri, qovun-tarvuz, hattoki qulupnay yetishtirilardi. To'g'ri, juda ko'p emas, ammo kichik oila ehtiyojiga yarasha har turdagi ekindan ikki-uch egatdan ekib, parvarishlanardi.

1988 yilda oilaning yagona qiz farzandi – Farida qo'shni xonadonga kelin bo'ldi. Kuyov Anvarbek sakkiz farzandning to'rtinchisi edi. Kelin-kuyov 1990 yilda alohida uy qurib, mustaqil yashashni boshladi. Faridaxon ota kasbini tanlagan emasmi, maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilarga saboq berardi. Mashg'ulotlardan bo'sh vaqtda agronomiyaga oid adabiyotlarni, olimlarning ishlari aks etgan innovatsion g'oyalar haqida qiziqish bilan o'qib borardi. Ba'zilarini, misol uchun pomidor, bodring ko'chatlari yetishtirishni otasi, keyin qaynotasi xonadonida ko'rgandi. Ayrim tajribalarni esa o'zi ham sinab ko'rishni istardi.

Kuz kunlarini birida turmush o'rtog'idan issiqxona qurib berishni iltimos qildi. Anvarbek avvaliga hayron bo'ldi. Rafiqasini maqsadini tushungach, "konspekt yozguncha, charchab uxlab qolasan-ku, urug'ni ko'chatga aylantirish oson ish emas, go'dakka qaraganday, tunlari uxlamay, pechka yoqib, xabar olib turish kerak" deya rad etdi. Farida qaysar emasmi, u bo'sh kelmadi, "bolaga qarash uchun uyg'onganimda, issiqxonadan xabar olaman, siz qurib bersangiz bo'ldi, qolganini menga qo'yib bering", dedi. Farida ushlagan joyini uzib olguncha qo'ymadiganlardan emasmi, baribir turmush o'rtog'ini ko'ndirdi.

Shunday qilib, kichkinagina issiqxona qurilib, dekabr oyida urug' sepildi. Yanvarda – qishning izg'irinli kunlarida ko'chatlar nish urdi. "Voy, dadajonisi, buni qarang, urug' unib chiqibdi" deb sevinchini yashira olmasdi u. Bo'y cho'zgan ko'chatlar sotuvga tayyorlandi.

– To‘g‘risi, o‘sha paytlar yosh oila edik, topganimiz ro‘zg‘or tebratishga zo‘rg‘a yetardi. Ammo shunga qanoat qilib yashaganman, – deydi Andijon viloyatining Shahrixon tumanida istiqomat qiluvchi Faridaxon Mamatisaqova. – Hayot shu deb o‘ylaganman–da. Lekin mehnat ortidan chiroyli uylar qurish, farzandlarimizga qulay yashash sharoitlari yaratishni orzu qilganman. Ko‘chatchilikka qo‘l urganimizdan so‘ng bu orzular birma-bir amalga osha boshladi. Har oyda daromad kelib turardi. Rosa pul uzilgan paytlar, qishning oxiri, bahorning boshi bilan ko‘chat sotish boshlanardi. Pomidor, bodring, baqlajon, achchiq qalampir ko‘chatlarining bozori chaqqon edi.

Yillar o‘tgani sayin Faridaning ko‘chatchilikda tajribasi oshdi. Endilikda oila nafaqat Shahrixonda, balki Andijonda o‘zining sifatli mahsulotlari bilan dong taratdi. Viloyatning har bir hududiga, iqlim sharoitiga mos keladigan turli ko‘chatlar yetishtirish yo‘lga qo‘yildi. Shu maqsadda uchta issiqxona tashkil etildi. Misol uchun, Andijon tumanining Hakkon adirliklarida dehqonchilik qilayotgan fermer xo‘jaliklariga qir yonbag‘ridagi ochiq dalaga ekishga mo‘ljallangan qurg‘oqchilikka chidamli o‘rtapishar ko‘chatlar buyurtma asosida tayyorlanmoqda.

Noyabrning oxirlarida issiqxonada ko‘chat yetishtirish uchun 15–20 santimetr qalinlikda chirimagan go‘ng, uning ustiga 20 santimetr qalinlikda elangan tuproq so-



linadi va polietilen plyonka tortiladi. Uning ustiga 40 foiz tuproq, 40 foiz chirigan go'ng, 20 foiz yog'och, sholi qipig'i yoki qumdan iborat aralashma tayyorlanib, 8-10 santimetr qalinlikda solinadi va tekislanadi.

Urug' sepilgan xandaqlarni ustiga tol novdalari yoki simlardan tayyorlangan yoylar qadab chiqiladi va polietilen plyonka bilan yopiladi. Issiqlikni saqlash uchun 5 qavatli termos qilinib, ichi pechka yoqib, isitiladi. Bir vaqtning o'zida achchiq qalampir, shirin bulg'or va pomidor urug'i sepilib, dimlab, bekitiladi. Bunda plyonka ustiga qamish yoki poxoldan to'qilgan to'shamalar yopish mumkin.

– Yer-suvdan oqilona foydalanish, daromadni oshirish uchun faoliyatimizni innovatsion g'oyalarga tayangan holda olib boryapmiz, – deydi Faridaxon. – Shuning uchun yopiq maydonga bir necha turdagi sabzavot urug'larining hammasini bir vaqtda ekishni sinab ko'rdik. Hosil yaxshi bo'ldi va biz bu usulni doimiy qo'llashga o'tdik. Birinchi chiqqan ko'chatlarni qog'oz yoki polietilendan tayyorlangan maxsus idishlarni unumdor tuproqqa mahalliy o'g'it aralashtirib to'ldiramiz va ko'chatlarni o'tkazamiz. Keyingilar uchun joy ochiladi. Misol uchun, shirin bulg'or urug'i suvda uvutilib keyin sepilsa, bir oyda yoki uzog'i bilan 40 kunda o'sib chiqadi. Pomidor esa birinchi usulda 10 kunda, o'z holicha esa 15 kunda tayyor bo'ladi. Ana shu usulda 2 kvadrat metrdan 6 ming dona



ko'chat tayyorlanadi va donasi 800–1000 so'm atrofida sotiladi. Holat bir yarim, ikki oyda takrorlanib turishi sabab, bahorgi va kuzgi ekish mavsumida 500–600 ming dona sifatli ko'chat buyurtmachilarga yetkazib beriladi.

Ta'kidlash joizki, bunday usulda yetishtirilgan ko'chatlar yerdan unumli foydalanishni ta'minlaydi.

Bozorga ertachi hosil chiqariladi. Sog'lom, baquvvat nihollar ekilgan maydonlarda may oyining oxiri va iyun oyining boshlarida dastlabki hosilni olish mumkin. Oddiy usulda ekilgan ko'chatlarga nisbatan hosil 15–20 kun erta yetiladi.

Farida opa ko'chat yetishtirish bilan cheklanib qolmaydi. Ko'chatlarning 30 foizi xo'jalikning o'zida qoladi. Yopiq maydonlarda ekilgan ko'chatlarni bir tekis hosilga kirishi uchun barcha agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida bajarish kerakligini, har daqiqa g'animat ekanini oila a'zolari juda yaxshi biladi. Natijada esa pomidor qizarmasdan, qator oralariga ekilgan bodring pishib yetiladi. Issiqxona qirg'oqlari ham bo'sh qolmaydi – qulupnay, sabzi, turp ro'zg'or uchun nima kerak bo'lsa, hammasi yetishtiriladi. Almashlab ekish maqsadida ikkinchi ekin sifatida karam kartoshka yoki sarimsoqpiyoz yetishtiriladi. Keyingi besh yilda sabzavotlarning ketma-ket pishishini ta'minlash orqali, yiliga 4–5 marta hosil olishga erishilmoqda. Buni ortidan 300 million so'm atrofida daromad keladi.

Dehqon qancha ko'p hosil olsa, daromadi shuncha oshib boraveradi. Buning uchun esa tuproqning boniteti yuqori, yer sog'lom bo'lishi kerak. Afsuski, yerlarga dam bermasdan, tinimsiz ekin yetishtirish sababli holati yomonlashib bormoqda.

BMTning so'nggi besh yillikdagi tahlillariga ko'ra, yer sharining 40 foiz tuprog'i sifatini yo'qotgan. Insonlarning yerga bo'lgan noto'g'ri munosabati tuproq unumdorligiga ta'sir qilmoqda. Cho'llanish, yer degradatsiyasi va qurg'oqchilik kabi muammolar dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlarida istiqomat qilayotgan 1,2 milliard aholining salomatligi va farovonligiga jiddiy xavf solyapti. Negaki, qishloq xo'jaligi va meva-sabzavot yetishtirishda tuproq sifati juda muhim.

Faridaxon turmush o'rtog'i bilan maslahatlashib, mahalliy o'g'itdan unumli foydalanish orqali tuproqning holatini saqlash harakatini boshlaganiga ham 10 yillar bo'lib qoldi. Buning uchun yozning issiq kunlaridan harakat boshlanib, molxonadan, kamiga qo'shni xonadonlardan mahalliy o'g'it olib kelinib, yaxshilab quritiladi. So'ngra maxsus qazilgan o'ralarda dimlab, chiritiladi. Gohida atrofdagi xazonlar ham qo'shildi, qavat-qavat qilib solinadi. Bunday o'g'it yerning holatini yaxshilash bilan bir vaqt-



da, hosil mo'l va sifatli bo'lishini ta'minlaydi. Begona o'tlar kamayadi. Har yili tayyorlanadigan shu oddiy chirindini o'zidan oila yiliga 10–12 million so'm foyda ko'radi.

Kamiga ko'chatlarni xarid qilgan dehqon yoki tomorqachi istasa yetishtirilgan hosilni qaytarib, Farida opaga sotishi mumkin. Ko'chatlar qo'shni Namangan va Farg'ona viloyatlarining dehqonlariga ham yetkazib berilyapti. Hosilni sotib olish majburiyati esa har bir ko'chatni sifatli urug'dan tayyorlashni talab etadi.

Albatta, bunday yumushning o'ziga xos mashaqqatlari bor. Misol uchun, 100 kilogramm yaxshi pishgan pomidordan 500 gramm urug' olinishiga nima deysiz. Va-holanki, Farida opaga har yilgi mavsumda 15 kilogram urug' kerak.

– Buning uchun eng yaxshi, sara pishgan hosildor navli pomidorlar kerak bo'ladi, – deydi F. Mamaisaqova. – Odatda, butun pomidorni uch kun achitib, keyin urug'i olinadi. Biz esa uni yangicha va osonroq usulda tayyorlaymiz. Buning uchun iyun oyida g'araq pishganda pomidorni teng ikkiga bo'lib, urug'larini ehtiyot bo'lib, tushirib olaman. Uch kun achitib, keyin elakdan o'tkazib, toza suvda yuvib, doka-da suzib, urug'larni saralab olaman. Keyin quritib, qishki hosil uchun olib qo'yamiz. Bu birinchi qo'l tayyorlagan hosil bo'lishi kerak. Urug' olishda ishlatilgan pomidordan esa tomat, ikralardan tashqari kompot va murabbo ham pishirib olamiz.

Ha-ya, Farida opaning kichik o'g'li va qizi Koreyada oliy ta'limni davom ettirmoqda. Katta o'g'li esa logistika yo'nalishida faoliyat yuritmoqda. Ular rus, ingliz, koreys tillarini mukammal biladi. Farzandlar safardan uyga qaytganda toza navli sabzavot urug'larini oyisiga sovg'a uchun olib keladi. Albatta, bu urug'lar sinov uchun ekib ko'riladi. Ma'qul kelsa, ko'paytiriladi.

Farida opa har qarich yerdan, hattoki vaqtdan ham unumli foydalanadi. Mahallada maslahatchi, yoshlar, xotin-qizlar orasida yangiliklarni targ'ib qilish, tomorqadan unumli foydalanish borasida tushuntirish bilan bir vaqtda ko'maklashadi. Onaxon 41 yoshda oliy ma'lumotli bo'lishga erishdi. Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilariga maktabda saboq bermoqda. O'zi tashkil qilgan kutubxonada tez-tez mutolaa kechalari o'tkazib turadi, g'olib o'quvchilarga eng sara kitoblar sovg'a qiladi.

Farida opa suhbat davomida yerdan oqilona foydalanishi ortidan, yaxshigina daromad olayotgani, yonida hamisha turmush o'rtog'i Anvarbek va ukasi Nozimjon turishini aytar ekan, yana 50 nafar ishchi ham borligini ta'kidladi.

Olingan katta daromad va ishchilar sonining ko'pligidan ko'z oldimizga Farida opaning katta bir korxonasi bo'lsa kerak, degan tasavvur gavdalandi. Yo'q, adashgan ekanmiz, shuncha hosil va daromad atigi 8 sotixdagi bo'yi 32, eni 8 metrlik uchta issiqxonadan kelayotganiga nima deysiz? Buyam bir innovatsiya, yangilikka intilish va ishning ko'zini bilishdir. Qolaversa, uning mahsuloti tonna-tonna hosil bo'lib, el dasturxoniga tortiq etilmoqda. Bozorlar rastalari to'kin bo'layotir. Shuning orqasidan Faridaxon O'zbekistonning eng mashhur tadbirkor ayolari safida tilga tushdi. Bizning niyatimiz ham ezgu: Hech qachon kam bo'lmang, Farida opa!

ANDIJON VILOYATI

ZIYODA HASANOVA

BIOMAHSULOT YARATIB, ORGANIK EKINLAR YETISHTIRISHDA
KO'MAKLASHAYOTGAN AYOL

...Bolalik chog'larimizda paxtazorlarga samolyotlar bilan zaharli ximikatlar sepilardi. Uning yoqimsiz hididan bezor bo'lib, qayoqqa qochishni bilmay qolardik. Shukrki, u kunlar o'tib ketdi.





Dunyo aholisi orasida sog'lom turmush tarzi, ovqatlanish mavzusi tez-tez tilga olinmoqda. Oziq-ovqat iste'moli madaniyati va xavfsizligini ta'minlash ham shunga yarasha o'zgarib boryapti. Natijada hazmi yengil hamda tanaga bezarar mahsulotlarga talab ortayotir. Bu esa dehqon zimmasiga ekologik toza mahsulot yetishtirish majburiyatini yuklaydi.

Xo'sh, ekologik sof mahsulotlarni qayerdan olamiz? Buning uchun inson organizmiga ziyonli kimyoviy vositalarni dalaga sepmaslik kerak. Bozor talab va taklifga asoslanadi. Keyingi yillarda dehqonlar ekin zararkunandalari hamda kasalliklariga qarshi kurashda zaharli kimyoviy o'g'it va preparatlardan voz kechmoqda.

Kundan-kunga biologik usulga talab oshib, biolaboratoriya va biofabrika mahsulotlari ko'paymoqda. Avval katta tumanlarda bitta biolaboratoriya bo'lgan bo'lsa, endi bitta tumanda o'nlab biolaboratoriya faoliyat yuritayapti. Tanlash imkonidan foydalangan dehqon, fermer va tomorqachilar biolaboratoriya ekan, deb duch kelgandan emas, ekinga nafi ko'p tegadigan mahsulotni sotib olayotir.

Andijon viloyatining Baliqchi tumanida ham 5ta biolaboratoriya va bitta biofabrika tashkil etilgan. Ulardan biri – "Baliqchilik Ziyoda" xususiy biolaboratoriyasiga Ziyodaxon Hasanova rahbarlik qilmoqda.

Biolaboratoriyada zararkunandalarga qarshi, asosan, uch turdagi biomahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Jumladan, oltinko'z-shira, o'rgimchakkana, komstok qurti, qandalalar, ko'sak qurti tuxumi, 70 dan ortiq bo'g'imoyoqlilar va kichik yoshli qurtlar bilan oziqlanadi. Tuxum holatidagi oltinko'z lichinkasi bir kunda 100 tagacha zararkunandani yo'q qiladi. Trixogramma – makkajo'xori parvonasi, karam kapalaklariga, ko'sak qurti va boshqa bir qancha tunlamlarga qarshi qo'llaniladi. Bu entomofag ko'sak qurtini tuxumiga qarshi bir gektariga 1 gramm normada tarqatiladi. Zararkunandalar zichligidan kelib chiqib, dalaga 1000 dona uchadigan yetuk zotli brakon qo'yiladi.

20 ta barqaror ish o'rni yaratilgan "Baliqchilik Ziyoda" xususiy biolaboratoriyasi tumandagi 35 ta fermer xo'jaligi bilan shartnoma imzolagan. Unga ko'ra, 1000 gektar paxta maydoni, 800 gektar g'allazor, 8 gektar bog' va 10 gektar poliz maydoniga





biologik xizmat ko'rsatilmoqda. Ya'ni qishloq xo'jaligi ekinlarini biologik yo'l bilan hi-moyalashda ko'maklashmoqda. Hosildorlik – dehqonning mo'ljalidan ziyoda. Shuning uchun bu fermerlar yerni, hosilni va oziq-ovqatni iste'molchi bo'lgan insonni zaharlovchi preparatlarni hatto nomini ham esidan chiqarib yuborgan...

Ziyoda Hasanova o'z kasbiga bo'lgan muhabbati, uddaburonligi va mehnat-sevarligi tufayli qator yutuqlarga erishmoqda. 1963 yilning 6 may kuni Baliqchi tumani-da dunyoga kelgan Z. Hasanova bolalik, yoshlik yillaridan ekin-tikinlarga mehr qo'ydi. Shu orzu-havas uni "o'simliklar shifokori" deb ta'riflanadigan hozirgi kasbini egallashi-ga sababchi bo'ldi.

1982 yildan qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan Ziyodaxon Andijon paxtachilik institutini a'lo baholarga tamomlagan olim-agronomlardan. O'tgan yillar davomida katta tajriba orttirdi, tahlillari, ilmiy sinov va samarali mehnatlari bilan o'ziga xos maktab yaratdi. Andijon viloyatidagi "Olima ayollar" uyushmasi a'zosi. Ro'zg'ori saranjom-sarishta. Mahallada o'z o'rnini va so'zi bor.

Turmush o'rtog'i Abdusamad aka bilan 3 nafar farzandni tarbiyalab voyaga yetkazdi. 7 nafar nabira daladan kelganida charchog'ini chiqaradi. Bir qishloq ayoli-ning baxti bo'lsa shunchalik bo'lar-da, deyishadi odamlar.

– Bolalik chog'larimizda paxtazorlarga samolyotlar bilan zaharli ximikatlar sepilar-di, – deydi Ziyodaxon Hasanova. – Uning yoqimsiz hididan bezor bo'lib, qayoqqa qochishni bilmay qolardik. Shukrki, u kunlar o'tib ketdi. Balki shu sabab qishloq xo'jaligi zararkunandalariga biosulda kurashish meni o'ziga chorlagandir. Aslida uydagilar-ning talabi bilan texnikumda buxgalteriya yo'nalishida tahsil oldim. Lekin faoliyat-imni "Pobeda" kolxozining biolaboratoriyasida laborant bo'lib boshladim. Keyinchalik Andijon paxtachilik institutida sirdan tahsil oldim.

2006 yilda "Baliqchilik Ziyoda" xususiy biolaboratoriyasi tashkil etildi. Shundan buyon shartnoma tuzgan dehqonlarni biomahsulotlar bilan ta'minlab kelmoqda. U o'zining hisob raqamiga pul ko'chirgan mijozga mahsulotni shunchaki berib yubor-maydi, balki biologik mahsulotni fermerning dalasiga o'zi olib boradi. Foydalanishni o'rgatadi va ko'maklashadi. Mavsum davomida dalaga borib, natijani kuzatadi. Sa-maradorlikni nazorat qiladi.

O'tgan yili biolaboratoriyada 6 million dona oltinko'z, 4 million dona brakon va 5 kilogramm trixogramma yetishtirildi. Ushbu biomahsulotlar, asosan, paxta va g'alla maydonlariga tarqatildi. Fermer xo'jaliklari, o'rmon xo'jaliklari, aholi tomorqalarida kasallik hamda zararkunandalarga qarshi biologik usulda kurashib, hosilni saqlab qolishda foydali biomahsulotlar dehqonlarga juda qo'l kelyapti.

Oddiy laborantlikdan olima rahbarlikka sharaflini bosib o'tgan Ziyodaxon bilan suhbatlashgan odam yarim olim bo'ladi, desak, ishonavering. Eng katta boyligi – javondagi kitoblari. Mutolaani kanda qilmaydi. Kitoblardan olgan taassurotlarini hamkasblari bilan o'rtoqlashadi. U o'zi yetishtirayotgan oltinko'z, trixogramma, brakon kabi foydali hasharotlar haqida soatlab so'zlaydi.

– Qishloq xo'jaligi ekinlarini zararkunanda va kasalliklardan himoya qilishda biologik usulning alohida o'rnini bor, – deydi Andijon viloyatining "Olima ayollar" uyushmasi raisi, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor Mahpuzaxon Yusupova. – Viloyatimizda biolaboratoriyalar soni ortib, ular fermer xo'jaliklarining paxta va g'alla maydonlariga biomahsulotlar yetkazib bermoqda. Z.Hasanova rahbarlik qilayotgan "Baliqchilik Ziyoda" xususiy biolaboratoriyasi bunda alohida o'rin tutadi. Oddiy qishloq ayoli sohani mukammal o'zlashtirib, biolaboratoriyada foydali hasharotlar ishlab chiqarib, tuman-da sifatli mahsulotlar yetishtirishda munosib hissa qo'shmoqda. Bolalari tug'ilgandan onasini yonida shiyponda katta bo'ldi. Hozir ular katta bo'lib, o'z yo'lini topgan. Ikki o'g'li onasiga izdosh bo'lib, universitetida qishloq xo'jaligi yo'nalishida tahsil oldi.

Dalaga biologik usulni qo'llash kimyoviy pestitsidlarga nisbatan ancha foydali va samarali. Ammo biomahsulot yetishtirishning ham o'ziga yarasha mashaqqatlari bor. Negaki, kunlar soviy boshlaganda tabiatdagi foydali hasharotlar kamayib ketadi. Ziyodaxon foydali hasharotlarni yig'ib, bahorgacha biolaboratoriyada saqlab keyin ko'paytiradi.

– Xonadagi harorat talab darajasida bo'lmasa biomahsulotlar sifatiga salbiy ta'sir qiladi, – deydi Z.Hasanova. – Masalan, oltinko'z yetishtirish xonasidagi harorat 22–25 gradusdan oshmasligi kerak. Agar issiq bo'lsa, "erkak" oltinko'z soni ortib, urug' ko'payishi kamayib qoladi. Tozalikka rioya etish, ozuqa zaxirasini yaratish ham alohida ahamiyatga ega. Biolaboratoriyamiz yetarli miqdorda arpa, shakar, merva (asalari uyasi), margarin bilan biomahsulotlarni parvarishlaydi.

Biolaboratoriyaga kirsangiz, qator etajerlar va uch litrli bankalarni ko'rasiz. Bu bankalarda zararkunandalarga qarshi kurash uchun oltinko'z, brakon va trixogramma ishlab chiqariladi.

Eng avvalo, dalada zararkunandalar hajmini bilish va ularga qarshi samarali usulda kurashish uchun daladagi ekin ildizi, egatlarni uvat qismiga feromon tutqich qo'yiladi. Paxtaning har ikki gektariga, bog'ning har ellik sotixiga bittadan qo'yilgan feromon tutqichga tushgan kapalak soniga qarab, hasharot ishlab chiqariladi. Misol



uchun, 1-2 dona kapalak uchun 1-2 gramm trixogramma, 500-1000 oltinko'z qo'yish kerak bo'ladi. Negaki, bitta kapalak uch mingtagacha tuxum qo'yadi. Shu bois feromon tutqichga tushgan kapalak soniga qarab, entomofaglar dalaga tarqatiladi.

Ko'p hosil olish uchun bahorda olmalar kurtak yozganda, ya'ni mart-aprel oyida dalaga feromon tutqich qo'yish kerak. Ana shunda hosildorlik oshadi. Har bir vazifa o'z vaqtida bajarilsa, odatdagidan 80-90 foiz ko'p hosil olish mumkin.

Z. Hasanovaning aytishicha, har yilning dekabr oyida yer egalari bilan tuzilgan shartnomaga ko'ra 3 ming gektar maydonga mahsulot yetkazib berilmoqda. Kelgusida esa mahsulot ishlab chiqarishni 5-6 barobar oshirish mo'ljallanmoqda. Bu esa yurtimizda ekologik jihatdan toza mahsulotlar yanada ko'payadi, degan so'zdir. Negaki, mazkur usul ekologik jihatdan mutlaqo bezarar bo'lsa, iqtisodiy jihatdan esa kamxarj.

Mulohaza yuritsak, dunyoda organik, ekologik toza mahsulotlarga talab o'smoqda. Organik so'zi "cheklangan" ma'nosini anglatib, qo'shimcha mineral o'g'itlarsiz, zaharli ximikatlarsiz va boshqa texnogen ta'sirlarsiz tabiiy toza xomashyolardan yetishtirilgan mahsulot.

Tadqiqotlarda aniqlanishicha, ekologik toza mahsulot iste'mol qilish inson sog'lig'iga zarar yetkazmasligi, odamlarning umrini uzayishi, aholi orasida kasalliklar tarqalish darajasi hamda bolalar o'limi kamayishi kabi ijobiy ko'rsatkichlarni oshiradi.

Biz yuqorida hikoya qilgan "Baliqchilik Ziyoda" xususiy biolaboratoriyasi boshlig'i Ziyodaxon Hasanova kabi jonkuyar insonlar mehnati organik mahsulotlar yaratish borasida yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlarda juda muhimdir.

BUXORO VILOYATI

TO‘TIGUL MAJIDOVA

SUVNI TEJASH VA TABIATGA MEHRNI GO‘DAKLARGA
SINGDIRISH ORZUSIDAGI BOG‘BON

*...Iqlim o‘zgarishi yildan-
yilga dolzarb bo‘lib borar
ekan, hosilni nobud
qilmaslik uchun imkoni
boricha ularni himoyalash
choralarini ko‘rish kerak*





“**Jannat mevasi**” deya ataluvchi anjir daraxtini hosildor qilib parvarishlash anchayin murakkab ish. Statistik ma’lumotlarga ko’ra, 2022 yilning iyun oyi boshidan sentyabr oyi oxiriga qadar O’zbekistondan 7,2 ming tonna va qiymati 1,9 million dollarlik sarxil anjir eksport qilingan. Albatta, buni tarixiy rekord desak arziydi. Negaki, anjir eksporti hajmi o’tgan besh yil davomida 7 barobar oshdi.

Ammo 2023 yilning qishida yuz bergan kutilmagan anomal sovuq ochiq maydonlardagi anor, anjir, tok va boshqa mevali daraxtlarni “urib” ketdi. Keyingi yillarda iliq kelayotgan ob-havoga ishongan ko’pgina dehqonlar iqlimdagi bunday o’zgarishni hisobini olmagan, tayyorgarlik ko’rmagan edi.

Hosilni saqlab qolganlar juda kamligi bois ayni vaqtda bozorda anjir juda tanqis meva bo’lib turibdi. Xo’sh, anor va anjir daraxti qayerlarda saqlab qolindi? Sovuqqa chidamsiz bu daraxtlarni har yili qishda qamish va tuproq bilan ko’mib, erta bahorda ochadigan hududlardagi dehqonlarga hosilni saqlab qoldi.

– Iqlim o’zgarishi yildan-yilga dolzarb bo’lib borar ekan, hosilni nobud qilmaslik uchun imkoni boricha ularni himoyalash choralarini ko’rish kerak, – deydi Buxoro viloyatining Romiton tumanidagi Qo’rg’on qishlog’ining Azizon mahallasida yashovchi To’tigul Majidova. – Misol uchun ota-bobolarimiz buning yo’lini bilgan. Innovator bo’lgan ular. Aytishadi-ku, yangilik unutilgan eskilik deb. Biz qilayotgan ishlar ham innovatsiyaning bir ko’rinishi. Ya’ni har yili bu daraxtlarni ko’mamiz. Anjir tuplari har doim bir tomonga qaratib qator bo’ylab egiladi va yerga yotqizib, tepasiga poxol yoki qamish yopiladi,





so'ngra yumshoq nam tuproq tortiladi. Tana va novdalarning haddan tashqari egib yubormaslik uchun anjir tupi ostiga tuproqdan "yostiqa" qilinadi. Bahorgi sovuqlar o'tgandan so'ng (o'rtacha aprelning dastlabki 5 kunligida) anjir tuplari ochiladi. Anjir tuplarining shikastlangan va kesilgan novdalari olib tashlanadi, tuplari ko'tarilib, ostiga tirgovuch qo'yiladi. Anjirning hosildorligi uni ochish muddatiga bog'liq. Agarda kech ochilsa, hosili kamayib ketadi.

O'zbekiston sharoitida anjir yiliga 2 marta hosil beradi. Birinchi hosili iyun-iyul oylarida pishadi va u "hoki hosil" deyiladi. Bu vaqtda umumiy hosilning 2 foizi pishadi. Avgust-sentyabr oylarida esa ikkinchi hosil, ya'ni 98 foizi pishadi.

Anjir hosili har 4-5 kunda bir marta teriladi. Hosilga kirgan bir tup anjirdan 40-45 kilogrammgacha meva olish mumkin. O'zbekistonning janubiy viloyatlarida anjir davomli o'sib, novdalarida paydo bo'lgan hosil deyarli to'liq pishib yetiladi, shimoliy viloyatlarida kuz erta boshlangani uchun hosil to'liq pishib yetilmaydi va ko'pincha sovuq urib ketadi.

– Azal-azaldan ota-bobolarimiz anjir va anor yetishtirish hadisini olishgan, – deya To'tigulning fikrini tasdiqlaydi "Azizon" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Sadridin Ismatov. – Och sariq yoki siyohrang tusli bu meva tarkibi foydali elementlarga boyligi bilan boshqa mevalardan ajralib turadi. Anjir insonga salomatlik, go'zallik va yosh-

lik bag'ishlaydi, deyishadi. Hozir ham ko'p sonli mahalladoshlarimiz xonadonida anjir va anor parvarishlanmoqda. Mahallamizning drayveri ham anjir va anorchilikka ixtisoslashtirilgan. Yozning dastlabki oyida anjir, kuzning oxirgi oylarida anor hosili yig'ib olinadi. Bog'dorchilik, anjir va anor yetishtirish bilan ko'proq qishlog'imiz ayollari shug'ullanadi. To'tigul ham bu borada o'ziga xos yutuqlarga erishmoqda.

O'zbekistonda har bir hududning o'ziga xos meva-chevasi bor. Misol uchun, Quva anori, To'raqo'rg'on gilosi, Xorazm qovunlari, Parkent uzumlari elaro mashhur. Anjiru, anorlar esa Qo'rg'on qishlog'ining o'ziga xos "tashrif qog'ozi" bo'lib xizmat qilmoqda.

Albatta, qishloqda yashash, serhosil bog'larni parvarishlash hazilakam ish emas. Erta tongdan to qosh qorayguncha mehnat qilib, anjiru anorni sarxil qilib yetishtirishga odatlangan odamlarni, ayniqsa, To'tigul Majidovaning fidoyiligini qancha maqtasa arziydi.

To'g'ri, avvallari bog' yumushlari turmush o'rtog'i zimmasida edi. To'tigul ro'zg'or ishlaridan ortmasdi. Farzandlar tarbiyasi, kir-chir chayish, ovqat pishirish, xullas hovlida ayolga ish doim topilardi. Kutilmaganda oila boshiga tashvish tushdi. Turmush o'rtog'i bevaqt vafot etdi. Bog' qarovsiz qoldi. To'tigul uchun bu qattiq zarba edi. Ko'pincha yolg'iz qolar, hayot tashvishlari haqida so'z ochmoqchi bo'lgan yaqinlarini eshitishni istamasdi. Vaqt go'yoki to'xtab qolgandek, soat millari yurmayotgandek edi. Ammo har doimgidek, kun tunga, tun kunga o'z o'rnini bo'shatib berayotgani unga sezilmasdi. U bir nuqtaga tikilib o'tirganda, yolg'izgina qizining "Onajon, uyg'oning, otam ekan daraxtlar suvsiz, mehsiz qiynalyapti. Ularni parvarish qilaylik. Osmondan otam qarab turibdi, uyg'oning, uyg'ona qoling" degan so'zlari uni uyqusini seskantirib yubordi. Go'yo uyqudan uyg'ongandek, o'zini tetik sezdi. Unga eng ta'sir qilgani "otam ekan daraxtlar suvsiz, mehsiz qiynalyapti" degan so'z edi.

– Barglari sarg'ayib, najot kutib turgan anjiru anorlarni achchiq-achchiq ko'zyoshlarim bilan sug'organdek edim, nazarimda, – deydi T. Majidova. – O'zimni tutib olishimda, hayotning go'zal ekanligini his qilishimda anjiru anorlar menga madad bo'ldi. Turmush o'rtog'imning nafasi, qadami, qo'li tekkan ko'chatlar bilan dardlashdim. Boshimdan o'tgani uchun anglaganim shu bo'ldiki, yolg'iz qolishning yuki og'ir bo'larkan. O'z vaqtida ko'z yoshlarimga guvoh bo'lgan, darldarimni tinglagan mana shu bog'im men uchun juda qadrli. Vaqtimni bog'da, ko'chatlar orasida o'tkazaman.

Yilning to'rt faslida ham bog' oralab yuruvchi To'tigul Majidova erta bahorda daraxtlarga shakl berish, yozda mazasi tilni yoradigan mevalar yig'ish bilan shug'ullanadi. Bu yilgi hosil yaxshi daromad keltirdi.

– Aslida bog'dorchilikni onamdan, qaynonamdan o'rganganman, – deydi T. Majidova. – Yoshligimda o'rganganimni foydasini ko'ryapman. Bog' oralab yuraverganingizdan keyin daraxtlarning "professori" bo'lib ketar ekansiz. Ishimizning o'zi fan, tex-



nologiya bilan bog'liq, desam ishonaverim. Mana masalan, yaxshi serhosil meva olish uchun daraxt novdalarni o'z vaqtida va to'g'ri yagana qilamiz. Qalin navdali shoxlar olib qolinadi. Mevasi ko'p bo'lsa-da, mo'rtroq novdalardan voz kechamiz. Bog'imizda 50 tup anjir o'syapti. Ularni har 7 yilda yangilaymiz. Mavsumda 50 tup anjir daraxtini har biridan 40 kilogrammgacha hosil olamiz. Har kilogrammini 5-10 ming atrofida sot-yapmiz. Daromadimiz ham shunga yarasha. Ko'ryapsizmi, buni men oliygohda o'rgan-ganim yo'q, onajonim va qaynonamning "instituti"da ko'rib, his etib amaliyotga joriy qilganman.

Oilaning daromadi faqatgina anjirdan emas. 50 sotix maydonda anorzor bor. Anjir hosili yig'ilgach navbat anorlarga keladi. Uning ham o'ziga xos tashvishlari bor. Sovuqdan asrash uchun anor ko'chatlari anjir kabi tuproqqa ko'milsa, mevasini is-siqdan asrash uchun atrofi qog'oz bilan o'rab qo'yiladi. Buxoroning qishi quruq izg'irinli, yozi garmsemi, quruq issiqligini hisobga olsak, har tup anordan 35-40 kilogramm hosil olish oson emas. Agar barcha agrotexnika qoidalar o'z vaqtida, bosqichma-bosqich bajarilmasa hosilning cho'g'i kam bo'ladi. Xususan, har 2-3 yilda daraxtlar tagiga o'rtacha 50-60 kg. chirigan go'ng solish hosildorlikni oshishiga ijobiy ta'sir etadi.

Meva hosili bir yil unday, bir yil bunday, deb bejiz aytilmagan. To'tigul anjirlari yaxshigina hosil berdi. Anor shoxlari ham serhosilligi tufayli egilib turibdi. Bu yil ko'pgina hududlarda anjir va anorni sovuq o'rgani hisobiga bozorda ular tanqis mevaga aylandi.

To'tigul anor mevalarini bahorgacha hattoki may oylarigacha asrash sirlarini biladi. Misol uchun, anorni qipiq bilan qadoqlash mahalliy usullardan biri bo'lib, urin-magan va saralangan anorlar yashiklarga taxlanadi. Har bir qatordan keyin qipiq to'kiladi. Yashikni ichki tarafidan qog'oz qo'yilib, chetlari yopiladi va usti berkitiladi. Shunda chirisa ham bir-biriga o'tmaydi.

GohidasuvtanqisligisabablitoraqadaquribqolganekinlargaqarabTo'tigulning yuragi og'riydi. Har tomchi suvni asrab ishlatishga harakat qiladi. Kamiga chuchuk suv yetishmovchiligi muammosi O'zbekiston, xususan Buxoroga ham begoni emas. Kelgusida tashkil etilishi rejalashtirilayotgan bolalar bog'chasining kunlik dasturlarida bu mavzuda har kuni turli mashg'ulotlar o'tkazishni niyat qilmoqda.

Darhaqiqat, quyoshni uyg'otib, uni yotog'iga kuzatib qo'yadigan qishloq odamlari mehnatkashligi, sodda va beg'uborligi bilan doimo e'tirofimizga sazovor bo'lgan. Fidoyi sohibkor, o'z ishining "professori" To'tigul Majidova bilan xayrlashib, poytaxt tomon yo'l olarkanman, avtomobilimiz radiosidan "Bir kelib keting qishlog'imizga..." nomli qo'shiq yangradi. Go'yo bu qo'shiq bugun uchrashganimiz mohir sohibkorlar tilidan aytilayotgandek edi.

Dilga yaqin taronani berilib tinglarkanman, qalbimni olisda qolib ketgan beg'ubor bolalik xotiralari, so'lim va go'zal ona qishloq sog'inchi chulg'ab oldi. Taro-vatli bog'lar jamoli, ketmoniga suyanib, daromadini chama chut qilayotgan samimiy va oddiy qishloq odamlarining yorqin qiyofasi ko'z o'ngimda yana bir bor gavda-landi. Zotan, hayot shunday beg'ubor qalbli odamlar borligi uchun ham go'zal.

JIZZAX VILOYATI

ZARIFA ABDUG'ANIYEVA

POLIZ EKINLARI ETISHTIRISH UCHUN DASHTGA
ELEKTR VA SUV KELTIRDI





Forish tumani Jizzax viloyatining eng chekka hududi bo'lib, bu yerlarda chorvachilik sohasida katta yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Dehqonchilik ham yil sayin taraqqiy etib, qiru adirlar o'zlashtirilib, moddiy ne'matlar yaratayotgan tadbirkorlar safi tobora kengaymoqda. Zarifa ana shunday serharakat, g'ayratli tadbirkorlardan biri bo'lib, bugungi kunda uning nomi tobora elaro mashhur bo'lib boryapti.

– Yurtning obodligini bilmoqchi bo'lsang, bozoriga bor, deb bejiz aytilmagan, – deydi Forish tumanidagi “Yuksak qoyalar” xususiy korxonasi rahbari Zarifa Abdug'aniyeva. – Bugun bozorlarimizga borsangiz, rastalarni bezab turgan meva–chevayu poliz mahsulotlarini ko'rib, ko'zingiz quvnaydi. Ayniqsa, tilimi tilni yoradigan shirin–shakar qovuni tarvuzlarga ta'rif yo'q. Ana shu hidi dimoqni yoradigan yoz ne'matlari bilan bozorlarni fayzli qilishda bizning ham kamtarona hissamiz bor. Azaldan ota–bobolarimiz qovun va tarvuzning mashhur navlarini yetishtirgan. Paxta yakkahokimligi davrida bunga e'tibor susaydi. Bir qator navlar yo'qolib ketdi. Allohga shukr, bugungi kunda oziq–ovqat zaxirasini yaratishdek muhim masalaga e'tibor kuchaydi. Biz ana shu sa'y–harakatlarda faol ishtirok etyapmiz.

2017–yilning bahorida tinib–tinchimas ayol Zarifa Abdug'aniyeva tomonidan tashkil qilingan “Yuksak qoyalar” xususiy korxonasi rivojlanish pillapoyalaridan muvaffaqiyatli ko'tarilib, bugungi kunda 400 gektar yer maydoniga ega bo'ldi. Zarifaning ayol boshi bilan qiru adirlarda yastanib yotgan bunday keng yerda faoliyat yuritishining o'zi bir jasorat. Qolaversa, kengliklarda mehnat qilishning o'ziga xos qiyinchiliklari bor va uni yengib o'tish uchun kuchli iroda va sabr–bardosh kerak.

Binobarin, Zarifa qiyinchiliklardan cho'chimadi. Bundan olti yil avval hech kimning xayoliga kelmagan ishga, bugungi davrning tili bilan aytganda ajoyib “loyiha”ga qo'l urdi. Tashlandiq va suvsiz adirlikdan iborat 5 gektar yerda loviya, mosh, no'xat kabi dukkakli ekinlar ekib, dehqonchilikni boshladi. Hozir bu yerlarni ko'rsangiz, ko'zingiz quvnaydi Atrofi toshloq, qir–adirliklar o'rtasida yashnab turgan dalani ko'rib, hayratlanishingiz tabiiy. Chunki bu mo'jizasining o'zi. Uni har bir ayol o'z qo'llari bilan yaratgan.



Aslida u maktabni bitirgach, kollejdagi buxgalteriya yo'nalishida tahsil olgandi. Orzusi kuchli iqtisodchi bo'lib, yurt istiqboliga hissa qo'shishdan iborat edi. Bu borada taqdir unga boshqa yo'lni ko'rsatdi. Turmushga chiqdi, keyin birin-ketin farzandlar dunyoga keldi. Shu tariqa bir necha yil tumandagi bandlikka ko'maklashish markazida ishlab yurdi.

Baribir yuragida ishtiyoq mavjurgan kishi tinch tura olmas ekan. Nimadir yaratish, kashf etish uni mehnat quchog'iga chorlar ekan. Zarifada ham shunday bo'ldi. Farzandlarni sog'lom va zukko qilib tarbiyalash uchun oilaning moddiy ta'minotini yaxshilash kerak. Bunda u qo'lini qovushtirib o'tirsa yarashmaydi. Uning ustiga Zarifada tadbirkorlikka ishtiyoq kuchli. Shu bois u turmush o'rtog'i bilan maslahatlashib, dehqonchilik bilan shug'ullanishga ahd qildi. Hokimiyatga borib fermer bo'lish istagini bildirganida, ular "ayol boshingiz bilan eplay olarmikansiz" deb ikkilanishdi. Zarifa esa o'zidagi qat'iyat va shijoatni yashirib o'tirmadi. "Ishonchni oqlayman" dedi.

– Dastlabki yili 5 gektarda yerda lavlagi, no'xat, pomidor parvarishlab, yaxshigina daromad oldik, – deydi Zarifa Abdug'aniyeva quvonchini yashira olmay. – Uchinchi yili ekin ekadigan yerimiz tor kelib qoldi. Biz yana 135 gektar yer oldik. Uning 70 gektarini sug'orish uchun artezian quduq qazib, motorli nasoslar yordamida suv keltirdik. Transformator o'rnatdik. Dalaga suv chiqarish uskunalari ishlashi uchun bizga elektr toki kerak edi-da. Ekin maydonimizga yaqinroqda joylashgan Uchquvvat ruda konidan elektr liniyasi tortib kelishni ham uddaladik.

Asosan, pomidor, lavlagi, qovun-tarvuz parvarishlab, yaxshigina daromad olayotgan bo'lsak, dala chetlarini ham quruq qo'ymadik. Dukkakli ekinlar ekdik. Bu ham ro'zg'orning bir chetini ko'tarib turdi.

Nima desangiz deng, ammo dehqonchilik oson yumush emas. Ba'zi kishilar "urug'ni sepib qo'ysang, hosilni yig'ishtirib olaverasan" deb kalta o'ylashadi. Buni uning ichida yurganlar yaxshi bilishadi. Eng avvalo, yer urug'ni qabul qiladimi, u shu yerda barg yozadimi, buning ilmiy yechimini topish kerak. Qolaversa, yil yilga o'xshamaydi. Hosil taqdirini iqlimdagi ob-havo o'zgarishlari hal qilsa, ko'riladigan foyda-ziyonni bozor belgilaydi.

Misol uchun, o'tgan yili shu vaqtlarda pomidorning kilosi 6,5 ming so'mdan sotilgan. Bu yil dalani boshidan ulgurji narxda 800 so'mdan pullandi. E'tibor bering, Samarqanddagi tomat zavodi 14 tonna pomidorni 11 million so'mga olgani xarajati ni qoplaydi deysizmi? Ana shunday narx "o'ynab" turadi. Bir yil daromad kam bo'lsa, kelasi yili cho'ntak pulga to'ladi. Shuning uchun "bor-ey" deb bu kasbni tashlab yuboradiganlar qattiq adashadi. Zarifa esa dehqonchilikni miridan-sirigacha biladi. Boshlagan ishining istiqboliga ishonadi. Ana shu ishonch uni yuksak marralar sari chorlaydi.

E'tibor bering, mahalladagi 15 nafar xotin-qiz bandligi shu xo'jalikda ta'minlangan. Aslida bu jasorat. Davlatimiz rahbari ikkita ish o'rni yaratgan tadbirkorni



boshimga ko'taraman deganini bir eslang. Axir bu yerda 15 oilaning tirikchiligi o'tyapti. Qolaversa, ko'chatni va dalaga suv keltirguncha sarflangan elektr narxini hisoblab ko'ring hamda xulosa chiqaring. O'zi fermerga u qadar ham ko'p foyda qolayotgani yo'q. Bu yil pomidordan 80 tonna atrofida hosil olingani hisobiga xarajatlar qoplan-yapti, xolos.

Qizig'i, o'tgan yili qovun-tarvuz arzimagan pul bo'lgan edi. Bu yil esa aksincha... Fermer pomidordan daromad kam bo'lishini bilib, qovun-tarvuzga ko'z tikmoqda. O'tgan yili qovunlar qo'shni davlatlarga eksport qilingan, bu yil ham mo'ljal bor.

– Bu yilgi ekinlar uchun 350 million so'm tikkan edik, shuning 150 million so'mi qaytdi, – deydi fermer. – Hozircha dalarimizda kechpishar poliz ekinlaridan tashqari loviya, kungaboqar va kunjut bor. Agar ekin mavsumida ob-havo yaxshi bo'lib, davosi yo'q kasalliklar xuruj qilmasa, zo'r hosil yetishtirib, bitta avtomobil minsak bo'ladi. Lekin bu dunyoda hamma narsa tarozi pallasiga qo'yiladi. Chama-cho't siz istaganingizdek bo'lmasligi mumkin. Lekin men bundan xafa bo'lmayman. Innovatsiyalar qilishga, yangiliklar yaratishga intilaman. Dala ilmini qancha yaxshi bilsangiz, daromadingiz shuncha ko'p bo'ladi.

Qovun-tarvuz mavsum boshida chiqsa dona emas, kilogramm shaklida sotiladi va kilogrammi 8-10 ming so'm atrofida bo'ladi. Bitta qovun kamida 8 kilogramm chiqadi. Asosiy foyda shu vaqtda olinadi. Bozorda mahsulot ko'paygandan keyin narxlar pastlab, bemalolchilik bo'lib qoladi. Keyinchalik poliz ekinlari donabay sotiladi. Bittasi 10 ming so'm bo'lsa, mingtasini, o'n mingtasini hisoblayvering...

Bir dona qovun 10 ming so'm sotilganda ham uning o'ziga xos xarajatlari bor. Urug', o'g'it xarid qilish, texnikalar va ishchilarning xarajati, kamiga suv chiqarishga

sarflanadigan elektr to'lovlari. Adirliklarda havo shu qadar qizib ketadi-ki, ekinlar qurib qolmasligi uchun dalaga tinimsiz suv haydab turish kerak bo'ladi. Buning uchun esa suv nasosni tinimsiz ishlatish kerak bo'ladi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, bu yilgi suv xarajatlari 80 million so'mni tashkil etmoqda. Shunday vaqtlarda dalasi oqar suv yonida, sug'orish uchun sarf-xarajat qilmaydigan fermerlarga Zarifaning havasi keladi.

– Ekin-tekin rivoji suv bilan, – deydi Zarifa. – Misol uchun, ikki gektarda loviya ekdik, qaysi yili suv yaxshi yetkazilishi evaziga 2 gektardan ikki tonna atrofida yirik-yirik hosil oldik. Keyingi yili suvdan tejaganimiz evaziga har gektardan 800 kilogramm hosil chiqdi. Loviyalar ham kichik-kichik bo'ldi. Uzoq muddat saqlasa bo'ladigan hamda eksportbop qizil fasol yetishtirmoqchi bo'ldim. Lekin u bizning iqlimimizga to'g'ri kelmadi. Negaki, fasol ekiladigan maydonlar, albatta, unumdor bo'lishi shart bo'lib, sho'rlangan, oriq, kislotali, yengil qumoq tuproqlarda hosil bermas ekan.

Adirlikda urug' ekib, hosil olish oson emas. Bu yerlarda kuzgi g'alla yoki boshqa ekinlar yetishtirish imkonsiz. Iqlim sababli qishloq xo'jaligi ekinlarini ekib, o'stirib, hosilini yig'ib olish uchun 4-5 oy muddat bor xolos. Shu vaqt oralig'idan unumli foydalanish kerak. Oxirgi hosil uzog'i bilan oktyabrning o'rtasida yig'ib olinadi.

Yer boniteti pastligi sababli har ikki yilda yerga dam berib, yangi ekin maydoni ochish kerak bo'ladi. Shu sababli 400 gektarning hammasida dehqonchilik qilishga fermerning qurbi yetmaydi. Navbat bilan dam berib, ekin ekiladi. Bir yil ekilgan yerlar, keyingi yilda dam oladi.

Pomidor va qovun yetishtirishning o'ziga xos nozik jihatlari bor. Agar bitta pomidorga qurt tushsa yoki kasallansa eplab bo'lmay qoladi. Negaki, jarayon tez kechadi. Pomidorga kasallik kelgani bargidan bilinadi. Bitta bargda o'zgarish sezilsa, darrov laboratoriyaga olib borilib, kasallikni nomi aniqlanadi. Natija chiqishi bilan belgilangan kurash chorolari ko'riladi. Aks holda bir kun ham ko'p narsani hal qiladi. Bu holat Jizzax viloyati adirliklarida yanada qiyinroq kechadi. Zarifa ham ozgina e'tiborsizligi sabab pomidor ekan dastlabki ikki yilda hosilga tushgan qurt sababli bozorga kam mahsulot chiqardi.

Har bir insonni yo'qotishlar charxlaydi. Hozir ishlarini yo'lga qo'yib oldi. Endi u sabablar va oqibatlar bilan kurasha oladi. Ozgina turtki bo'lsa, odamga dalda bo'ladi.

– Zarifa ekin yetishtirish bilan shug'ullanishni taklif qilgan vaqtlarda tadbirkorligim boreydi, – deydi Shohruh Jumanov.

– Avvaliga adirlikdagi unumsiz yerlarda dehqonchilik qilib, daromad



olishiga ko'zim yetmadi. Biroq ayolim qat'iyati va mehnatsevarligi sabab, bu ishni boshladi va yer maydoni oz bo'lgan uchun ikki yil o'zi epladi.

Keyin yer maydoni kengaydi, qarasam, xo'jalikni yuritishga qiyinalayapti. Pandemiya davrida bozorlar yopilib qolgani hisobiga mahsulotlarni sotish va bozorlarga yetkazib berish qiyin bo'lib qoldi. Sal oldinroq bankdan 350 million so'm imtiyozli kredit olgandi, pandemiya kimni xayoliga kelibdi deysiz. Yo'llar yopiq, o'shanda mahsulotni sotolmayapmiz. Bu yoqda kreditni to'lash kerak. Qiynalsa ham qo'l siltab ketmayotganini ko'rib, tadbirkorlik faoliyatimni to'xtatib, dala ishlarida unga ko'makka shoshildim.

Yosh bo'lishiga qaramay ham oilasiga, ham jamiyatga foyda keltirayotgan Zarifaxon kelgusida qoramol parvarishlashni niyat qilgan. Shu maqsadda kuni kecha 5 gektarda ferma qurishni boshlab, poydevor tayyorlab qo'yildi. Tinib-tinchimas fermer ayol parrandachilik, xususan, tovuqchilikni ham rivojlantirish niyatida.

– Yerimiz katta, uning hammasida dehqonchilik qilishning imkoni yo'q, – deydi Zarifa. – Lekin iqlim-sharoitimiz chorvachilikni rivojlantirish va unga ozuqa yetishtirishga qulay. Hatto, ekinlar orasida yig'ilgan yem-xashak ham anchagina bo'ladi. Organik mahsulotlar yetishtirish uchun yerlarning mahalliy o'g'it bilan ishlov berish talab etilishini hisobga olsak, biz ancha samaradorlikka erishamiz. Negaki, chorva ko'paysa, mahalliy o'g'it o'zimizdan chiqadi va mineral o'g'itlar uchun sarflanadigan mablag'imiz yonimizga qoladi. Yerning hosildorligi oshishi hisobiga organik dehqonchilikdan mo' hosil olib, eksportga chiqarsak, daromad ham shunga yarasha barakali bo'ladi.

Har bir qadamini hisob-kitob qilayotgan Zarifaxon hozirgi kunda sinov tariqasida xonadoniga quyosh panellari o'rnatdi. Agar samarasi yaxshi bo'lsa, kelgusida dalalarida sug'orish tizimini mukammal joriy etishda muqobil energiyadan foydalanishni niyat qilgan.

“Yuksak qoyalar” yildan-yilga, kundan-kunga ko'kka bo'y o'zmoqda. Zarifa Abdug'aniyevaning tavakkalchilik bilan boshlagan ishi bozorlarimizda mo'l-ko'lchilikni ta'minladi, o'ziga ham yaxshi daromad olib keldi. Bu juda quvonchli. Ammo eng quvonchlisi bu emas. Uning elda “o'zimizning tadbirkor qizimiz” deb e'zoz topishi, keksalar duoga qo'l ochib, “Zarifa qizimizning omadini bersin” deyishi chinakam baxt. Chunki el duosini olish fidoyi va jonkuyar tadbirkorga nasib etadi. Axir xalqimiz “duo bilan el ko'karar, yomg'ir bilan yer ko'karar” deb bejiz aytmagan.

– Kelgusida bu yerda nevara-chevaralarim mehnat qiladi, – deydi u bepoyon kengliklarga ishora qilib.

Demak, Zarifaning rejaları salmoqli, niyatlar katta. Bu niyatlar Yangi O'zbekistonni barpo qilish yo'lida tashlanayotgan qadamlarimizga kuch-quvvat berishiga shak-shubha yo'q.

QASHQADARYO VILOYATI

NODIRA BERDIYEVA

ORZULARING YO'LDOSHING BO'LSIN, NODIRA!

*...Men anglagan
haqiqat shuki, yerga o'z
farzandingiz kabi mehr
bering.*





Qashqadaryo viloyatining Muborak tumanidagi “Husainov Normurod” fermer xo‘jaligi rahbari Nodira Berdiyevaning bosib o‘tgan umr yo‘li bilan tanishib, gohida taqdir izmi insonni o‘zi kutmagan manzillarga eltishiga yana bir bor ishonch hosil qildik. Ammo o‘sha borar manzilning saodatli va go‘zal bo‘lishi, baribir, mehnatsevarlik, tadbirkorlik, insonparvarlik kabi fazilatlar bilan chambarchas bog‘liq ekan.

Ezgu his-tuyg‘ular va yaxshi fazilatlar egasi doimo kamol topadi. El uning hurmatini joyiga qo‘yadi. Eng muhimi ishonadi, o‘rni kelganda suyana-di ham. Elga qilingan yaxshilik esa ming karra bo‘lib qaytadi. Inson o‘zi aslida shuning uchun dunyoga kelmaydimi? Agar elga nafing beshak erur, bilki bu naf o‘zingga ko‘prak erur, degan so‘zlarni Navoiy hazratlari bejiz tilga olmag-an.

Bu voqea 2014–yilda yuz berdi. Ayni g‘alla ekish mavsumi edi. Fermer xo‘jaligining rahbari to‘satdan vafot etdi. Na turmush qurib ketgan qizlar, na poytaxtda yashayotgan yagona o‘g‘il yurak yutib, “otamning ishini mana men davom ettiraman” deb chiqmadi. Ya‘ni dala yumushlarini bajarishga botina olishmadi. Albatta, ularni ham ayblab bo‘lmaydi. Har kimning o‘zi tanlagan kasbi bor.



Ana shunda mazkur fermer xo'jaligida-gi hisob-kitob ishlarini bajarib kelgan, yer bilan ishlash tartib-tamoyillarini bir qadar o'rgangan Nodira xo'jalikni boshqarishni o'z zimmasiga oldi.

U shu qadar shijoat bilan ishga kirishdi-ki, 98 gektar yerga g'allani, bor-yo'g'i, 10 kunda ekib tugatdi.

– Bolaligim, yoshligim shaharda o'tgan, – deydi Nodira. – O'zingiz bilasiz, shaharliklar chang-to'zonsiz sharoitda yashaydi. Har kuni ko'chalarga suv sepiladi. Shuning uchun ozoda yurishadi. Fermerlikni zimmamga ol-gach birdaniga qishloq sharoitida yashash, dalada, chang-to'zonda butunlay qolib ketishga qaror qilish oson bo'lmadi.

Mayli, uni ham qo'ya turaylik, har qanday ishni olg'a yurgizish uchun zarur bo'ladigan sarmoya mablag'-chi? Taqib yurgan tillolarimni fermer xo'jaligidagi tex-nikalarni sozlatish uchun sotib, misqollab yiqqan oylik maoshimni yer maydoniga ekin ekish uchun sarflagan vaqtlarim bo'ldi. Qum barxanlari, garmsel ishlashimizga xala-qit qilsa-da, xo'jaligimizdagi 53 nafar ishchi xodim bilan birga, bamaslahat, barcha qiyinchilikni yengib o'tyapmiz. Eng muhimi, omadimiz bor ekan, bugungi kunga kelib, olayotgan daromadimiz tashvishlarimizni "yuvib" ketdi.

Nodiraning so'zlariga shuni qo'shimcha qilish mumkinki, bir vaqtlar paxta yetishtirish uchun dalada ko'p mehnat qilsa-da, tuzuk daromad ololmagan fermer bugungi narx-navolardan har qalay xursand. Bir necha yillar oralig'ida kilosi 2 ming so'mdan sotilgan paxtaning bahosi hozirgi paytda 10 ming so'mga yetdi.

Nodira Berdiyeva nafaqat Qashqadaryo viloyati, balki mamlakatimizdagi faol ayollardan, peshqadam fermerlardan biriga aylanishida, eng avvalo, ota nasihatiga quloq tutgani katta rol o'ynadi, deb hisoblaydi.

– Otamning nasihatlariga kirib, aslo kam bo'lmadim, – deydi u. – O'zim tanlagan kasbda hurmat topish uchun faqat tinimsiz mehnat qildim, ishlaganda ham halol ishladim. Men anglagan haqiqat shuki, yerga o'z farzandingiz kabi mehr bering. Ana shundagina ko'zlangan hosilni olasiz. To'g'risi, ko'p pul topishga intilmayman, top-gan pulimni yon-atrofimdagi insonlarga sarflayman. Xo'jalikda oddiy ishchidan tort-ib, rahbar bo'lib o'zimgacha halollikni, yer bilan tillashish, dillashishni asosiy shior qilib olganmiz. Dangasalikni, boqimandalikni aslo xushlamayman. Zero, daromad va yuk-sak natijaga zahmatli va sharafli mehnat tufayli erishiladi.

Nodira farzandlarini ham bolalikdan mehnatga o'rgatmoqda. To'g'risi, imkoni-yat bo'lishi bilan dalaga keladigan bolalari shiyponda ulg'aydi, desak, sira mubolag'a emas. Ikkinchi farzandi Munisa ayni bahorda dunyoga kelgan. Dalada ish qizg'in, be-chorchi odamni topib bo'lmaydi.





Nodiraning aytishicha, katta qizi dunyoga kelganda markazda – ko'p qavatli, hamma sharoitlari mavjud uyda yashagan. Biroq bolasi tez-tez shamollab, ko'p kasal bo'lgan ekan. Keyingi ikki farzandi bolalikdan qishni sovug'ida, yozning issig'ida – dalada – onasiga ergashib katta bo'lgan bo'lsa-da, jismonan sog'lom ulg'aydi. Bu balki dalaning toza havosidan nafas olib, tabiiy quyoshdan nur olib, sut-qatiq ichib o'sganidan bo'lsa kerak. Biror marta bolalari kasal bo'lib, shifokor izlashga to'g'ri kelgani yo'q.

Ota uyida yashagan paytida 7 nafar farzandning to'rtinchisi bo'lgan Nodira yoshligidan, yaxshi ma'noda, haqini ajratib olardi. Har bir qilgan ishi yoki mehnati uchun ota-onasidan rag'bat so'rardi. Berilgan pulga ehtiyojlari uchun kerak bo'ladigan kitob, daftar, qalam kabi o'quv qurollarini xarid qilardi.

Katta opasi Nasiba hunarmandchilik bilan shug'ullanardi. Unga zardo'zlikda yordam qilib, bahonada o'zi ham hunar o'rganib olgan ekan. Aslida ana shu harakatlari Nodirada tadbirkorlikning boshlanishi bo'lgan, desak, to'g'riroq bo'lardi.

Qashqadaryoning Muborak tumanida ko'p qavatli uylar ham talaygina. Shi-joatli va g'ayratli ayol fermerlikdan tashqari, tadbirkorlik bilan ham shug'ullanadi. U tashkil etgan xususiy korxonada tumandagi maishiy chiqindilarni yig'ib, atrof-muhitning tozaligiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Aholi yashash mavzolari, mahallalar, ko'chalar, maydonlar, ochiq suv havzalarining sohillari, ko'priklar, yer osti o'tish yo'llari, yo'lklar, bog'lar, xiyobonlar, maydonlar hamda bo'sh turgan yer maydonlarini chiqindilardan tozalashda ham bosh-qosh bo'lmoqda.

Nodira Berdiyeva tomonidan 2020-yilda asos solingan "CHIMYON-EXPRESS" mas'uliyati cheklangan jamiyatida 50 ga yaqin ish o'rinlari yaratilgan. Aholi bilan tuzilgan shartnoma asosida o'nlab mashinalarda chiqindilar olib ketiladi. Kuzda esa xodimlar ariqlardan, asfalt va maysazorlardan to'kilgan barglarni yig'ib oladi.

Nodiraning aytishicha, barglar kompost chuquriga olib kelinadi. Maishiy chiqindilar qisman barglardan ajratiladi, ular chuqurlarga tashlanadi va yer qatlami bilan o'raladi. Chuqur o'rni tuproq bilan to'ldiriladi. Bir yil o'tgach massa tayyor biogumusga aylanadi.

Hosildorlikni oshirish uchun xizmat qiladigan biogumus fermerning dala-lari, ayniqsa, yangi nihollar qadalgan bog'ning unumdorligini oshirishda juda muhim ahamiyatga ega.

Sifatli va ekologik toza mevalar yetishtirishni mo'ljallayotgan oqila ayol biogumusning foydasini juda yaxshi biladi. Bir hisobdan garmseldan aziyat chekayotan yer-dagi ekinlar va tuproqning o'zi uchun ham bu malham bo'lishi hech gap emas.

Organik, qurilish, tibbiyot chiqindilarini yig'ish, saralash, qayta ishlash va utili-zatsiya qilishning xavfsiz tizimini yaratish maqsadida chiqindilarni saralash texnologi-yasini xarid qilish borasida xitoylik ishbilarmonlar bilan muzokaralar olib borilmoqda.



Albatta, barglarga mahalliy o'g'it ham qo'shilsa, yerga haqiqiy malham tayyorlanadi. Hisob-kitoblardan keyin Nodiraxon chorvachilik sohasini rivojlantirishga ham kirishdi. 300 gektarning dalasining bir chetiga qurilayotgan zamonaviy molxonada erta-indin bitish arafasida turibdi.

Mazkur molxonada boqish uchun 50 bosh zotdor qoramollar keltirishmoqchi. Muborak tumanining lalmi yerlariga suv chiqarib, chorva uchun ozuqa yetishtirish loyihasi ishga tushirilmoqda. Bu, bir jihatdan, atrof-muhitni va ekologiyani yaxshilash uchun yangi qadam bo'ladi. Aslida atrof-muhitni, yashillik olamini asrash borasidagi bu ishlar Nodiraning yagona loyihasi emas. U dala atrofidagi jo'yaklar va ariqlarga mevali daraxt ko'chatlari ekishni yoqtiradi. Har yili kam-kam ekilgan nihollarning umumiy soni hozirgi kunda 10 ming tup bo'ldi.

Shu o'rinda savol tug'iladi: Nodiraxon nega avvalroq, ya'ni o'tib ketgan 10 yilda biogumus yetishtirmadi, tomchilatib sug'orish texnologiyasidan foydalanmadi, bog' yaratmadi? Shuncha yillik mehnati, g'ayrati, chopish-intilishlari paxta va g'alla-ga qaratilganmidi?

Mazkur savollarga ham javob bor. Javob shuki, umrida dalada ketmon chopib ko'rmagan qizning birdan dehqonchilikni bo'yniga olib, katta-katta loyihalarni tezda bajarib tashlab, mo'may foydada sakrab chiqib olishi qiyin edi-da. Negaki, har bir ekinning o'ziga xos agrotexnikasi, bajarish muddatlari bor. Dehqoncha aytganda, har ishning o'z vaqti-soati bor.

Nodira u vaqtlarda tavakkalchilikka asoslangan dala ishlarida hosil bilan bog'liq fors-majorlar uni kutayotganidan bexabar edi. Negaki, faoliyatining dastlabki yillarida bir necha yil ketma-ket paxta va g'alla rejalari bajarilmay qoldi. Reja bajarilmadimi, xo'jalik zararga kirdi degani. Foyda ko'rmagandan keyin o'z-o'zidan boshqa orzu-havaslariga o'rin ham qolmas ekan-da.

Nodira Berdiyeva suhbatimiz yakunida yana bir xayrli rejasi bilan o'rtoqlashdi. Fermer yangi tashkil etilgan tokzorlarida tomchilatib sug'orish tizimini o'rnatish harakatida.

Nima ham derdik, mehnatda katta zafar quchgan, o'nlab odamlarni ish bilan ta'minlagan, bunyodkorliklardan tolmanan dovruqli fermer ayolga qaysi ishga qo'l urmasin faqat omadlar yor bo'lsin, qadamingizdan gullar unsin, deymiz.

Ishonamizki, bu shijoatli ayol, bir kun kelib hamma orzu-niyatlariga yetadi. Bunga bizning ishonchimiz komil.

Orzularing yo'ldoshing bo'lsin, Nodira!

QASHQADARYO VILOYATI

DILAFRO‘Z JO‘RAYEVA

AYOL QAT‘IYATLI VA SHIJOATLI BO‘LSA

*...Yoshlik – beg‘ubor
fasl. Eslaganingda o‘sha
kunlarga qaytging keladi.*





Suv oqib turibdi-ku, beminnat ne'mat bo'lsa, buncha taqchilliq haqida ko'p gapirasizlar, deya o'ylash xato, deydi Qashqadaryoda viloyatning Kasbi tumanidagi "Ko'larik sari yo'l" f/x raisi Dilafro'z JO'RAYEVA:

Yoshlik – beg'ubor fasl. Eslaganingda o'sha kunlarga qaytging keladi.

Lekin buning sira ham iloji yo'q. Bilsangiz umr oqar daryo. Shov etib oqib ketar ekan. Ammo shirin xotiralar xayolda bo'lsa-da, sizni yoshlikning betakror onlariga oshno etadi. Shunisiga ham shukr deyman. Aytmoqchi, yoshligimda juda shaddot qiz edim. Mehnatdan qochmasdim. Bepoyon dalalar, bahavo kengliklar jonu dilim edi. Buni qarangki, vaqti kelib, shu dalalar men uchun qadrdon go'shaga aylanib qolishini tasavvur qila olmaganman. Ammo bugun dalalarsiz bir kun ham yashay olmayman. Chunki baxtimni shu qadrdon kengliklardan topganman. Orzu umidlarim va maqsadlarim shu dalada tug'ilgan va ro'yobga chiqqan.

Bilasizmi, o'smirligimda sinfdoshlarimiz bilan paxta terгани borardik. O'sha payti dalaga otamning otini minib borganimni eslasam, jasur qiz ekanimga qoyil qolaman. Oilada 6 qiz 2 o'g'il edik, ota-onam bizni bekam-u ko'st ulg'aytirgan. Shu bois paxta terimidan boshqa vaqtlar dalaga chiqib, mehnat paxta terimidan boshqa vaqtlar dalaga chiqib, mehnat qilishga ehtiyoj bo'lmagan. Biroq qo'shnilarimiz, dugonalarim dalaga ishlagani ketardi. Ularga qo'shilib yurishga, dalada ishlashga qiziqqanligim sababli, otam dalada ishlashimga ruxsat berardi. To'g'risi, to'y-tomoshalarga borishdan ko'ra dalada mehnat qilishga, ketmon chopishga, paxtaning o'sishini tomosha qilishga qiziqardim. Dalada esadigan mayin shabada, o't-o'lanlarning shivir-shiviri menga yoqardi. Buni qarangki, qiziqishlarim, orzularim mening taqdirimga aylandi. Quvonarlisi, dalaga bo'lgan qiziqishim tufayli baxtimni topdim.

Yer bilan tillashib, mehnat qilishimni ko'rib, kolxozda brigadir bo'lib ishlagan qaynotam 1995-yili meni kelin qilganlar. Yangi kelinlik vaqtlarimda ham paykalga borishga, ochiq havodan nafas olishga harakat qilardim. Qaynotam dashtdagi yumush-





larni bajarishni, ishchi-xodimlarni bir yoqadan bosh chiqarib, mehnat qilishga undash sirlarini o'rgatdi. Va vaqt o'tib, bu yumushni menga topshirdilar. Bu borada, albatta, turmush o'rtog'im bilan yelkadosh bo'lib ishladik, mehnat qildik.

O'sha payti men rahbarlik qilayotgan "Qo'l ariq sari yo'l" fermer xo'jaligi yer maydoni 16 gektar edi. Ammo biz dalani gullatib qo'ygan edik. Ro'zg'orning barakasi shu fermerlik orqali edi-da. Shuning uchun men yangiliklar yaratib, yangi texnologiyalarni ishga solib, ko'proq hosil olish yo'lini izlardim. Chunki fermer uchun suv taqchilligi doim bo'lgan. O'sha paytlarda paxta dalasini ko'llatib, suvni zovurlarga oqizib qo'ygan fermerlarni ko'rsam tanbeh berardim. "Suvning har tomchisi oltin, agar buni isrof qilsang, ertaga shu narsaga zor bo'lasan" deb qo'rqmasdan yuziga aytardim. To'g'rida, suvning ham uvoli bor. O'zim esa kam suv bilan ko'proq dalalarni sug'orardim. Har qatra suvni oltin deb bilardim. Bugun ba'zi fermerlar "Dilafro'z, o'shanda sen uzoqni ko'ra bilgan ekansan, qara, bugun suv taqchilligi butun dunyoda global muammoga aylandi" deyishadi.

To'g'risi, yangilikka juda o'chman. Shundanmi, qishloq xo'jaligi sohasidagi innovatsiyalarni darrov amaliyotga tatbiq etishga harakat qilaman. Yangiliklarni o'z dalalarimda qo'llab ko'raman va albatta, ijobiy natijaga erishaman. Tan olishimiz kerak, serquyosh diyorumizda suv resurslari taqchilligi kuzatilayotgan bo'lsa-da uning salmoqli qismi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga sarflanadi. Bu beminnat ne'matdan tejab-tergab foydalanish esa dolzarb masala. Shu bois suv tejavchi uskunalardan unumli foydalanilgan holda, sohaga yangi texnologiyalar yanada keng tatbiq etilsa, hosildorlik ko'tarilishi bilan birga, suvni tejash imkoniyati ham kengayadi.



Ana shu natijaga erishish uchun o'tgan yili ixtiyorimizdagi 20 gektar yer maydoniga tomchilatib sug'orish texnologiyasini o'rnatdik. Bu usul har jihatdan foydali va samarali ekanligi amalda o'z isbotini topmoqda. Suv tejavchi uskunalarni amaliyotga joriy etish har gektar yer hisobiga suvni 40–45 foiz tejash imkonini berishi bilan birga, hosildorlikni 15–20 sentnerga oshiradi. Buni o'z fermer xo'jaligimda amalda sinab ko'rdim.

Tomchilatib sug'orish tizimiga uzluksiz suv kerak bo'lganligi sababli, dala ham chetida artezian quduq qazdirdik. Sug'orish qiyin bo'lgan dalalarimizga ham tomchilatib sug'orish texnologiyasini va dala shiyponimizga quyosh panelini o'rnatishni rejalashtirganmiz.

Ba'zi fermerlar "Suv oqib turibdi-ku, beminnat ne'mat bo'lsa, buncha taqchilliq haqida ko'p gapirasizlar" deb kalta o'yladi. Ularga global issiq tufayli tog'lardagi qor tez erib ketayotgani, bu esa yoz oylarida suv taqchilligini keltirib chiqarishini aytaman. Mamlakatimizda foydalanilayotgan suvning 80 foizi chet eldan oqib kelishini, Amudaryo suvi Qirg'iziston va Tojikiston tog'laridan boshlanishini, hozir bu tog'lardagi muzliklar global isish tufayli 30 foiz hajmini yo'qotganini aytib, ularni suv resurslaridan unumli foydalanishga chaqiraman. Eng quvonarlisi mening shu fikrlarim turki bo'ldimi, har qalay ko'plab fermer xo'jaliklari tomchilatib sug'orishga o'tidi.

Aslida har bir sohaning o'ziga yarasha qiyinchiligi bor. Sabr, bardosh va chidam bilan qiyinchiliklarni yengish mumkin. Bu kunlarga, yutuqlarga mashaqqatsiz erishganim yo'q albatta. Shunday vaqtlar bo'ldiki, yer maydonimni tortib olmoqqa urinishdi. Iqlim sharoitining o'zgargani, ob-havoning keskin isib ketishi sabab, daladagi hosillarimiz chanqab qoldi. Shunday og'ir hollarda sadoqatli odamlarning kamligi bilinarkan. Qadagan urug'larimizni sovuq urib ketgan paytlarda men orqaga chekinishni o'ylamadim, chekinmadim. Aksincha, dalalarim bilan suhbatlashdim, ular bilan dardlashdim. Sabr-bardosh bilan qiyinchiliklarni yengib o'tganimda, anglaganim shu bo'ldiki, intilgan odam albatta, yutuqlarga erishar ekan. "Intilganga tole yor" degan gap bejiz aytilmagan-da.

Mashaqqatli mehnat ortidan, albatta, yutuqlar kelishini Prezidentimiz bilan uchrashganda, u kishi bilan suhbatlashish sharafiga muyassar bo'lganimda aniq-ti-

niq his qildim. Bu uchrashuv men uchun kutilmagan voqea bo'ldi. Xo'jaligimiz faoliyati bilan qiziqqan davlatimiz rahbariga orzu niyatlarim, kelgusidagi rejalarimni to'laqinlanib aytganman. Bu baxt hammaga ham nasib etavermasligini yaxshi anglayman. Qishloq ayoli bo'lib dalada mehnat qilganim, fermerlik sohasida o'z o'rnimni topganim uchun ham menga nasib etdi.

Hozir fermer xo'jaligimizning yer maydoni 100 gektarga yetgan. Paxta, g'alla va chorvachilikka ixtisoslashtirilgan. 10 gektar yerda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirib, yirik shoxli qoramol, 5 ta "Qorabayir" zotli otni parvarish qilamiz. Otni men uchun juda qadri. Sababi, bu otni qizimga otam sovg'a qilgan. "Quyun", "To'fon" nomli otlarimiz har jihatdan aqlli.

Menga 10-15 yil avval "Dilafro'z, vaqti kelib, sening ixtiyoringda 100 gektarlab yer maydoni bo'ladi. Qo'l ostingda 10-13 nafar odam mehnat qiladi. 80 nafar qizga bosh bo'lasan, zamonaviy mashina boshqarib yurasan", deyishsa, bu ertak deb, ishonmasdim. Sababi, bu gaplarni aytish oson, amalga oshirish qiyin. Oddiy qishloq ayolining bu darajaga erishishi igna bilan quduq qazishdek gap.

Nokamtarlik bo'lsa-da aytay, hozir nafaqat Kasbi tumanida, balki Qashqadaryoda viloyatning nomdor fermerlaridan biriman. "Mehnat qilgan elda aziz", deyil-



ganidek, faoliyatimiz orqali yutuqlarga erishyapmiz, e'tirofu va e'zoz topyapmiz. Daladagi ishlarni, qishloq xo'jaligidagi agrotexnika yumushlarini o'z vaqtida qilganimiz sababli yildan-yilga daromadimiz ortib boraverdi. Vaqt o'tib, "Matiz", "Damas" "Cobalt" avtomashinalarini, "Belarus" traktorini sotib oldik. Fermer uchun texnika qanot. Buni faoliyatim davomida tushunib yetyapman. Xizmatdagi texnikalarimiz ish unumdorligini oshirishda o'z samarasini bermoqda.

To'g'risi, hayotimni kengliklarsiz, yer maydonlarisiz tasavvur qilolmayman. Erta bahorda daladagi ikki xonali uyimga ko'chib boramanda, yumushlarni bajarishga intilaman. Garchi oliygohda o'qimagan bo'lsamda, jamiyatda o'z o'rnimni topishga intildim. Farzandlarimni oliygohlarda o'qitish uchun harakat qilyapman. Lekin to'xtab qolishni xayolimga ham keltirmayman. To'xtab qolmaslik uchun esa zamondan orqada qolmaslik kerak. Qanday yangiliklar hayotga kirib kelayotgan bo'lsa, hammasidan xabardor bo'lish joiz.

Ayniqsa, global iqtisodiy taqchilliklar, iqlim o'zgarishi, anomal sovuq va issiqlar bularning hammasini innovatsiya bilan, inson aql-idroki bilan yengib o'tsa bo'ladi. Bugungi fermer tadqiqotchi, iqlimshunos, iqtisodchi va innovator bo'lishi kerakligini davrning o'zi taqozo etib turibdi. Hayot o'zi oldimizga qo'yayotgan bu kabi vazifalar fermer yelkasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Bu mas'uliyatni hormay-tolmay amalga oshirish, jonajon yurtimiz istiqbolini yaratish, Yangi O'zbekistonni barpo qilish yo'lida men doim sobitqadamman.

NAVOIY VILOYATI

NILUFAR NURIDDINOVA

YER QA'RIDAN SUV CHIQARIB, DASHTNI BOQQA AYLANTIRGAN AYOL

...Inson istasa cho'lni bog', harobani gulzorga aylantira oladi, bunga bizning faoliyatimiz misol bo'la oladi





Notekis, yastanib yotgan qir-adirliklardan har kuni o'tib qaytar ekan, Nilufarxon va Orifjonning fikru xayoli bo'sh turgan shu yerlarda bog' yaratib, yashnatish edi. Ammo bu aytishga oson. Aslida bu yaylov uchun xizmat qiladigan manzilda issiqqa chidamli ko'chatlar ekish tugul suv keltirish muammo edi. Hayot boshqa, xayol boshqa. Ko'ngilga nimalar kelmaydi. Agar hammasini amalga oshirish imkoni bo'lganida edi... Miyada charx urayotgan turli fikrlar bir-birini inkor etardi. Ko'z qo'rqoq, qo'l botir, shunday ko'ringani bilan bu yerlarda zo'r bog' barpo qilsa bo'ladi, degan fikrlar ham tinchlik bermasdi ularga.

Buni qarangki, Nilufarxon va Orifjonning qilgan mehnati, sarflangan mablag'i zo'ye ketmadi. Qir-adirlarga obi-hayot yetib bordi, dastlabki bog' nihollari kurtak yozdi. Hoynahoy ming azobu mashaqqat bilan suv chiqarilib, bog' barpo qilindi.

Navoiy viloyatining Xatirchi tumani Quchchi mahallasidagi "Behisht olma uzumlari" fermer xo'jaligi rahbari Nilufar Nuriddinova ana shunday mehnatdan qochmaydigan shijoatli ayol. U uch farzandning onasi. Turmush o'rtog'i Orifjon Suyarov bilan farzandlarini kam-ko'stsiz tarbiyalash bilan bir qator-da, atrofi adirliklar bilan o'ralgan manzilda mo'jazgina bog' barpo qilishga erishgan.



Oilaning to'ng'ich farzandi Sadoqat Jahon tillari universitetini tamomlagan bo'lsa, Ma'rufjon Samarqand tibbiyot universitetining 5-bosqich talabasi. Kenjatoy Aziza 6-sinfda tahsil olmoqda.

– Inson istasa cho'lni bog', harobani gulzorga aylantira oladi, bunga bizning faoliyatimiz misol bo'la oladi, – deydi "Behisht olma uzumlari" fermer xo'jaligini rahbari Nilufar Nuriddinova. – 2017-yilda biz ham qishlog'imizdan 12 kilometr uzoqlikdagi adirlikda 10 gektar yerni olib, bog'dorchilikka qadam qo'ydik. Uning 3 gektari uzumchilikka ixtisoslashgan. Bog' tashkil qilayotgan vaqtlarimizda "Shuncha pulni bekorga sarflayapsiz, bu yerdan ko'zlagan daromadingizni ololmaysiz", deguvchilar ham topildi. Besh qo'l barobar bo'lmaganidek, o'sha vaqtlarda bizga havas qilganlar ham bo'ldi. Bog'imizga ekilgan olma, shaftoli, behi ko'chatlarini ko'rsangiz, ko'zingiz quvnaydi. 3 gektar yer maydonimizga uzumning "gigant", "qora kishmish" navini ekkanmiz, kelgusi yildan toklarimiz hosilga kiradi. Uzumchilikdan tashqari mayiz ham tayyorlaymiz. 3 kilo uzumdan 1 kilo mayiz chiqadi. O'rtacha 3 tonna uzumdan 1 tonnagacha shirin mayiz olsa bo'ladi. Aslida, mayiz sotib ham boyib ketish mumkin. Faqat, uzum navi to'g'ri tanlansa kifoya.

Bir vaqtlar bu qir-adirliklar yaylov uchun xizmat qilgan bo'lsa, endi ko'zni quvontiradigan mevazor bog'larga aylandi. "Yaxshidan bog' qoladi" naqliga amal qilgan Nilufarxon turmush o'rtog'i bilan birgalikda qarovsiz manzilni obod qilganidan, ko'zni quvnatib, dilni yayratadigan bog' tashkil qilganidan mamnun. Bog'dagi mevali daraxtlarni, yashillikni ko'rgan kishining qalbi yayraydi. Ajablanarlisi, "qora kishmish",



“gigant” navlar payvandlash usuli yordamida ko‘paytirilgan. “Husayn” navi esa namlikka, “qora kishmish”, “gigant” navlari issiqqa chidamli. Bog‘ning Xitoy texnologiyasi asosida tomchilatib sug‘orilayotgani e‘tiborga loyiq.

– Yer osti suvi zax suv hisoblanadi va u daraxtlarga sovuqlik qilib ildizini quritar ekan, – deydi Nilufar Nuriddinova. – Bilasiz, qirda issiq 50 darajadan oshadi va yer qizib ketadi. Bu vaqtda toklarni yer osti suvi bilan sug‘orsak, ildizlarga sovuqlik qiladi. To‘g‘risi, buni o‘zimiz ham keyin bildik, negaki, shu usulda sug‘orib, bir qancha daraxtlarimizni quritib qo‘ydik. Bu bizga achchiq tajriba va saboq bo‘ldi. Endilikda biz suvni chiqarib, kun bo‘yi quyosh nuri bilan yumshatib, kechqurun minerallar bilan boyitib, keyin bog‘ni sug‘oramiz. 2022–yildan 10 gektar bog‘imizda tomchilatib sug‘orish tizimini ishga tushirdik. Aslida uzumlarimiz bu yil hosilga kirishi kerak edi. Apreldagi sovuqda toklarimizni gulini, mevasini sovuq urdi. Ko‘mnganimiz sababli tok tanasiga sovuq unchalik ta‘sir qilmadi va bir qism hosil oldik. Kelasi yili, albatta, toklarimiz hosilga kiradi. To‘g‘risi, bog‘dan ko‘proq daromad olishdan ko‘ra o‘zimiz ko‘proq mehnat qilish, yashillikdan bahra olish maqsadida ishlaymiz. Bog‘ning chiroyidan, toza havosidan, quyoshga to‘yingan tiniq suvining sharqirashidan ko‘nglimiz yayraydi.

Ha, qishloqdan olisdagi adirlikda bog‘ barpo etish bir mashaqqat bo‘lsa, ushbu yashil hududni tabiat inijliklari va chorvadan asrash ham oson emas. Ko‘pchilik biladi, bahorgi jala va yomg‘irlardan qirda sel paydo bo‘ladi. Bunday yomg‘ir suvlari har tarafdin oqib kelishi sabab, ko‘pincha adirlikdagi ekinlarni yuvib ketadi. Ana shunday holatlardan bog‘dagi daraxtlarni asrash va himoya qilish uchun mahalliy himoya usulidan foydalanilmoqda. Bu ancha kamxarajat va qulay bo‘lib, ekskavtor yordamida 10 gektardagi bog‘ atrofi ikki metr chuqurlikda va bir metr kenglikda qazilgan. Olingan tuproq bog‘ tarafga tashlab, balandlik hosil qilingan va jiyda daraxti ekilgan. Nisbatan arzon, lekin juda foydali bu usulda bog‘ chorva va sel suvlaridan himoyalanaadi. Agarda shunday maydondagi yer sim bilan o‘ralib, shipallar qoqilsa 100 million so‘m va ko‘proq mehnat sarflanadi. Bunda esa 3,5 million so‘m va ekskavtorchining ikki soat vaqti kerak, xolos.

Xalqimiz tomonidan “chorvachilik bir yilda, dehqonchilik o‘n yilda” degan naql bekorga aytilmagan. Qariyb yetti yildirki, qir-adirlar yon bag‘rida ko‘rkamgina bog‘





yaratib, tog'ning sovug'iga bardosh beradigan daraxt ko'chatlarini ekan "Behisht olma uzumlari" fermer xo'jaligi faoliyatiga ko'pchilik havas qiladi. Bu yerda tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy qilingani esa suvni tejash bilan birga, daraxtlarni serhosil bo'lishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

– Dehqonchilik, inson sabrini sinar ekan, – deydi Nilufar. – Mashaqqatlarni, qiyinchiliklarni yengib o'tishimda turmush o'rtog'im yaqin ko'makchi, maslahatdoshim bo'ladi. Ko'p hollarda daromaddan chiqim ko'payib ketayotganidan xafa bo'lib, "Ey, shu bog' kerak emas menga" deb qo'l siltagan vaqtlarimda, "Unaqa dema, bu yil sovuq tufayli hosilimiz kam chiqdi, kelgusi yil albatta, mo'l bo'ladi, bunday bog' yaratishning o'zi bo'lmaydi, onajonisi" deb dalda berardi. Gohida "Maqsadimiz mahsulotni eksportga chiqarish edi, buning uchun vaqt kerak. Hali ko'rasan, bizning bog'imizda pishgan uzumlarga xorijliklar ham mahliyo bo'lib qoladi." deb doim takrorlaydi u kishi. O'zim "husayni" uzumini yaxshi ko'raman. "Gigant" navli uzumlarimiz ham yaxshi o'syapti. Bu navdagi uzum serhosil va xaridorgir bo'ladi. Aytganча, yana 3 gektar notekis yer maydonini 70 million so'm evaziga tekislab, 4 ming tupdan ko'proq "gigant" navli uzum nihollarini ko'paytirishni boshladik.

Keyingi yillarda O'zbekistonda uzumchilik sohasida qator ishlar amalga oshirilib, yangi navlar yaratish, eksportbop va sanoatbop uzum navlarini ko'paytirish, tokzorlar maydonini kengaytirish borasida salmoqli natijalarga erishildi. Bunda Nilufarxon kabi shijoatli ayollarning hissasi katta bo'lmoqda.

Muxtasar aytganda, yil davomida dasturxonlarimizning shirin-shakar uzumu mevalar bilan to'liq bo'lishi barobarida, uni bozorga, eksportga chiqarish, qayta ishlab, tayyor mahsulot chiqarishgacha bo'lgan tizimli ishlar izchil amalga oshirilmo-

qda. Sohadagi islohotlar esa bu boradagi ishlarni yanada jadal davom ettirishga xizmat qilmoqda. Hozirda O'zbekistonda 182,1 ming gektar (107 ming hosilli) tokzor mavjud. Joriy yilda 2 million tonna uzum yetishtirish va xorijga 298,6 mln. dollarlik mahsulot eksport qilish rejalashtirilgan. 2021-2023-yillarda 88,3 ming gektar, shundan 2023-yilda 14,4 ming gektar yangi uzumzorlar yaratildi. Yil yakunigacha yana 28 ming gektar uzumzor bog' yaratish uchun jadal ish olib borilmoqda.

Mashaqqati og'ir bo'lsa-da, sohibkorlar erta bahordan to kech kuzgacha uzum bog'larida ish bilan mashg'ul bo'lishadi. Tok ochishdan boshlab uni parvarishlash, sug'orish, o'g'it berish, xomtok qilish, pishib yetilganda uzumlarni uzib olish, saralash va mayiz uchun quritishga ilish, yoyish va yig'ib olish, tozalash, kuzda hosildan bo'shagan toklarni qirqish va asta-sekin ko'mish va hokazo jarayonlar har yili qizg'in davom etadi. Bu esa xalqimizning mehnatsevarligi, elu yurt to'kinligi uchun xizmat qilishga doim shay ekanidan dalolat beradi.

Uzum yetishtirish, undan mayiz tayyorlash ham oson ish emas. Ammo uzumchilikning qiyinchiligidan cho'chimay, astoydil mehnat qilayotgan Nilufarxondek sohibkorlar safi tobora kengayib borayotgani quvonarlidir. Vaqt o'tishi bilan qiru adirlarda ekilgan minglab ko'chatlar katta bog' bo'ladi.

Shu kunlarda oila yana bir xayrli ishni boshlash arafasida. Negaki, Nilufarxon va Orifjonning faoliyatida keng qo'llayotgan o'z aqidalari bor. "Uchta narsaga etiborli bo'lish kerak: Yerning umrini bekor o'tkazmaslik, suvni tejash va muqobil elektr tizimidan foydalanish kerak". Shu bois 2024-yilda quyosh panellaridan foydalanish rejalashtirilgan. Xorijda ishlab chiqarilgan va turli hajmdagi ana shunday mahsulotlarni o'rganib, hajm va narxi ma'qul bo'lgani, xarid qilinadi.

NAMANGAN VILOYATI

HALIMA MIRAHMEDOVA

MEHNATDAN QOCHMASANGIZ MUVAFFAQIYAT SIZNIKI...

*...Bu men o'ylaganchalik
oson ish emas ekan.*





Namangan viloyatining Uychi tumanidagi “Aksi farel servis” fermer xo‘jaligi rahbari Halimaxon Mirahmedovaning yoshlarga qarata javobi bu.

- Halimaxon opa pishirgan baliqni yemabsiz, bu dunyoga kelmabsiz.
- Rostdan ham mazasiga gap yo‘q, uning ustiga saranjom, sarishtalikni aytmaysizmi, farishtasi bor shu ayolning.
- To‘g‘ri aytasiz, juda ishbilarmonda bu ayol, ammo hamma alqaydi, elning duosini olyapti...

Halimaxon bu gapni bexosdan eshitib, yuziga quvonch yoyildi. Bir ozdan so‘ng esa tomog‘iga nimadir tiqilgandek bo‘ldi. Kipriklari orasida yosh halqalandi. Yanoqlari yiltiradi. Chunki uning bosib o‘tgan hayot yo‘li ko‘z o‘ngida gavalandi. Unga oson bo‘lmagandi. Muvaffaqiyat faqat zahmatli mehnat ortidan kelishini, zahmatli mehnat esa sabr-bardoshni, chidamni va aniq maqsad bilan harakat qilishni talab etishini bugun u anglab yetdi. Bilasizmi, shunga 15 yil kifoya qilildi. 15 yil sinovlar girdobida yashabdi. Aslida hayot kurash maydoni, kurash maydoniga kirdingmi, faqat izlanish bilan toblanasan. Bo‘lmasa, u bog‘cha tarbiyachiligidan shunday katta biznes vakili bo‘lishni xayoliga ham keltirmagandi. Bolajonlarni tarbiyalab, shu kasb ortidan ro‘zg‘orini badastir qilib yursam bo‘ldi, deb o‘ylardi. Hayot esa uni kurashga chorladi. Endigina 25 yoshga kirganida ishidan ayrildi. Bekorchidan esa xudo bezor. Bekorchilik Halimaxon uchun nimanidir yo‘qotgan, nimadandir ayrilgan va hayotda kurashdan yengilib qolgandek, tasavvur uyg‘otardi.





Turmush o'rtog'i yaxshi odam. Garchi u traktorchi bo'lsa-da, elda obro'si baland. Odamlarga gohida beminnat xizmat qilardi. El duosini olish oson ish emas. Halimaxon shunday muruvvatli odam bilan umrini bog'lagani, uch farzand tarbiyalayotganidan quvonadi. Ammo bu yoqda uch farzandni oq yuvib, oq tarab elga qo'shish kerak. Bir traktorchining topgani nimaga ham yetardi. Halimaxon ro'zg'orning bir chetini ko'tarib yuborish haqida o'ylardi. To'g'ri, ishdan bo'shagach, turli kasbda o'zini sinab ko'rdi. Hatto bozorga ham chiqdi. Oshxonada ishladi, oftobda qarayib, dala zahmatini ham chekdi.

2000-yillarda mamlakatimizda baliqchilikni rivojlantirish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, bozorlarimizni bu tansiq taom bilan to'kin qilish bo'yicha davlat tadbirkorlar uchun yangi imtiyoz va yengilliklar berdi. Davlat tadbirkorni qo'llab-quvvatlamoqchi, tadbirkorchi, u bu imkoniyatlardan foydalana olyaptimi? Shu savol Halimaxonning xayolidan hech chiqmasdi. Eriga bu haqda aytganda "Eplay olasanmi, bu sohani yaxshi bilmaysan-ku" dedi o'yga cho'mib. "Izlanish, o'qish, o'rganish, sohaning ichiga chuqur kirish kerak, ana shunda natijaga erishsa bo'ladi", deya o'zining maqsadini ochiq aytdi, u turmush o'rtog'iga. Rostdan ham u haq edi. Maqsad aniq, biznes reja istiqbolli bo'lsa, qolaversa, davlat qo'llab-quvvatlab turgan bir paytda nimaga u tadbirkor bo'la olmaydi. "Muvaffaqiyatga erishishimni ko'nglim sezib turibdi" dedi u qat'iy ohangda. Eri ham uning fikrlarini qo'llab-quvvatladi.

Halimaxonning ota uyiga yaqin joyda Norin daryosi oqib o'tadi. Yoshligida akalari baliq oviga tez-tez chiqar, yosh Halima ham ularga ergashardi. Bir tomondan bolalikdagi shirin xotiralar uni shu sohaga bosh qo'shishiga turtki bo'lgan bo'lsa ajab emas. O'zlari tashkil etgan fermer xo'jaligiga umid bilan "Aksi farel servis" deb nom qo'yishdi. Hozir o'ylab qarasa, Halimaxonning o'sha vaqtlardagi bilimlari juda ibtidoiy ekan.

– Baliqni suvga tashlasa, o'zi katta bo'laveradi, – deb o'ylardim, – deydi Namangan viloyatining Uychi tumanida yashovchi H.Mirahmedova. – Bu men o'ylaganchalik oson ish emas ekan. Baliq yetishtiraman deb boshimdan ko'p qiyinchiliklar o'tdi. Bankdan olingan kreditni vaqtida to'lay olmagan paytlar bo'ldi. Qarzga botib qolgan kunlarni o'ylasam, yuragim uvishib ketadi. Hatto o'zimiz yashab turgan keng hovlimizni sotib



yuborishga majbur bo'ldik. Sun'iy ko'l yonida, qorovullarga mo'ljallab qurilgan omonatgina kulbaga ko'chib o'tdik. Keng hovlida yayrab yashagan farzandlarim avvaliga rosa qiyinalishdi. Ularga ko'rib, pana joyda ko'zyoshi ham qilib olardim. Yig'laganimni farzandlarimga, turmush o'rtog'imga ko'rsatmasdim. Baribir turmush o'rtog'im buni sezib ichida ezilib yurgan ekan.

Qiyinchiliklar irodasi mustahkam odamni chunonam toblaydiki, asti qo'ya-verasiz. Irodasiz kishilar esa ikki qo'lini ko'tarib, taslim bo'ladi. Halimaxon esa taslim bo'lishni xayoliga ham keltirmas, pana-pastqamdagi ko'zyoshlar esa kurashishga chorlov ifodasi edi. Shu tariqa asta-sekin mehnati yuz ko'rsata boshladi. Sun'iy ko'ldagi chavoqlardan baliqchalar paydo bo'lib, keyin ko'zni quvnatadigan katta baliqlarga aylana boshladi. Shunda Halimaxonning miyasiga yana bir fikr keldi. Yetishtirilgan baliqni tirik sotgandan ko'ra, undan taom tayyorlab, buyurtmachilarga yetkazish anchagina daromadli ish, deb o'yladi va bu uni chekkan zahmatlariga berilgan mukofot kabi yaxshigina daromad keltira boshladi.

Lekin buning ham o'z mashaqqati bor ekan. Hammasidan ko'ra, qishning sovug'ida onasiga ko'makchi bo'lib, baliq tozalayotgan o'g'liga qarab, Halimaning dili og'rirdi. Xullas, vaqt hamma narsaga malham bo'ldi. Har bir o'tkan kun tajribasi hayotni o'zgarayotganiga fatvo berayotgandek edi.

Ana shunday hayot sinovlari bilan "ayovsiz" kurashgan tadbirkorning 2014 yildan boshlab, daromadi ko'paya boshladi. Boshqachasiga ifodalaganda u hayot imtihonidan muvaffaqiyatli o'tdi. Yaxshigina daromad olib, shinamgina uy ham soldi. Fermer xo'jalik uchun zarur texnikalar, avtomobil, xullas ro'zg'or uchun neki kerak bo'lsa, barchasiga ega bo'ldi.

Bugungi kunda fermer 4 gektar yerda 8 ta sun'iy ko'l barpo etgan. Ularda "do'ngpeshona", "oq amur" va zog'ora baliqlari parvarishlanmoqda.

64 – Qarang, fermer xo'jaligimiz nomini "Aksi farel servis" deb atabmizu, biroq

forel baliq'ini yetishtirish haqida shu paytgacha o'ylamabmiz, – deydi Halima Mirahmedova. – Dunyoda sevib iste'mol qilinadigan forel, ya'ni xonbaliqni yetishtirishning o'ziga yarasha mashaqqatlari bor ekan. 15 darajagacha bo'lgan salqin suv havzalarida yashay oladigan baliqning bu turini boqish va undan daromad olish oson bo'lmadi. Juda nozikligidan uni gulmohi deb ham atashadi. Namangan iqlim sharoitida, qo'lbola uslubda qurilgan hovuzda uni ko'paytirish yanayam alohida e'tibor va bilim talab etadi.

Halimaxon buni uddaladi. 2023 yilning qishida 1 sotix maydonda maxsus ko'l yaratdi. Buning uchun 8-10 metr chuqurlikdan yer osti suvini qazib, chiqardi. May oyida tajriba-sinov tariqasida hovuzga tashlangan 300 dona forel baliq'i chavoqlari sentyabrga kelib 2-2,5 kilo tosh bosdi. Shu tariqa noyob baliq turi Namangan viloyati sharoitida o'zgacha uslubda parvarishlana boshladi. Shu paytgacha fermer xo'jaligi havzalarida yetishtirilayotgan baliqlar uchun Polshadan maxsus yem katta xarajatlar evaziga keltirilayotgan edi. Bu ancha ovoragarchilikni talab etardi. Nimaki, kamyob bo'lsa, uning muqobili albatta topiladi. Tadbirkorning ishning ko'zini bilishi ham ana shunda ko'rindi. Halimaxon turmush o'rtog'i bilan mazkur masalada maslahatlashib, bir qarorga kelishdi: endi baliqlar uchun ozuqani o'zlari yetishtiradi.

To'g'ri, bu ishni yem ishlab chiqaruvchilar tajribasini o'rganmasdan, texnologiyalarini sinchiklab, tahlil qilmasdan amalga oshirib bo'lmazdi. Shuning uchun ham maxsus laboratoriyada mutaxassislar bilan yem tarkibi chuqur tahlil qilindi. Keyin esa yem ishlab chiqarish uskunasi xarid qilish masalasi ustida bosh qotirildi. "Intilgan imkon topadi" deganlaridek, ular buni uddalashdi. Bugungi kunga kelib, fermer xo'jaligida ishlab chiqarilayotgan yem nafaqat o'zlarini ta'minlayapti, balki atrofdagi boshqa baliqchilik xo'jaliklariga ham yetkazib berilmoqda.



Eng quvonarlisi, ishlab chiqarilayotgan ozuqa xorijnikidan sira qolishmaydi. Kuzatuvlarga ko'ra, 100 grammlik baliq 10–15 kunda 200–300 grammgacha semir-moqda. Endi "do'ngpeshona" va zog'ora baliqlar yetishtirish hajmi yanada oshadi. Hademay, ular qatorida forel taomlari ham xo'randalarga tortiq etiladi.

Fermer kelgusida zamonaviy usullar va intensiv texnologiyalarni jadal joriy etish, suv havzalari holatini yaxshilash, mavjud moddiy-texnika vositalarini tubdan yangilashni mo'ljallamoqda. Buning evaziga baliq yetishtirish hajmini yanada oshirish-ni niyat qilib turibdi.

– Bir vaqtlar hamma ish oilamiz zimmasida edi, – deydi Halimaxon. – Ishchi olishga qurbimiz yetmasdi. Endilikda esa qo'limda 200 nafarga yaqin ishchilar mehnat qil-moqda. O'zimiz yetishtirgan baliqlardan mazali taomlar tayyorlaymiz. Bu yoqda par-randachilikni yo'lga qo'ydik. Bu, albatta, ishchilarimizni tushlikda parhez taom bilan ta'minlashda qo'l kelmoqda. Yana bir tomonda deraza-rom va temir darvoza ishlab chiqaryapmiz. Tikuv seximizning faoliyati ham tobora kengayib, mahallamizdagi 50 nafardan ko'proq qiz-juvonlarning bandligi ta'minlanmoqda.

Hayotning o'zi ulug' muallim. Yillar davomida to'plangan tajribani esa katta bir maktabga qiyoslasak, to'g'ri bo'ladi. Halima Mirahmedova ana shu maktabning asos-chisi, endi "professori", desak ham, mubolag'a bo'lmas. U turmushning har bir jumbog'i va misollarini xuddi oliy matematikdek, o'z bilimi va salohiyati bilan yecha oldi. Uch farzandi hayotda o'rnini topdi. Hademay, nabiralarining ham bo'yi cho'zilib, buvisiga qanot bo'ladi.

Halimaxon bilan suhbatimiz juda qizg'in kechdi. Bir o'tgan kunlarga qaytib, bir kelajakdagi rejalar haqida rosa yayrab gaplashdik. Ketar chog'imizda yelkasida sumka ko'targan 8–9 yoshlar chamasidagi bola uyga kirib kelganida Halimaxonning ko'zlari charaqlab ketdi. "Bu mening to'ng'ich, erkatoy nabiram, onasining suyanchig'i, mening esa umid chirog'im", deya quchib, peshonasidan o'pib qo'ydi.

"Biz og'ir sinovlardan o'tib, katta yutuqlar dovoniga yetib keldik. Hali yana bir nechta dovonlarni egallash niyatimiz bor" deydi u. To'g'ri, hayot davom etar ekan, Halimaxon kurashdan chetga chiqishni xayoliga ham keltirmaydi. Axir ko'z o'ngi-da ulg'ayayotgan shirin-shakar nabiralar uning ishini davom ettiradi-da. Balki ular Yangi O'zbekiston quruvchilari safida bo'lar. Biz barpo qilayotgan Uchinchi Rennessans poydevorlari ular timsolida yanada yuksaklarga ko'tarilar. Axir poydevori mustahkam bino uzoq yashaydi-ku!

Oddiy tarbiyachilikdan el nazariga tushgan mashhur tadbirkorga aylangan uychilik Halimaxon Mirahmedovaning bosib o'tgan hayot yo'li barcha xotin-qizlar uchun ibrat maktabidir. Unga havas qiluvchilar safi kengayib bormoqda. "Yutuq-laringiz siri nima-da?" deb ko'p savol berishadi unga. "Mehnatdan qochmasangiz, muvaffaqiyatlar sizniki" deya oddiygina javob beradi Halimaxon. Ana shu oddiylikda ulug'lik mujassam, aslida...

NAMANGAN VILOYATI

RA'NOXON QORIYEVA

SUVSIZLIKDAN QURIB QOLGAN EKINLARNI QUCHIB, UZR SO'RADIM...

*...To'g'risi, bog' barpo
etishning o'zi bo'lmaydi.
Nihol ekib, bog' yaratish,
undan mo'l hosil ko'tarish
o'ziga xos bilim va tajriba
talab qiladi*





Namangan viloyatidagi "Uychi tumanida yashovchi fermer Ra'noxon Qoriyevaning dil so'zlari bu. Bu fikrlardan uning ona zaminga muhabbati naqadar yuksakligi, o'zi tug'ilib o'sgan tuproqqa sadoqati shundoqqina sezilib turibdi. Aslida ekiniga, yeriga, dalasiga mehri yuksak, kuyunchak insonlar ehtiroslarini jilovlay olmaydi. Hatto chanqab qolgan dalasini ko'rib, ko'zyosh qiladi, Ra'noxon singari "joni uzilgan" ekinini quchib, kerak bo'lsa kechirim so'raydi. Axir fermer ekinini xuddi o'zining farzandiday ko'radi-da. Hatto, nafas olishini, ulg'ayishini, "quvonishi"ni yurakdan sezadi. U bilan fikrlashadi, dardlashadi.

Binobarin, "Barnogul Ziyo Fayz" fermer xo'jaligi rahbari Ra'noxon Qoriyeva ana shunday fazilatga ega. Ammo unda o'ziga xos shaddotlik ham bor. Ushlagan joyini kesadigan, aytganini qiladigan ayol. Ya'ni doimo yangilikka intiladi, ishga ilg'or va zamonaviy usullarni joriy etishga harakat qiladi. Zehni juda o'tkir, foyda beradigan yangilikni darrov payqaydi. Miyasida hisob-kitobini chiqaradi. Chaqqonligi, epchilligi, hamma ishga bosh-qoshligi esa doim unga muvaffaqiyat keltiradi.

Bir kuni kombaynchining tobi qochib qoldi. Dalada g'alla o'rimi ketyapti. Har daqiqa qadrlı. Ra'noxon ish to'xtab qolmasin deb, apil-tapil kombayn ruliga o'tirdi va g'alla o'ra boshladi. Ikki soatlardan so'ng haydovchining ahvoli yaxshilanib,





Ra'noxondan rulni oldi. Har daqiqa hisobli bo'lgan muddatda texnika bo'sh qolmadi va ish davom etdi. Opa hazillashadi: "samolyotdan boshqa hamma texnikani boshqara olaman...".

Paxta g'alla o'z yo'luga. O'zbekistonda bu ekin deyarli har bir hududda, har bir fermer yetishtiradi. Opaning yong'oqchilikda to'plagan tajribasi maqtashga arzigulik. Uch yil avval xo'jalikning 2 gektar maydonida yong'oqning "Chantler" navi ekildi. Bu yil ana shu daraxtlar nishona hosil berdi. Mevasi yirik, po'chog'i yupqa va mag'zi oq bo'lgan bu daraxtlar 8 yilda o'rtacha 40 kilogrammdan hosil beradi. Shunda 2 gektar maydondagi yong'oqzordan 16 tonna hosil olish imkoniyati yaratiladi. Agar yong'oqning narxi o'rtacha 30 ming so'm ekanini inobatga olsak, daromadni hisoblab olaverasiz. Bu daraxtlarning hosildorligi 15-20 yilda 180-200 kilogrammga yetadi.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, dunyoda har yili 2 million tonnadan ziyod yong'oq yetishtiriladi. So'nggi 4 yilda ushbu mahsulotni iste'mol qilish 20 foizga o'sgan bo'lib, AQSH, Chili, Ukraina, Xitoy va Moldova eng ko'p yong'oq eksport qiluvchi mamlakatlar sirasiga kiradi.

-To'g'risi, bog' barpo etishning o'zi bo'lmaydi. Nihol ekib, bog' yaratish, undan mo'l hosil ko'tarish o'ziga xos bilim va tajriba talab qiladi, - deydi R.Qoriyeva. - Oddiygina ko'chat tanlashda adashish, daraxtlarga noto'g'ri ishlov berish sabab bog'dan fayz

ketishi, hosil kutilgan miqdorda bo'lmashligi ham mumkin. Nega yong'och ekdik? Sababi yong'och – chiqindisiz mahsulot, mag'zi, po'stlog'i va mevasini ichidagi parda devorlari ham xaridorgir. Undan uzoq yillar davomida hatto 500 kilogrammgacha hosil olish mumkin. Qolaversa, yer tanlamaydi, tog'da ham, dashtda ham o'saveradi, unchalik ko'p mehnat va xarajat ham talab qilmaydi.

To'g'risi, xalq tabobatida yong'ochning barglari, gullari, meva g'o'rasi, po'stlog'i, po'chog'i, mag'zining po'stlog'i va moyidan keng foydalaniladi. Masalan, yong'och g'o'rasi kamqonlikda naf bersa, undan tayyorlangan murabbo gipertoniya, qandli diabetni davolashda yaxshi samara beradi. Barglaridan tayyorlangan damlama me'da yarasi, ateroskleroz, shuningdek, yiringli yaralarga tavsiya qilinadi. Bargining qaynatmasi soch to'kilishining oldini olib, o'sishini tezlashtiradi.

O'zi agronom emasmi, nafaqat yer bilan, daladagi har bir o'simlik bilan tilla-sha oladi. Bu tajribasi 2023 yilning qishida yuz bergan anomal sovuqda ham sinovdan o'tdi. Ana shu yong'och daraxtlarini qishdan talofatsiz olib chiqdi. Bunda esa egatlarga suv ochib, daraxtlarni sug'orish tajribasidan keng foydalandi.

Yana bir misol. 2015 yilda saraton juda issiq keldi, kamiga suv yetishmovchiligi. Xo'jalikning 100 gektar yerining 60 gektariga nasos yordamida suv chiqadi. Issiqning zo'ridan bir gektar atrofidagi ekinlarga obi-hayot yetkazib bo'lmadi. Jildiragan suv manzilga yetmay, egatlarda parlanib ketganidan, o'sib turgan ekinlar quriy boshladi. Bunda esa o'zini aybdor sanab, ichi kuygan fermer, qovjirayotgan ekinlarni quchib, yig'lab, kechirim so'raydi. Shu qadar qayg'uddaligidan, uzoqroqda qarab turgan ishchilarni ham unutadi. Buni ko'rib, ularning ham ko'ziga yosh keladi. Shu tariqa yerga mehr berib, astoydil mehnat qilish atrofidagi 18 nafar ishchiga ham yuqqan.

Ra'no shu yerlarda o'sdi-ulg'aydi, 1991 yilda Qishloq xo'jaligi institutini bitirib, yana kolxozga qaytdi. Brigadirlikdan, bosh agronom va shirkat raisi darajasigacha bo'lgan bosqichni bosib o'tdi. 2006 yilda esa tuprog'i sho'r bosgan, texnika kirishi qiyin bo'lgan 40 gektarda fermer xo'jaligi tashkil qilindi. Bu muddatlarda turmush o'rtog'i Komiljon Jo'rayev doim yonida bo'ldi, qo'llab-quvvatladi.

Avvallari paxta hosili 20 sentnerdan oshmagan maydonlarda uch-to'rt yilda hosil cho'g'i bir yarim barobarga ko'tarildi. Keyinchalik ajriq bosgan, hosildorligi past 50 gektar yer qo'shib berildi. Ikki yilda bu yerlardan ham ko'ngildagidek hosil yetishtirildi.

–Har bir sohaning o'ziga xos qiyinchiligi bor, – deydi fermer. – Ayniqsa, yer bilan bog'liq jarayonlar juda murakkab. Hamisha ham siz istaganday bo'lavermaydi. Misol uchun, 2012 yil og'ir keldi. 30 gektarda ekilgan bug'doyni sovuq urib, 77 million so'm qarz bo'ldik. Shunda turmush o'rtog'imning daldasi bilan sovuq urgan bug'doyning o'rniga tezda makkajo'xori va mosh ekdik. 30 yillik tajribamdan bildimki, ekin yetishtirishda xatoga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bir yillik xato uch yilga tatiydi. Vaqt o'tib, qarzdan qutilib, daromad ko'rishni boshladik. Bugungi kunda 120 gektar yerni boshqarayapman.

Uning 17 gektarini dehqonchilik qilish istagidagi 100 ga yaqin yoshlarga 15 sotixdan bo'lib berdim. Ularga maslahat beraman, kerak bo'lsa texnikam bilan ko'maklashaman.

Ra'noxon mehr-oqibat, sadoqat, saxovat haqida ko'p gapiradi. Chunki amali, qilayotgan ishlari ham shu ezgu fazilatlariga hamohang. Fermer xo'jaligining dalalariga yuqoridan razm solsangiz, go'yoki rassom mo'yqalamda chizgan suratday chiroyli manzara ko'z o'ngingizda namoyon bo'ladi. Serkesak, baland-past yoki suv ko'llaydigan yerlar ko'zga tashlanmaydi. Ariqlar ham, o'qariqlar ham chizg'ichda chizilganday to'g'ri olingan. Buni mehnat, mahorat, intilish va innovatsiya sharofati, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Daladagi bunday go'zallik ko'zni quvontiribgina qolmay, atrof-muhitga ko'rkamlik bag'ishlaydi. Suvni ham ortiqcha sarflamaydi. Mineral va mahalliy o'g'itlar suv bilan oqib ketishini yaxshi biladi. Ra'no ekin maydonida unib chiqqan har bir ekinni ko'zdan kechirish jarayonida qo'shiq hirgoyi qilib, dalada mehnat qilishni xush ko'radi. Ha-ya, u to'qib, aytgan yor-yorlaru, kelin salomlar qishloq to'ylariga o'zgacha fayz beradi. Bu qo'shiqlarning birinchi tinglovchisi shu dalalar, ekinu giyohlar. Ular shabada silkinib, Ra'noxonga ilhom beradi, avj beradi.

2017-yil. O'zbekistonda issiqxona tashkil etishga e'tibor qaratildi. Hech bir yangilikdan ortda qolmaydigan bu fermer xo'jaligida yarim gektar issiqxona qurilib, pomidor, bodring, bulg'or qalampiri hattoki, sinov uchun ertapishar tarvuz yetishtirildi.

Tabiiy resurslardan samarali foydalanayotgan Ra'noxon issiqxonada tomchilatib sug'orishni yo'lga qo'ygan. Endi esa ana shu issiqxonani isitishda quyosh panelaridan foydalanish uchun izlanmoqda. Hozircha bir necha firmalarning mahsulotini o'rganib, shartnoma tuzish niyatida. Zero, atrof-muhitni buzmaydigan texnologiyalarni amaliyotda qo'llash, organik oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligida kimyoviy moddalarga ehtiyotkorlik va malakali munosabatda bo'lish har bir fermerning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Amalga oshirilgan har bir loyiha xo'jalikka daromad keltirishi shubhasiz. Daromad faqat o'zining emas, barcha ishchilarni turmush farovonligini ta'minlamoqda. Moddiy manfaatdorlikni ortishi ularni yanada samarali ishlashga rag'batlantirmoq-



da. Bundan tashqari savobtalab fermer ehtiyojmand oilalarga ham ko'mak berishni kanda qilmaydi. Deylik, shu qishloqda yashaydigan oilalardan birining bolasi nuqsonli tug'ildi, uni davolatib, operatsiya qildirdi. Natijada bolajon hozirda hayotga qaytib, tengdoshlari qatori o'sib, ulg'aymoqda. Yoki ikki yilcha avval qiynalgan bir oilaga uy qurishda ko'mak berib, to'yini ham o'tkazib berdi. Kuni kecha esa uyi yo'qligidan ijara-da qiynalib yurgan bir insonga hozircha dala shiypondan joy ajratib berdi. Endi esa disk churrasidan aziyat chekayotgan bu insonni operatsiya qildirish harakatida.

– Yildan-yilga birimiz ikki bo'lib, turmushimiz farovonlashib bormoqda,– deydi R.Qoriyeva.– Aslida bu ishlarni boyib ketish, e'tiborga tushish maqsadida emas, qishloq-doshlarimga yordam berishni, o'zim sevgan sohada faoliyat yuritish istagida boshlaganman. Bir o'g'il va bir qizim hayotda o'z o'rnini togan. Har ikkisi shifokor. Yerdan olayotgan daromadimiz o'zimiz yoki ro'zg'orimiz uchun ko'plik qiladi. Shunday holatda ham xalqimizga, muhtojlarga yordam bermaslik mumkinmi? Har bir ishchimga imkoniyat darajasida maosh to'layman. Yillar davomida ularni norozi qilmasikka harakat qildim, baraka ham shunda bo'ldi. Aslini olganda o'zim ham qiynalganman. Misol uchun, 2006 yilda bittagina traktor bilan ish boshlagandik. Dala ishlariga texnika yetishmas, olishga esa mablag'imiz yo'q edi. Endi esa "Yerqo'rg'on texnika" jamiyatiga asos soldik. Turmush o'rtog'im boshqarayotgan korxonada yigirmaga yaqin texnika bor. O'z dalalarimizdan tashqari Uychi tumanidagi har bir yer egasiga texnik xizmat ko'rsatish imkoniga egamiz.

Ra'noxon o'tgan yili Dubayda o'tkazilgan ko'rgazmada ishtirok etib, moshni ushbu davlatga eksport qilish borasida shartnoma tuzdi. Eksportdan kelgan daromadga bu yil 20 gektar maydonda tomchilatib sug'orish jihozlarini o'rnatmoqchi.

Fernerning aytishicha, aholi yashash hududiga yaqin yerining tepasida 14 metr balandlik bo'lib, u ekin ekishga yaroqsiz. Bu joyda unni qayta ishlashga mo'ljallangan tegirmon va savdo do'koni qurish mo'ljallanmoqda. Shu atrofda 500 metrcha yerda terak o'tkazib, yashil maydon hosil qilish ham ko'zda tutilgan. O'rganishlarga ko'ra, uning atrofida loviya va supurgi ekish orqali yerdan samarali foydalanish hamda bozorga mahsulot yetkazib bersa bo'lar ekan.

G'ayrati yuz-ko'zida aks etgan Ra'noxon o'tgan yili Preziden Farmoni asosida "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi. Oddiy qishloq ayolining bunday e'tirofga sazavor bo'lishi ortida mashaqqatli mehnat, dalada o'tgan umri, kezi kelganda uyqusiz turlari bor.

Yo'l-yo'lakay etaklari qir-adirlarga tutash qishloqning samimiy va beg'ubor odamlari hayotini kuzatib, tilimizning uchidagi savollarimizga javob topganday bo'lamiz. Bu qishloq ayollari, odamlari haqida o'ylar ekanimiz, hayotni bizdan-da teran tushunadigan oqsoqollarning duoga qo'l ochib: "Ra'noxon qizim, umringdan baraka top" degan so'zlari bizning ham dilimizga ko'chadi. Shu birgina shirin so'zni eshitmoqlikning o'zi ulug' saodat ekanini Ra'noxon teran ang'laydi, hamma charchoqlarini unutadi, yashashga, yaratishga ishtiyoqi yanada jo'sh uradi.

SAMARQAND VILOYATI

MALIKA SUVONOVA

EKIN YETISHTIRISHDA TOMCHILATIB SUG'ORISHDAN FOYDALANDIK

*...Yaratgandan boylik
so'ramadim, mehr
so'radim, oqibat, tinchlik
so'radim. Xudoga shukr
u hammasini berdi.*





Tong endi yorishib, kun oqarib kelmoqda. Turli sabzavotlar g'araq pishgan tomorqa yonidagi tandirda qoramag'izdan kelgan, qora qosh-li, suluvgina ayol qovoqli somsalarni birma-bir yopmoqda. Hovlining narigi tomonidagi og'il tarafdin govmishlarning egasini chorlayotgan ovozi ham ora-chorada eshilib qoladi.

Ayol, tezgina sigirlarni sog'ishni mo'ljallab, tandir og'zini yopib, chelak ko'tarib molxonaga kirdi. Uchta sigirni birin-ketin sog'ib, buzoqlar haqqini qoldirdi.

Bu orada non va somsalar ham qizarib qoldi. Sut quyilgan qozon qopqog'ini yopib, olovni pastgina yoqdi. Shu orada mollari uchun o't yulish maqsadida tomorqa tomon ketayotib, nabirasining yig'lagan ovozi eshildi. Ko'nglida ajib his uyg'ondi: "Bolaginamning bolasi-da, danagidan mag'zi shirin" deb qo'ydi. Kelini bolani tezgina ovutganini nabirasi jim bo'lib qolgandan bildi va ko'ngli taskin topdi.

U bir etak o'tni tomorqadan olib chiqqanda, sut pishib qolgan ekan. Ayol har bir ishni chaqqonlik bilan mohirona bajarar edi. Bir kunlik qiladigan ishini ham miyasida pishitib olgan. Nimadir hayoliga keldi, shekilli bir piyola issiq sutni tezgina ho'plab-ho'plab ichdi-da, ikki dona somsani kavshab, dalaga otlandi.

Hovlisidan uncha uzoq bo'lmagan, fermerdan ijaraga olingan ekinzor tomon qadam tashlar ekan, ko'z o'ngida o'tgan kunlari gavdalandi. Aslida u bolaligini eslamagan kuni yo'q. Eslaydiyu, ichida "Yetkazganingga shukur" deydi qayta-qayta.

Malika ismi-jismiga mos qiz bo'lib o'sdi. Bo'yi yetib qolganida uyini sovchilar bosdi, uni talashganlar ko'p bo'ldi. Taqdirni qarangki, bir devor qo'shnisiga kelin bo'lib tushdi. Yaxshi qiz mahalladan chiqmaydi, deyishadi-ku. Oradan bir necha yil o'tib, yosh oila yangi hovliga ko'chib chiqdi. Ovsini ishga ketganida, Malika qaynotasinikiga borib, uy yumushlariga qarashardi. Qaynota "Umringdan baraka top qizim" deb har kuni qo'lini duoga ochardi. Rahmatli onasi "Oltin olma duo ol", deya bergan saboqlarini hech unutmasdi.

2000-yillar edi. O'rta maktabda jismoniy tarbiyadan dars berayotgan turmush o'rtog'i kasalmandligi tufayli ishga chiqa olmay qoldi. Uch qiz, bir o'g'il yeman, ichaman deb turibdi. O'zi oila kam-ko'sti turmush o'rtog'ining maoshi va 18 sotix yerdan olinadigan daromad hisobiga to'ldirilayotgan edi. Endi ro'zg'orning bir tomonini ko'tarib turgan maosh yo'q. Nima qilish kerak?

Malika tushkunlikka tushmadi. Qat'iyat bilan yeng shimardi. Erining maoshini ham shu ekinlardan topish kerakligini tushundi. Chunki boshqa yo'l yo'q edi. Bor e'tiborini 18 sotix yerga qaratdi. Bir hissa o'rniga ikki hissa ishlab, yaxshigina daromad oldi. Kelasi yili yaqin atrofdagi fermerdan 1 gektar yerni ijaraga oldi.

Ishlagani sayin uning vujudiga kuch quyulib kela boshladi. Bu kuch – oilasiga bo'lgan sadoqati, farzandlariga bo'lgan mehr-muhabbati tufayli edi. Qolaversa, "ishning ko'zini bilganning oshig'i olchi" degani bor gap. Erta bahorda ekilgan kartoshkani iyunda yig'ib olgach, tezda o'rniga bulg'or qalampiri yetishtirdi. Kuzda hosilni dalaning o'zida sotib yubordi. Shu tariqa har xil sabzavotlarni almashtirib ekaverdi. Karam, piyoz, pomidor navbati bilan hosil beraverdi. Hosilni vositachilar ming so'mdan olsa, bozorda o'zi ikki ming so'mdan sotadi. Malika peshingacha dala yumushlarini bajarib, yig'ilgan hosilni oqshomda bozorga yetkazadi...

Pishiqchilik mavsumida kuniga uch martalab bozorga borishga to'g'ri kelardi. Shu zarurat sabab, oiladan ortgan mablag'iga avtomashina xarid qildi. O'g'li hali kichkina edi. Onasiga yordam berish uchun o'rindiqqa qalin ko'rpacha solib, bo'yini balandlashtirib mashinada mahsulotni bozorga olib borardi.

Aslida Malika dehqonchilikni otasidan o'rgangan. Tez-tez maslahat so'rab turadi. Shundanmi ota uyiga borsa, ota-onasi undan daladagi bu ishing bitdimi, u rejang nima bo'ldi, deb so'ragani-so'ragan edi. Otasi vafot etishidan oldin uni chaqirib, "Qizim o'ylab ko'rsam, sendan darding nima, orzuing nima? Salomatliging qanday? deb hech so'ramagan ekanman, faqat dalani so'rabman, xafa bo'lma qizim, nima desam, sening foydang uchun aytganman. Baxtingni bersin, sendan ko'nglim to'q!" deya omonatini topshirdi.

2012-yil. Malikaning turmush o'rtog'i Qashqadaryodan olma chibig'larini keltirdi. Kun sovuq. Tashqarida o'tirib bo'lmaydi, lekin chibig'larni tayyorlamasa,





bo'lmaydi. Malika qalin kiyinib, beliga issiq o'rab ishga kirishdi. Chibig'lar kesilib, har 100 tasi bir dasta qilib bog'landi. Bunday bog'lamlardan bir nechta qilindi. Ro'zg'orga un va moy olish uchun pul zarur edi.

Shu tariqa har yilning erta bahorida Dilmurodjon qo'shni viloyatdan chibig' olib keladigan bo'ldi. Tayyorlangan qalamchalar mahalladagi ko'plab bog'larni sarxil mevalar bilan to'ldirishga xizmat qilmoqda. Har yili yuzlab olma, nok va boshqa mevali daraxtlar uchun payvandtag tayyorladi. Kichik qalamchalar tez – bir yilda ko'karadi.

Ana shu mehnatlari bilan o'sib-ulg'aygan farzandlari hayotda o'rnini topdi. Ikki qizini turmushga berdi, o'g'lini uylantirdi. Kenja qizi boshlang'ich ta'lim yo'nalishida grant asosida o'qishga kirdi. To'rtta nabirasi bor. Turmush o'rtog'ining ham sog'lig'i tiklandi, ayolini yeru ko'kka ishonmaydi, maslahatchi. Hovlisida qo'sha-qo'sha mashina bor. Bir insonga yana nima kerak, bundan ortiq.

Malika ana shunday hayollar bilan dalaga yetib kelganini ham bilmay qoldi. Bu yil pomidordan juda yaxshi hosil olindi. Hammadan barvaqt bozorga yetkazib berilgani uchun daromad ham mo'l bo'ldi...

Malika Suvonova Samarqand viloyatining Tayloq tumanidagi Ilimobod mahallasida istiqomat qiladi. Bir qarashda uning hayot yo'li boshqa qishloq ayollaridan uncha farqlanmaydigandek ko'rinadi. Lekin u sabr-toqat bobida benazir. Eng og'ir paytlarda ham nolimadi, hech kimdan yordam so'ramadi. O'zining kuchiga, oilasiga bo'lgan muhabbatiga suyandi.

– Malikaxonni bolaligidan bilaman, – deydi Ilimobod mahallasi xotin-qizlar faoli Mavluda Xodiyeva. – Juda mehnatkash, to'g'riso'z, izlanuvchan, tinim bilmaydi. Bekor yurganini, birovni g'iybat qilgani yoki tortishganini hech ko'rmaganman. Hamisha band. Dalada, bozorda yoki uy ishlarini qilayotgan holda uchrataman. Orqadan gapirmaydi, insonning yuziga shartta aytadi, qo'yadi. Shunday ayolning izidan baxt er-gashib yuradi.

Malika turmush o'rtog'i bilan maslahatlashib, o'zining ko'p yillik tajribasiga ishonib ma'lum bir muddatlarda dalaga mahalliy o'g'it bilan ishlov beradi. Sepma dorilarni ko'p ham ishlatavermaydi. Qiziqish tufayli yerning bir qismiga tajriba tariqasida

tomchilatib sug'orish tizimlarini o'rnatdi. Bu usulda piyoz yaxshi hosil berdi, lekin kartoshkada o'xshamadi. "Balki uni hali maromida o'rganmagandirman", deydi o'zi.

Kun peshinga yetganda Malika daladan chiqdi. Uyida uni buyurtma asosida tayyorlab qo'yilgan, bir necha tup qalamchalar kutayotgandi. Ularni egalariga yetkazib berishi kerak.

Avgust-Sentabr oylari oralig'ida daraxt tanasi bo'sh bo'lishi hisobiga payvandlash ishlari sifatli amalga oshiriladi. Mevasining sifati pastroq, xashaki navli daraxtlarga xaridorgir meva qalamchalari payvand qilinadi. Ana shunda serhosil nav paydo bo'ladi. Misol uchun, behiga nokni, tutga shotutni, olxo'riga gilosni payvandlash mumkin.

– Yaratgandan boylik so'ramadim, mehr so'radim, oqibat, tinchlik so'radim. Xudoga shukur u hammasini berdi, – deydi Malika Suvonova. – Har yili yerdan 2–3 marta hosil olamiz, halol mehnatimiz ortidan 100 million va undan ko'proq daromad kelyapti. Onam "Noligandan odamga foyda yo'q, oilang bilan bo'l, mehnat qil, ovqatingni halollab ich", deya ko'p nasihat berar edilar. Mana shu o'g'itlarga amal qilib kam bo'lmadim. To'g'risini aytganda, har bir so'm kimgadir qadrsiz bo'lishi mumkin, lekin mehnatim ortidan kelgani uchun menga qadrli.

Malikaning aytishicha, endi turmush o'rtog'i bilan uyning ham, dala ishlarining ham kundalik mas'uliyatini teng taqsimlab olishgan. "Men o'zimni baxtli ekanimni his etib yashayman, chunki men shunday oilam bo'lishini xohlaganman", deya qo'shimcha qiladi u.

Kech kirib, tun pardalari borliq uzra yoyila boshlaganda Malika horib-tolib uyga qaytdi. Kelinining qo'lidan shiringina nabirasini olib, bag'riga bosar ekan, barcha charchoqlar bir zumda unut bo'ldi. "Aslida hayotning lazzati shu" deya lablari pichirladi. Uzoq-uzoqlardan kelayotgan yoqimli qo'shiq ovozidan sergak tordi:

Onadan so'rdilar: "murodingni ayt!"

Ona dedi: "bolalarim ortimda qolsa"...



SAMARQAND VILOYATI

NILUFAR MA'RUPOVA

IQLIM O'ZGARISHIGA MOSLASHISH ILMI

*...Daraxt oralariga yiliga
ikki marta urug' ekib, salat
bargi yetishtiryapmiz.*





Najmiddin va Nilufar oilasi uchun alohida shinam bir uy qurmoqchi bo'lishdi. O'ylab ko'rishsa, uy-joy qurishni o'zi bo'lmaydi. Har oyda jaraq-jaraq pul kelib turmasa, butun boshli imoratni tiklab bo'ladimi? Qurilish materiali falon pul tursa. Qishloqda yashashsa, ish bo'lmasa. O'ylab-o'ylab er-xotinning boshi qotib qoldi. Bundoq o'ylab qarashsa, qishloq odamlari mo'jazgina tomorqadan yaxshigina daromad olishyapti. Nilufarning otasi ham mirishkor bog'bon bo'lsa. "Keling, shu bog'bonlarga izdosh bo'laylik" deyishdi ular.

Yosh oila kattalar bilan maslahatlashib, qishloq chetidagi qarovsiz, tikonzoru yantoqzor bo'lib yotgan tashlandiq yerni olib, obod qilishga bel bog'lashdi. Keyin texnikalar yordamida yer tekislanib, tikonzorlar tozalanib, ekin maydoniga aylantirildi. Biroq tuproq unumsizligi sababli pomidor va kartoshka deyarli hosil bermadi. Shunda oila kattalari yerdan unumli foydalanishning eng to'g'ri yo'li – bog' yaratish degan xulosaga kelishdi. 80 sotix yerda mahalliy besh yulduzli, baxmal olmasi, qolganiga esa o'rik, shaftoli, olxo'ri nihollari ekishga kelishib olindi.

Nilufarxon avvalroq turmush o'rtog'i bilan katta bir bog'da oddiy ishchi bo'lib ishlab, daraxtlar parvarishi bo'yicha tajriba to'plagani shu joyda qo'l keldi. Bog' yaratish ishlari boshlab yuborildi. Mablag' muammosi ularni qiynab qo'ydi. Yosh oila yig'ib qo'ygan jamg'armalarini sarflab bo'ldi hamki, bog' yumushlari tugamas edi.



Yerni tekislash, uy qurish, bog' yaratish jarayonida yosh oila qarzga kirib qoldi. 2012 yil ana shu qarzni qaytarish va bog' yaratishga bo'lgan ishtiyoq sabab er-xotin Rossiya Federatsiyasiga jo'nab ketishdi. Nilufar yaxshigina tikuvchi bo'lish bilan birga, pazandalikdan ham xabardor edi. Bu hunarlar olis yurtida unga qo'l keldi. Sexda tikuvchilik qilib, kechqurunlari non, somsa, kabi pishiriqlarni tayyorlab, bozorga olib chiqardi. Bir marta mazasini totgan xaridor doimiy mijozga aylanib qolar: "Nina, seni qo'ling juda shirin-da, boshqacha tayyorlaysan," deya muntazam xarid qilishardi.

Lekin musofirlikda ishlash oson emasdi. Nilufarning aytishicha, "Nafas olish ham pul. Har oyda "patent"ga to'lash, yotoqxonaga pul berish kerak. Gohida ko'chada militsiya ushlab ketadi, eh-he to'lovlarning oxiri ko'rinmaydi. Gohida xarajatlar shu qadar ko'payib ketadi-ki, ishlab topilgan puldan foyda qolmaydi. Yaxshisi uyga qaytib, bog'da ishlaganimiz yaxshi-ku," deya yosh oila ikkinchi yili ortga qaytishdi.

Kelib ko'rishdiki, ota-onasi oyma-oy yuborilgan puldan qarzni to'lab, qolganiga bog' yaratishni ham boshlab yuborishgan ekan. Oilaning ikki farzandi – Shaxboz va Anisjon ham bu vaqtda 14-15 yoshda bo'lib, bog' yaratish ishlarida bobolariga yaqin ko'makchi bo'ldilar.

Shunda kelgusida bog' ham, farzandlari ham unib-os'ishini istab, yangi boqqa "Shaxboz va Anisjon bog'lari" deya nom qo'yildi. Dalani bir chetida yashab, ishlash uchun kichik uy qurilgan bo'lib, oila shu uyda yashab, bog'ni yashnatishni boshlab yubordi.

Nilufarni otasi har yili bahoru, kuzda mevali ko'chatlardan bir quchoq olib kelar, qaysi daraxt qurigan yoki hosili kam bo'lsa yangilanardi. Asta-sekinlik bilan bog'da



eng sara, mo'l hosil beradigan daraxtlar soni ortib bordi. Yangi ko'chatlar orasida yetishtirilgan sabzavot ekinlari oila daromadini oshirib bordi.

Yosh nihollar endi-endi voyaga yetayotgan paytda yerdan unumli foydalanish uchun qator oralariga kartoshka va sabzavot ekinlari parvarishlanib, yaxshigina hosil olindi. 80 sotixda ekilgan olmazordan har yili o'rtacha 10 tonna meva terib olindi. Uning 6 tonnasi olma sharbati ishlab chiqaradigan zavodga topshirildi. Qolgani esa bozorga chiqarildi. Hozirgi kunda daraxtlar katta bo'lib, soyasi tushayotgani bois qator oralarida makkajo'xori va yo'ng'ichqa ekilib, yiliga 2-3 marta chorva uchun ozuqa tayyorlanmoqda.

2017-yilda Ma'rupovlar oilasi bog' yaratish ishlarini yakunlab, 20 sotixda issiqxona barpo etish harakatini boshladi. Hozirda sinov uchun ekilgan 4 sotix yerda limon parvarishlanmoqda. Issiqxona va bog' oralariga ishlov berish maqsadida mini traktor va motokultivator sotib olishdi.

– Issiqxonamizda pechka qo'yilmagan, uni gaz yoki ko'mir bilan isitmaymiz, – deydi Nilufarxon. – Barchasi tabiiy usulda isitiladi, buning uchun 2 metr chuqur qazib, limon ko'chatlarini ekdik. Yerni kavlab, xandaq qazib, keyin limon eksa, sovuq urmas ekan. Haqiqatan ham, bu usulda nisbatan issiqlik kam sarflanar ekan. Issiqxona





qurishda xandaqlarni shimoldan janubga yoki shimoli-sharqdan janubi-g'arbga qaratib qurish maqsadga muvofiq. Bunda limon o'simligiga quyosh nuri kun davomida bir tekis tushadi. Har bir daraxt

to'liq hosilga kirgan davrda limonzorimizdan 400 kilogramm atrofida hosil ola boshladik. Daraxt oralariga yiliga ikki marta urug' ekib, salat bargi yetishtiryapmiz.

2023-yilning qishi nisbatan sovuq kelib, anomal sovuqda limonzor orasiga ko'mir yoqib, daraxtlarning asosiy qismi saqlab qolindi. Bog'larni anomal sovuqdan saqlash uchun esa tutunlatish usulidan foydalanildi. Tutun nim quruq narsalarni yoqish yoki tutun parda hosil qiladigan "shashka"larni tutatib hosil qilinadi. Natijada qisman sovuq urgan bo'lsa-da, bahorda ko'chatlarda yondosh navdalar o'sib chiqdi.

Keyingi yillarda Yer yuzida, jumladan, O'zbekistonda yuz berayotgan iqlim o'zgarishi biologik xilma-xillikka salbiy ta'sir ko'rsatishi, hosildorlik va uning sifatiga ziyon yetkazishi mumkinligiga anomal sovuq misolida yana bir karra guvoh bo'ldik.

Nilufarni aytishicha, yoshligidan dalada mehnat qilib, bog'da meva terib katta bo'lgan bo'lsa-da, avvallari bunday sovuqning guvohiga aylanmagan. Demak, kelgusida tabiiy isitiladigan issiqxona maydonlarini yanada kengaytirish zarur ekan.

– Oilada beshta opa-ukamiz, – deydi Nilufarning kenja singlisi Navro'za. – Opam hammamizdan chaqqon. Tartibli ekanligidan hamma ishga to'y-hashamga ham, dala ishlariga ham ulguradi. Bir joyda tinch turganini ko'rmaysiz. Hali qarasangiz yerni chopib, baqlajon, bulg'or qalampiriga ishlov bersa, bir pastda bozorda savdo qilayotgan bo'ladi. Issiqxonadagi limonzorga ko'kat ekib olishga ham ulguradi. Har bahorda 10 quti pilla boqqanini aytmaysizmi.

Nilufar o'tgan yil "Agrobank" ATB va Qishloq xo'jaligi vazirligining "Fermerlar maktabi" loyihasida qatnashdi. Mashg'ulotlar davomida agrar tarmoqda tajribasini oshirib, ancha-muncha yangiliklarni o'rgandi. Misol uchun hasharotlardan tezroq qutulish uchun dorilar dozasi kuchaytirish foydadan ko'ra ko'proq zarar keltirar ekan. Agar bug'doyga ko'p o'g'it berilsa, hosilning sifati buzilar ekan. Shu tariqa yerni o'g'itlash, tuproqni ekishga tayyorlash borasidagi bilimlarini boyitib, xatolarini tushundi. Fermer xo'jaligida har gektar yerga 10 tonnadan ortiqroq mahalliy o'g'it bilan ishlov berib kelinmoqda.

Maqsadlar ortidan olg'a intilishdan tolmaydigan Nilufar Ma'rupova "fermerlar maktabi"da olgan bilimlari asosida gilos yetishtirmoqchi. Gilos navlarining hosili nisbatan kamligi va hosil berishiga ko'proq vaqt kerakligi qo'lini tutib turgandi.

Endi esa gilos ekish va yetishtirishda resurs tejovchi innovatsion texnologiyalardan foydalanish hosildorlikni oshirishini bilib oldi. Odatda 8-10 tonna o'rniga ushbu texnologiyalarni qo'llash tufayli 12-13 tonna hosil olsa bo'lar ekan. Albatta, tomchilatib sug'orishni qo'llash, kasallik va zararkunandalarga qarshi o'z vaqtida kurash tavsiya etiladi. Ushbu yondashuv bilan mineral o'g'itlar miqdori kamayadi. Payvandlash orqali ham hosildorlikni oshirish mumkin ekan. Buning uchun bog'dagi mavjud olxo'ri tanasiga gilos qalamchalari payvand qilinsa, ikki yildayoq yirik va xushta'm hosil olish mumkin ekan. Yo'qsa, buning uchun 5-6 yil kerak bo'ladi.

Nilufar bog' chetidagi nordon olcha daraxtlariga gilos qalamchalarini payvand qilishni shu kuzdan qoldirmay bajarish harakatida. O'zbekistondagi sarxil mevalar orasida gilos o'zining xushta'mligi va inson salomatligiga foydasi bilan bozorlarda juda xaridorgir. Mamlakatda 337,3 ming gektar gilos bog'lari mavjud bo'lib, asosiy qismi aholi va fermerlarga tegishli. Gilos navlari orasida "Valeriy Chkalov", "Vosxod", "Revna", "Napoleon", "Stella" navlari ancha mashhur.

Ota-onasining o'g'itlari orasidan qulog'ida qolgani "Nima eksang, ko'pni rizqini, barakasini so'ra" nasihatini bu jarayonda ham qo'llamoqda. Ana shu duo ortidan bog'idan mo'l hosil kelishiga juda ishonadi. "Ota-onam 40 sotix yerda mehnat qilib, shuni ortidan 5 nafar farzandni tarbiyalab, voyaga yetkazdi. Biz ham mehnatga o'rganganmiz. Katta bo'lsam, men ham ota-onam yo'lidan boraman", deb orzu qilardim va bu amalga oshdi.

Bog'bon ayol yurtimiz bozorlari uchun yangilik bo'lgan, golubika yetishtirmoqchi. Mevasining har kilogrammi 3-10 dollar bo'lgan golubika olti yildan keyin hosildorligi har bir tupga 5 km.gacha yetadi. Bir gektar maydonga kamida 3000 tup buta ekiladi. Besh-olti yildan keyin gektaridan 1,5 tonna atrofida golubika yig'ib olish orqali ulgurji narxini taxminan 3 dollardan hisoblaganda, bir mavsumda 45 ming dollar daromad olish mumkin. Ushbu meva qanday qilib tezroq hosil berishi borasidagi ma'lumotlarni o'rganmoqda.

Nilufar yaxshigina tikuvchi, tikuv sexi ochib, ko'rkam liboslar tikish keyingi orzularidan biri. Qizi va kelini boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgani bois oila xususiy bolalar bog'chasi ochishni ham rejalashtirgan.

Aytmoqchi, maqolamiz boshida Nilufarning uy qurish uchun mablag' topa olmagani, qarzga botgani, xorijga ketgani haqida hikoya qilgan edik. Bugun esa o'z qo'llari bilan yaratgan bog'ning "mevalari"dan bahramand. Uy-joy, mablag', qo'yingki, to'kis yashash uchun hamma narsa badastir. Samarqand viloyatidagi "Shaxboz – Anisjon bog'lari" ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi rahbari Nilufar Ma'rupovaning hayotiy falsafasi ham "Bog' yaratgan yetar murodga" so'zlaridan iborat.

SIRDARYO VILOYATI

AZIZA SAIDQULOVA

PARRANDACHILIK – DAROMADLI VA ANCHAYIN NOZIK SOHA

*...Topganim ro'zg'orga uchma-
uch yetib turar, nimadir qilib,
farovon yashash mumkinligi
haqida ko'p o'ylab yurardim.*





O'zbekistonda parrandachilik mashaqqatli, ammo serdaromad soha ekanini hamma biladi. Shuning uchun ham bu sohaga yetti xazinaning biri, deb ta'rif beriladi. Gapning indallosi, bugun dunyo aholisi o'sib, oziq-ovqat xavfsizligi dolzarb masalaga aylangan, iqtisodiy qiyinchiliklar ko'plab davlatlar iqtisodiyotiga jiddiy zarar yetkazayotgan bir sharoitda aholiga parhez taom – tovuq go'shti yetkazib berishning ahamiyati beqiyos.

Tovuq-beozor, yaxshi qarasangiz xazinaning o'zi. Eng qulay tomoni uy sharoitida, xonadonning bir burchagida tovuq parvarishlab, oila byudjetiga yaxshigina daromad keltirsa bo'ladi. Bunga Sirdaryo viloyatining Guliston shahridagi Ulug'obod mahallasida istiqomat qiluvchi Azizaxon va Nodirbek faoliyatini misol sifatida keltirsa bo'ladi. Ular 13 yil avval xonadonida 200 bosh jo'ja boqib, oilaviy biznesni boshlab yuborishgandi.

- Jo'jalarni qo'shnimizdan sotib olgandik, – deydi Azizaxon Saidqulova.
- Bu vaqtda ikki xonali uy solib, endigina ro'zg'orimizni alohida qilib chiqqandik. Uchta farzandimiz bor. Bilasiz, yosh oilaning kami hech tugamaydi.

Turmush o'rtog'imning kirakashlikdan topgani ro'zg'orga uchma-uch yetib turar, nimadir qilib, farovon yashash mumkinligi haqida ko'p o'ylab yurardim. Shunda "bir tovuq boqib ko'ray-chi, daromadi qanday bo'lar ekan" degan qarorga keldim. Hovlimizdagi oshxonaning bir qismini qog'oz quti bilan ajratib, jo'jalar boqa boshladim. Boshida uncha qiziqmagan edim. Keyinchalik bu beozor jonivorlarga bog'lanib qoldim. Tovuqlardan kuniga 160-180 ta tuxum olib, 200 so'mdan sota boshlagach, mazkur biznes istiqbolli ekanini tushunib yetdim. Rosti, ro'zg'orimizga baraka kirdi.

Biz bu jo'jalardan baraka topdik. Lekin tashvishi juda og'ir ekan. "Chidaganga chiqargan" deyishadi-ku! Hech qanday daromad o'z-o'zidan kelmaydi. Eng muhimi, sabr. Sabrli odam albat, murodiga yetar ekan. Jo'jalar ham go'dakdek nozik bo'lar ekan. Ularni to'rt oy davomida mehr bilan avaylab parvarish qilish kerak. Zarur vitaminlarni vaqtida, ovqatni kuniga uch mahal berasiz, emlatasiz. Misol uchun 18 kunlikda belgilangan vaktinani olmasa kasalga chalinadi. 4 oydan keyin bitta-ikkita tuxum qo'yadi.



6 oyda foyda ko'ra boshlaysiz. Bu vaqtda har soatda tuxumlarni yig'ib olish kerak. Tovuqlarni har ikki yilda yangilab turish lozim. Sohani ichida yurganingizdan keyin hammasini o'rganib olar ekansiz.

Faoliyatimizni kengaytirib, uyimizning orqa tomonida maxsus bino qurib, sim kataklarda tovuqlarni parvarishlashni yo'lga qo'ydim. Avvaliga 500 boshga, keyinchalik yana 500 bosh tovuqqa joy tayyorladik. Hozirgi paytda ikki ming bosh parrandaga mo'ljallangan tovuqxonamiz bor.

Yosh oila o'z tajribasi orqali anglab yetdiki, go'sht yo'nalishidagi parrandalarni boqish osonroq va foydasi ham ko'proq ekan. Oila 2014 yilda broyler – tez yetiladigan go'shtdor jo'ja parvarishlash evaziga yaxshigina foyda ko'ra boshladi. Parrandalarni nobud bo'lishdan asrab, parvarishlashni Azizaxon, tovuq go'shtini xaridorga o'z vaqtida yetkazib berishni esa Nodirbek o'z zimmasiga oldi. Hamjihatlik yaxshi-da, ishning yaxshi taqsimlangani o'zining ijobiy samarasini berdi. Ular durustgina biznesmenga aylanishdi. Hatto buni o'zlari ham sezmay qolishdi. Bundoq qarashsa, hayoti izga tushib, qo'lida jaraq-jaraq pul o'ynayapti. Shunga aytishadi-da, "mehnatning tagi rohat" deb.

Ma'lumotlarga ko'ra, inson sog'lom bo'lishi uchun bir yilda o'rtacha 10 kilogramm parranda go'shti va 100 dona tuxum iste'mol qilishi zarur. Chunki parhez hisoblanadigan bu mahsulotlar inson organizmi uchun juda foydali. El uchun foydali ish qilish esa, odamga zavq beradi, g'ayratini oshiradi. Shuning uchun ham Aziza odamlardan "baraka topishsin, shu oila" degan gapni eshitganida qilayotgan ishidan mamnun bo'ladi. Oziq-ovqat xavfsizligi nima ekanini u yaxshi anglaydi. Yurtda har bir oila tadbirkor bo'lsa, tanqislik, yetishmovchilik kabi balolar bizdan uzoqlashadi. Buning uchun har bir sohaning sir-asrorini puxta bilish kerak deydi.



– Parhez taomlar tayyorlanadigan broyler go'shti olish uchun jo'ja qisqa muddatda yetarli darajada semirtiriladi. Buning uchun og'ir vaznli va tez yetiladigan "Ross-308", "Kobb", "Xabbord" broyler krosslari, "Kornish", "Oq plimutrok", "Nyugempshir" kabi ser-tuxum va sergo'sht zotli xo'roz hamda tovuqlarning chatishishidan olingan duragay jo'jalar yaxshiroq, – deydi Aziza. – Broyler jo'jalarining tirik vazni 38–42 kunda 2,3–2,5 kilogrammga yetadi. Go'sht uchun yetishtirilgan broyler jo'jalar texnologiya bo'yicha 1–2 kun ichida so'yilishi kerak. Bu fursat cho'zilib ketsa, ular vaznini tez yo'qotadi.

Parrandalarni 30 kunligida ham sotsa bo'ladi, agar buyurtma bo'lsa. Bu vaqt-da ularning og'irligi 1,2 kg bo'ladi. Bunday vazndagi parrandalarni oshxona va kor-zinkalar xarid qiladi. Negaki, bu grill tayyorlashga qulay. Ba'zi buyurtmachilar 3 kilo-gramm og'irlikdagi tovuq so'raydi. Qancha og'ir va bozorda narx baland bo'lsa, foyda ham shuncha ko'p qoladi. Misol uchun, shu yil ro'za oyi va to'ylar kam bo'lgan mav-sumda parranda go'shti 20–25 ming so'm atrofida bo'ldi. To'ylar mavsumida esa kilosi 30 mingdan baholanmoqda.

Oila buyurtma asosida kuniga o'rtacha 150–200 bosh parrandani ulgurji narxlarda bozorga yetkazib beradi. Bu esa oila a'zolarini tongda barvaqt turishi va chaqqon harakat qilishini talab etadi. Ana shunda aniq hisob-kitoblarga asoslangan oila tovuqni halollab so'ygandan keyin, patlarini tozalaydigan uskuna xarid qildi. Endi uskuna bilan boshqa parrandachilarga ham xizmat ko'rsatilmoqda. Bitta tovuqni to-zalash bahosi 1ming 200 so'm.

Albatta, bu jarayonlar qo'shimcha ishchi kuchini talab etadi. Oila a'zolari ul-gurmagan vaqtlarda 3–4 nafar qo'shnilarni yordamga chaqirib, ularga kunlik ish haqi to'laydi. Buyog'ini so'rasangiz, halol mehnat bilan topilgan puldan ro'zg'orga baraka kirdi. Uy-joylar ko'rkam bo'ldi. Farzandlarining shartnoma pullarini o'zlari qiynalmay



to'lashmoqda. Hozirgi paytda to'ng'ich farzandi Komiljon Toshkent Moliya universitetida, Hasanboy esa Buxoro tibbiyot institutida shartnoma asosida ta'lim olmoqda. Husanboy va Nozimaxon ota-onasiga yordamchi. Aziza huv ro'zg'ori tang ahvolda qolgan kunlar va bugungi hayotini solishtiradi va Allohga shukrona keltiradi. Hammasi halol mehnatdan, tinib-tinchimaslikdan va bir maqsad yo'lida qat'iy harakat qilishdan ekanini xayolidan o'tkazadi.

Hozir oila oyiga 10-12 million so'm foyda olmoqda. Bayram kunlari bor oylarda, mahsulotga talab ortganda daromad miqdori yanada oshadi. Shunga aytishadi-da "Foyda bilan zarar bir xurjunning ko'zida", deb.

2015-yil oilada uzoq kutilgan qiz farzand dunyoga keldi. Oilaga quvonch va baraka olib kelgan qizaloqqa Aziza ertaklar, ibratli hikoyatlar, qalbgga taskin beruvchi o'gitlar aks etgan kitoblar o'qib berishga odatlandi. Ana shu kitoblar ta'sirida Nozimaxon onasining yaqin yordamchisi, maslahatchisi bo'lib voyaga yetmoqda. Uning biyron-biyron savollariga ba'zida oliygohda tahsil olayotgan akalari ham javob topolmay qoladi. Oilada kitob bilan do'stlashib, o'qib-o'rganish, bir-biriga kitob sovg'a qilish an'anaga aylangan.

– Azizaxon kelin bo'lib tushganda biz bilan ikkita ovsini ham yashardi, – deydi qaynonasi Gulsinoy Sayidqulova. – Xudoga shukur oilamiz katta bo'lsa-da, bir hovli-da 11 yil birga ahil-inoq yashaganmiz. Kelinlarimni hammasi og'ir, bosiq. Aziza mehribon, mehnatkash, o'ziga yarasha shaddod-sho'x. Qilaman, degan ishini albatta, qiladi. Gohida qayerdasan deb so'rasam "Bunyodbek Saidovni kontsertidaman", deb hazillashadi. Kelinim yaxshi qo'shiq tinglashni xush ko'radi. Uning bu fazilatini men juda qadrlayman. Qo'shiqqa oshno qalb ezgu ishlarga qodir.

Aziza va Nodirbek har safar tayyor bo'lgan parrandalarni bozorga yetkazib bergandan keyin, qafaslarni tozalab, barcha moslama va inventarlarni tashqariga chiqarib, xonalarni dezinfeksiya qiladi. Undan keyingina navbatdagi jo'jalarni joylashtiradi. Bunda parrandalar vazniga qarab ko'p qavatli bo'lmalarga ajratilgan qafaslarda boqiladi. Har ishda tozalik, orastalikning bo'lgani yaxshi-da. Tozalik bor joyda baraka bo'ladi, deb bejiz aytilmagan.

Ana shu ishlar bilan andarmon bo'lib, bundaq o'ylab qarasa, 13 yildan buyon bozorga mahsulot chiqaryapti. Eh-he, qanchadan-qancha oilalar dasturxonni ustida "shu taomlarni yetishtirganga rahmat" degan duolarni aytmoqda. Bozor rastalari uning qo'lida boqilgan parhez taomlar bilan bezanmoqda. Demak, u tadbirkor sifatida elu yurtning og'irini yengil qilyapti. Aslida baxt deganlari shu emasmi?

Azizaxonning xayolida "Bir tovuqqa ham don, ham suv kerak" degan maqol keldi. Mayingina jilmaydi va soatiga qaradi, tovuqlarga don beradigan vaqt bo'libdi. Biznesining rivoji, daromadlarining barakasi aslida shundan boshlangan edi-da.

SURXONDARYO VILOYATI

IQBOL MO‘MINOVA

BUGUNGI FERMER TADQIQOTCHI, IQLIMSHUNOS,
IQTISODCHI VA INNOVATOR BO‘LISHI KERAK

*...Sen kelajakda mening ishimni
davom ettirasan. Hozircha kichikroq
bog‘ yaratib, bog‘dorchilik bilan
shug‘ullanib ko‘r.*





Har bir inson baxt uchun dunyoga keladi. Baxt qasrini qurmoqchi bo'lgan ayol ish o'rinlari kam, iqtisodiy resurslar yetarli bo'lmagan, taraqqiyotdan ortda turgan olis qishloqda yashasa nima bo'ladi?

Sirasini aytganda, oddiy qishloq ayoli ham ko'ngildagi orzu-niyatlari-ga erishishi mumkinmi?

Albatta, mumkin. Buning uchun iroda va intilish bo'lsa kifoya. Hayot-ga muhabbat, mehnatga havas, kasbga mehr, o'ziga ishonch maqsadga erishish yo'lida unga suyanch bo'ladi.

Surxondaryo viloyatining Uzun tumanida istiqomat qilayotgan Iqbol Mo'minova misolida olis qishloqda nafaqat bekamu ko'st yashash, balki ko'pchilikka foyda keltiradigan katta ishlarni ham amalga oshirish mumkin-ligini ko'rish mumkin.

Uning bolalik yillari Uzun tumanining Serharakat qishlog'ida o'tgan. 1973 yilda tug'ilgan Iqbol Mo'minova maktabni tamomlagach hamshiralik o'qishini tanladi. Turmush qurib, 2 nafar farzand ko'rganda hayotining ba-horida – 28 yoshida turmush o'rtog'idan ajraldi.

U eri bilan birga osoyishta turmushidan, hatto uyidan ham ajraldi. Ular ikki farzandi bilan erining ota uyida istiqomat qilardi. Turmushning zildek og'ir tashvishlari gardaniga tushgan qishloq ayoli taqdiridan nolimadi. Shu kundan boshlab hayotida katta burilish, o'zgarish yasashga kirishdi.

O'zi yashab turgan uyni rahmatli erining yaqinlariga tashlab ketdi.

Ayol kishi eridan ajralib qolgach, eng birinchi suyanchig'i uning otasi bo'ladi. U maslahat olish uchun otasining uyiga bordi.





Umr bo'yi dehqonchilik bilan shug'ullangan ota qat'iy so'zlari bilan qizining qayg'ularini tarqatdi va mushkul ahvolda tushib qolgan farzandining imkoniyatlarini chamalab to'g'ri yo'lni taklif qildi.

– Sen kelajakda mening ishimni davom ettirasan. Hozircha kichikroq bog' yaratib, bog'dorchilik bilan shug'ullanib ko'r.

Ikki nafar go'dagi bilan yolg'iz qolgan 28 yoshar juvon uchun bu taklif juda g'ayritabiiy eshitildi va u dastlab mazkur taklifni qabul qilishga jur'at eta olmadi. Oq xalat kiyib shifoxonada yurgan hamshira uchun, chindan ham, bu taklif o'rinsizdek edi.

Ammo hamshira ko'pligidan navbatchilikka boradigan kunlari juda kam, buning natijasida maosh ham barakasiz edi. Eri vafot etgandan so'ng ham ota, ham ona vazifasi zimmasida bo'lgan ayolga hamshiralikdan keladigan daromad yetmas edi.

Bog' yaratish hamma davrlarda ham eng yaxshi amal sanaladi. U ham faoliyatini kichik bog' yaratishdan boshladi. Ya'ni otasining taklifi bilan 8 gektar yer olib bog'dorchilik fermer xo'jaligini tuzdi.

Undan avvalroq esa otasi bergan bir parcha yerga ikki xonali omonat uy qurib, ya'ni o'z uyini qurib, bolalari bilan mustaqil hayotini boshladi. Hozir uning ikki qavatli zamonaviy uy-joyi, mashinasi, bir nechta ishxonasi, baxtli bo'lish uchun hamma narsasi bor.

Ammo o'shanda, 28 yoshida umid va orzudan bo'lak narsasi yo'q edi.

Bog'dorchilikda daromad bir yilda bir marta hosil pishib yetilganda keladi. Pul esa kunda kerak. Shundan so'ng tadbirkorlik faoliyatiga qo'l urdi. Uzun tumanida

yo'lovchi tashuvchi uyushma tashkil qildi. Yangi tuzilgan uyushmaning daragini eshitgan kirakash shofyorlar mashinasi bilan kelib yoppasiga uyushmaga a'zo bo'la boshladilar. Chunki o'sha paytda shunday uyushma juda zarur edi. Tez orada uyushmaga a'zo bo'lgan haydovchilar soni 500 nafarga yetdi.

Halol mehnat tezda samarasini berdi. Iqbol opaning ishlari yurisha boshladi. O'g'li maktabga, qizi bog'chaga qatnay boshladi.

2020 yilga kelib uning hayotida juda katta o'zgarish bo'ldi. U sertashvish yumush bo'lgan paxta va g'alla yetishtiruvchi fermer xo'jaligi tuzishga bel bog'ladi. Bunga endi otasining vasiyatdek jaranglagan so'zlari sabab bo'ldi.

O'shanda otasi 91 yoshga kirgan, tez-tez sog'lig'i pand berayotgan damlar edi. Bir kuni otasini ko'rgani borgan edi.

– Mening ishimni qabul qilib oladigan payt keldi, qizim, – dedi otasi. – Sen bu ishdan aslo cho'chima, to'miringda polvonlar va chavandozlar qoni oqyapti. Polvonlar esa har qanday ishni bersang, eplab keta oladi.

Iqbol opa bu gapga indamay qo'ya qoldi. Axir yolg'iz ayol boshi bilan paxtachilik va g'allachilikni qanday eplaydi. To'g'ri, bolaligidan otasining kasbi tufayli dalada ishlab ulg'aydi. Fermerlikning dastlabki yillarida bugungiday yollanma ishchilar yo'q, asosiy ishlarni fermerning oila a'zolari bajarar edi. Ular oilada 9 nafar farzand edilar. Aka-ukalari, opa-singillari qatorida u ham dalada xo'p ter to'kib ishlagan paytlari bo'lgan. Eslaydi, 10 yoshidan boshlab otasi unga ham boshqa farzandlari kabi chopiqda 5 gektarlab yerni bo'lib berardi. O't chopib, paxta terib katta bo'lgani bilan bu ishning hammasining mas'ulligini zimmasiga olishga uning yuragi betlamadi.

Shuning uchun otasining "Tuman hokimligiga borib ariza ber, fermer bo'lasan" degan taklifiga, "Uddalay olmayman" deb qisqagina javob berdi.

– Ha, mayli, yana bir yaxshilab o'ylab ko'r, – dedi otasi.

Hayotda kutilmagan hodisalar yuz berib, inson taqdirini butkul boshqa o'zanga solib yuborishi hech gap emas. Bir necha kun o'tgach, otasi vafot etdi. Uning qiziga aytgan takliflari endi go'yoki bir vasiyatga aylangandek bo'lib qoldi.

Shu-shu Iqbol Mo'minova ishlab chiqarishga qadam qo'ydi. 2020 yilda 46 gektar yerda fermer xo'jaligi tuzib, birinchi yiliyoq rejani bajarib, daromad ko'rdi.

Kelgusi yili tenderda qatnashib, yana 30 gektar yerni yutib oldi va 76 gektarlik katta xo'jalikni yurita boshladi.

Yoshlik chog'ida eridan ayrilib, qolgan ayolning tashvishlarni yengib, odamlarni ish bilan ta'minlaydigan, ko'pga nafi tegadigan insonga aylanish tarixi ana shunday bo'lgan.

Keling, Iqbol opaning bugungi kunga kelib, ayni paytda qancha odamlarni ish bilan, demakki daromad bilan ta'minlab turganiga bir nazar tashlaylik.

U rahbarlik qilayotgan uyushmada 20 kishi ishlaydi. 33 million so'm kredit olib ochgan tikuv sexida esa 11 nafar qiz ish bilan band. Unga hozirda opaning qizi rahbarlik qiladi. O'zining fermer xo'jaligida 21 nafar ishchi, hosil pishib yetilgan mavsum chog'larida esa 80-100 kishi ishlaydi. Oddiygina qishloq ayolining erishgan bunday natijasi ko'ngilni osmon qadar yuksaltirib yuboradi.

Bularning hammasiga u 17 yillik tadbirkorlik-fermerlik faoliyati davrida erishdi.

Holbuki, dalada kasallikdan yoki suvsizlikdan qurib ketayotgan g'o'zalariga boqib yig'lagan paytlari ham bo'lgan. 20 gektarlab dalani buzib ekib, takroriy paxta ekan kunlarida oylab dalaning boshidan beri kelmagan. Ko'rpa-to'shagi, qozontovog'ini olib ko'chib borgan. Iqtisodiy qiyinchilik paytida maosh berolmaganda ishchilari tashlab ketganda gektarlab paxtazorga o'spirin o'g'li bilan birga kecha-yu kunduz suv qo'ygan paytlari ham hamon esida turibdi, aslo o'chib ketmaydi. Uch marta operatsiya bo'ldi. Bularning barchasi uni yenga olmadi, qaytaga kuchiga kuch qo'shdi, tajribasini oshirdi.

Mehnatidan baxti topgan tadbirkor ayol Iqbol Mo'minova bilan uchrashib suhbatlashsangiz, dilingiz yayraydi. O'zingizni ham buyuk ishlarga qodir chog'laysiz.

– Jamiyatda ayol bo'lishning o'zi qiyin, yaxshi inson ham bor, yomon odam ham bor, – deydi Iqbol opa. – Ishni eplay olmay qolsang yoki qiyinchiliklarga duch kelsang, mehnat qilayotganingga ta'na qilishadi. Go'yoki ayol kishi faqat yengil ishda yurib yoki uyda o'tirib, farovon hayotni kutib o'tirishi kerak, degandek mulohazalarini ayamasdan yuzingizga aytishadi.

Ba'zan ayol kishiga buncha ko'p ish jarayonini ochish, nima zaril, deyishadi. Qishloq xo'jaligi xodimlarining tadbirlari, yig'ilishlarida 300-400 nafar erkaklar safida bir o'zim bo'laman. Ukam ham fermer, 30 gektar paxtachilik yeri bor. Shunday paytlarda ba'zi birovlar ukamga ta'na qilib aytisharkan: "Opangga nima zarur qishloq xo'jaligi sohasida. Oq xalatini kiyib yursa, nima qiladi", deyisharkan.



Axir uyda och qolsam birov menga bir non bermaydi, bir ko'ylak tutqizmaydi. Ukaning, akaning bergani nima bo'ladi. O'zingda bo'lmasa qiyin-da. Xudoga shukr, ishlab kam bo'lmadim. Zaxiram o'zim bilan, birovdan non so'ramayman. Gohida o'zimga ham aytib qolishadi: puling bor, oq xalating bor. Uying bor, uyda o'tir, deydi. Dalani nima qilasan, buncha issiqda o'zingni

kuydirib nima qilasan, deydilar. Ammo men uchun zaminning, ona yurtning, tuproqning mehri bo'lak. Keng joyda qiynalsam ham ko'nglim yayraydi.

Ko'pincha komissiyalar borib qolishadi tekshiruvga. Oyoqni yechib loyda yurgan bo'laman. "Opa, sizga zarilmi, topshirib yuborsangiz bo'lmaydimi?" deyishadi. Keyin kulaman. Hazilga olaman. Unaqa gapni aytib mening ko'nglimni cho'ktirmanglar, deyman. Gohida achchiq qilaman. Nima qilay yerga mehrim bo'lakcha-da.

Bu yil ham yana yerga mehrim kuchli ekanligini isbotladim. Bir yarim milliard so'm kiritib, 31 yilga ishlash huquqi bilan yer oldim. To'g'rirog'i, tenderda yutib oldim. Endi nima deyisharkin, deb kulaman.

Iqbol opa bilan suhbatlashar ekansiz, kayfiyatingiz ko'tarilayotganini, sizga ham qandaydir bir kuch quyilib kelayotganini sezasiz. Suhbat davomida bu oddiygina qishloq ayoli xarakterining yangi qirralarini kashf eta boshlaysiz.

– Yana bir xobbim asalarichilik, – deydi yana opa gapini davom ettirib. – 20 quti asalarim bor. 200 – 300 kilogramm asal olaman. Ro'zg'ordan ortganini bir qismini qarindosh-urug'larga hadya sifatida tarqataman, qolganini sotaman.

Iqbol opaning kelgusi rejalarini eshitsangiz, bu ko'rinishda oddiy, ammo qalbi daryo, serg'ayrat insonga hurmatingiz yanada oshadi.

Qariyalar, yolg'iz insonlar uchun pansionat qurmoqchi ekan. Ularning duosini olsam, deydi. Yana bundan tashqari qishloq xo'jaligi sohasida tumanda yangilik qilib, biogumus ishlab chiqarish niyati bor.

– Biogumus ishlab chiqaradigan chuvalchang boqib ko'paytiraman, – deydi opa. – Kimyoviy o'g'itlar yerga ham, iste'molchi insonga ham zararli, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tishimiz kerak. Bu borada dala uchun biogumus foydali.

Yana tadbirkorlik yo'lini davom ettirib, quyosh panellari o'rnatish niyatida ekanlar. Bu qishloq xo'jaligi yumushlari to'xtagan qish faslida ham turgan-bitgani daromad bo'ladi. Ortiqcha elektr energiyasini sotaman, deydi u.

Opa halol mehnatdan o'z baxt qasrini qurdi. Oilasi ham namunali va baxtli oilalar toifasiga kiradi. Qizini uzatgan, kuyovi bilan qizi ahil yashashmoqda, 2 nafar farzandi bor.

Iqbol opa endi o'g'lim uylanib olsa deb niyat qilib yuribdi.

Elda katta obro'si bor. Tajribasini yoshlarga o'rgatishdan charchamaydi. Uzun tumanida o'zining munosib o'ni va hurmati bor.

Yurtimizda shunday ayollar ko'paysin, deymiz-da.

SURXONDARYO VILOYATI

GO‘ZAL MISIROVA

BANDIXONLIK KELIN
YOXUD G‘AYRATIDAN O‘T CHAQNAGAN QIZ

*...Sevimli mashg‘uloti bor
bo‘lgan xonadonda janjal,
ortiqcha gap-so‘zlar bo‘lmas
ekan*





1990-yilda tavallud topgan bandixonlik Go'zal Misirova bolalik yillarini eslaganda ota uyida mehnat quchog'ida katta bo'lganini alohida ta'kidlaydi.

Bu tajribalar unga kelgusida o'zi ro'zg'or tutganida juda-juda qo'l keldi. Farovon hayotini qurishida ko'mak berdi.

Beg'ubor bolalik chog'lari Surxondaryo viloyatining Bandixon tumani-da o'tdi. Cho'l sharoiti bo'lgani uchun bu yerda ro'zg'or tutish boshqa joylar-ga qaraganda ancha mashaqqatliroq. Qachonki oila a'zolari bir jon, bir tan bo'lib, ro'zg'orni yuritishga yopishsagina, biror natijaga erishsa bo'ladi.

Otadan ko'rgan o'q yo'nar, onadan ko'rgan to'n bichar, degan-laridek, yoshligidan onasidan uy-ro'zg'or tutish sirlarini o'rgandi. Chorvador oilalarda bo'ladigan tashvishlarni yengishda ota-onasiga suyanchiq bo'ldi. Qo'ni-qo'shnilarnikidagi to'y-hashamlar va hasharlarda xizmat qildi. Har ish-da qizlarning oldi, ilg'ori bo'ldi.

2011-yilda endi yigirma bir yoshga qadam qo'yganida, dasht qizining hayotidagi eng muhim voqea sodir bo'ldi. Qiz bola deganimiz, chindan ham, palah-monning toshi deganlaricha bor ekan, nikoh to'yi o'tib, qo'shni Angor tumaniga ser-farzand xonadonga kelin bo'lib ketdi.

Bu uyda ikkita kelin istiqomat qilishar, katta xonadonda 11 jon bor edi. Shuning uchun oiladagi erkaklar o'z kasbi bo'yicha ishga borib kelgani bilan, ular topib kelti-rayotgan uncha-muncha daromad katta ro'zg'orni yuritish yo'lida sarf bo'lib ketardi.

Surxondaryoda "Baraka kelinning oyog'idan, cho'ponning tayog'idan keladi", degan eski naql yuradi.





Go'zal singlimiz barakali kelin bo'ldi. Qaynona-qaynotasining katta ro'zg'orga keladigan daromadni oshirishda qo'l keladigan taklifni bildirdi:

– Bizning Bandixonga qaraganda Angor tumanida dehqonchilik qilish uchun suv yetarli va yer ham unumdor ekan. Bir katta issiqxona qursak, yil davomida hosil olib, biz kelinlar ham oila daromadiga o'z hissamizni qo'shsak, deyman.

Bir kattaning gapiga kir, bir kichikning, deganlaridek. Uydagilar kelinning taklifini inobatga olishdi. Avval 2 sotix yerga kichikroq issiqxona qurishdi.

Issiqxonaga dastlab pomidor ekdilar. Bandixonlik kelin katta xonadonda birga istiqomat qilayotgan ovsini bilan birga ko'chatlarga mehr berib ishladi. O'z vaqtida suvi va o'g'itidan xabardor bo'lib turdi. Asosan, yerga zarar bermaydigan mahalliy o'g'it ishlatdilar.

Erta bahorda issiqxonadagi pomidorlar qip-qizil bo'lib yetilib pishdi. Hosili ko'rgan ko'zni quvnatdi.

Hosilni ko'rgan uydagilarning ham kayfiyati ko'tarildi. Dastlab tumandagi dehqon bozoriga peshma-pesh olib borib sotuvchilarga topshirib keldilar. Keyinchalik xaridorlarning o'zlari o'rganib qolishdi. Pomidor teriladigan kunlari xaridorlarning o'zlari keladigan bo'ldi.

Go'zaloy kunlik sotilayotgan pomidorlarning pulini hisoblab yozib qo'yaverdi. Mavsum oxirida qarasa 25 million so'm pul bo'libdi. Buncha mablag'ni ancha tajribali dehqon ham daromad qila olmaydi. Issiqxonaning yana bir tarafiga ekilgan bodringdan esa 15 million so'm daromad qilishdi.



Qaynotasi uyda o'tirgan kelinlarining yaxshi pul topayotgani, ro'zg'orga baraka kirayotganini ko'rgach, kelgusi yili ularga yana ikkita issiqxona qurib berdi. Bunda, albatta, issiqxonada yetishtirilgan pomidorlarning puli ham ularga qo'l keldi.

– Dastlab 2 sotix yerda issiqxonamiz bor edi, – deydi oilaviy tadbirkor Go'zal Misirova. – Undan keyin har biri 5 sotixdan jami 10 sotix yerga yana 2 ta issiqxona qurdik. Tajribamiz ancha oshib qolgan edi. Endi 3 ta issiqxonadan keladigan daromad cho'g'i ham ancha ortdi. Birinchi yilgi daromaddan bir bosh sog'in sigir oldik. Keyingi yili 2 ta ho'kiz olib boquvga tashladik. Hammasi halol mehnatning, yerga to'kilgan peshona terimiz va mehnatga bo'lgan muhabbatimiz evaziga keldi.

Bu ahil oilaning issiqxonasida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirilayotganiga ham mana 6 yil bo'libdi. Yillar davomida ular nafaqat daromad olishdi, balki bir-birlari bilan yanada ahil va inoqlashdilar. Qo'ni-qo'shnilarga ko'mak berib, ularning hurmatini qozonishdi. Yangi mashina sotib olishib, katta xonadonning endi uzog'i yaqin, mashaqqati yengil bo'ldi.

Ayniqsa, pandemiya paytida xonadonlardagi issiqxonalarining naqadar muhim ekanligi bilindi. Olislardan mahsulot olib kelish bir oz qiyinlashganda ham ularning oilasi yetishtirgan pomidor, bodring, ko'katlar angorliklarning dasturxonini obod qilib turdi.

Bu orada ularning oilasi ham katta ro'zg'orga aylanib bordi. Bir o'g'li, ikki nafar qizi bor. Katta qizi 12 yoshga kirgan. Ularning usti but, qorni to'q, yaxshi tarbiya olishmoqda.



– Sevimli mashgʻuloti bor boʻlgan xonadonda janjal, ortiqcha gap-soʻzlar boʻlmas ekan, – deydi G. Misirova. – Ishimiz ogʻir emas. Daromadimiz katta roʻzgʻorni yuritishga bermalol yetadi. Ish oʻrganmoqchi boʻlib kelgan qishloq yoshlariga tajriba oʻrgatamiz. Insonning baxti, oilaning istiqboli oʻzining qoʻlida. Bu narsa ayollarga koʻp jihatdan bogʻlik. Xalqimiz orasida “Erni er qiladigan ham xotin, qaro yer qiladigan ham xotin” degan naql bor. Bu bejiz aytilmagan. Oila topayotgan daromadni tejab-tergab unumli ishlatib, ortganini kelgusida daromad keltiradigan ishga yoʻnaltirishda ayol kishi oʻz vaqtida turmush oʻrtogʻiga toʻgʻri maslahat bera olishi kerak. Ana shunda ishlar yurishib ketadi, yutuqlar ketidan yutuqlar keladi, pulga pul, rizaqqa rizq qoʻshiladi.

Ular dekabr oyida issiqxonaga pomidor ekishadi. Fevral oyida hosil olishadi. Pomidor poyalari hosil berishdan toʻxtagach, oʻrniga koʻkat ekiladi. Xullas, issiqxonada yil boʻyi mahsulot yetishtiriladi.



Oddiy qishloq ayoli Go'zal Misirova tadbirkorligi, o'quvi, g'ayrat-shijoati tufayli baxt topdi. Turmush o'rtog'i uni qadrlaydi, farzandlari mehr bilan yaxshi ko'radi. Mahalla-ko'y orasida o'ziga yarasha obro'si, izzat-hurmati bor.

– Ko'pchilikka nafing tegsa, tajriba va bilimlaringni o'rtoqlashsang, baxt – ana shunda, – deydi jilmayib u. – Buning uchun mehnatdan qochmaslik kerak. Ishning ko'zini bilib ishlasang, mashaqqating oz bo'ladi. Halol mehnatdan topilgan noning shirin bo'ladi. Hayoting mazmunga boy bo'ladi.

Haqiqatan ham, hayotda istak bo'lsa ko'ngil tilagan har qanday ezgu orzuga erishish mumkin ekan.

O'zini o'zi ish bilan ta'minlagan, ro'zg'origa va eliga foydasi tegayotgan Go'zal Misirovaning hayoti qishloq ayollari uchun yaxshi ibrat hamda namuna bo'la oladi.

TOSHKENT VILOYATI

SHOHIDA SAIDG‘OZIYEVA

MEN MO‘JIZALAR ICHIDA YASHAYAPMAN...

... Mo‘jiza o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, uni inson qo‘llari bilan yaratadi





— Bu rost, ishonmaysizmi? Ishonmasangiz, mening fikrlarimga yaxshilab quloq tuting: mo'jiza o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, uni inson qo'llari bilan yaratadi, — deydi Toshkent viloyatining Zangiota tumanidagi Olmazor mahallasida yashovchi Shohida Saidg'oziyeva.

— Bolaligimda kimdir menga "Kelajakda sen sohibkor bo'lib, bozorlar rasta-siga turfa sabzavotlar chiqarasan" desa, ustidan kulgan bo'lardim. Chunki men 1994-yilda Zangiota tumanidagi 33-o'rta maktabni bitirib, Toshkent pedagogika universitetining ona tili va adabiyot fakultetiga o'qishga kirgandim. Kelgusida, albatta, o'zim sevgan kasb — o'qituvchilikning etagini tutib, yosh avlodga ta'lim-tarbiya beraman, deb o'ylardim.

Ammo hayot biz o'ylaganimiz kabi bir o'zanda oqmas ekan. Oilamizda qizlarni yosh turmushga uzatish, yigitlarni barvaqt uylantirish an'anasi bor. Shu odatga ko'ra, meni 18 yoshda turmushga berishdi va o'qishim qolib ketdi.

Oilamiz 15 kishidan iborat bo'lib, qaynotam tomorqachilikda nom qozongan inson edi. Men ularga yordam berib turardim, tandirda non yopardim. Birin-ketin farzandlarim dunyoga keldi. Besh sotix joyda ikkita issiqxona qurilgan bo'lib pomidor, bodring, ko'katlar, kartoshka, hatto sabzi ham ekardik. Turmush o'rtog'im yuk mashina boshqarardi, ovsinim mahsulotlar oldi-sotdisini zimmasiga olgandi. Boshqa oila a'zolari o'z ishi bilan band edi. Tomorqada ishlash men bilan qaynotamga qolgandi. Shu tariqa qaynotamga shogird tushganimni o'zim ham sezmay qolibman.

Yillar o'tib, alohida rozg'or bo'lib chiqdik. Tomorqamiz "Suyagi" — temir konstruksiyali, ikki qavatdan iborat — "vakuum-termos" uslubidagi sellofan yopilgan. Sovuq mavsumda hosilni asrab-avaylash uchun ko'mir bilan isitiladi. Qo'lbola avtomatlashtirilgan qozon o'rnatganmiz. Unda sovuq kunlarda har soatiga bir arava o'tin yoqiladi. Misol uchun, kechki 19:00 dan boshlab, soat 24:00 gacha men navbatchilik qilsam, keyin turmush o'rtog'im va o'g'limning navbati keladi. Ana shu issiqlik evaziga kunduzi o'tin yoqish shart emas.

Bundan tashqari, issiqxonani yomg'irlatib sug'orish yo'lga qo'yilgan. Besh sotix issiqxona yerini ketmonda yarim metrdan chuqurroq chopib ag'darib, keyin kaf-tdek qilib tekislaymiz. Bu yerlarga hech qachon texnika kiritmaganmiz. Birorta ham o't qoldirmaymiz issiqxonada. O't o'sib, urug'i yerga tushsa keyingi yil yana chiqib, o'zimizga tashvish bo'ladi.

Yerni ekishga tayyorlash uchun mahalliy o'g'it bilan birga fosforli mineral o'g'itlardan ham qisman foydalanamiz, yo'qsa yer obi-tobiga kelmaydi. Mehnatdan

qochmaymiz, ammo zarur mineral dori-darmon ta'minotini ham ayamadan, biologik ishlovni peshma-pesh olib borsak, pomidordan yaxshi hosil olsa bo'ladi. Misol uchun, yaxshi qarasangiz, har tup ko'chatdan 4-6 kilo atrofida hosil uzib olish mumkin. Undan keyin bo'shagan joyga bodring va baqlajon ko'chatini qadaymiz. Ulardan ham kamida 10 million so'm foyda keladi. Qisqasi, 5 sotix issiqxonadan yiliga o'rtacha 60-70 million so'mdan ziyod daromad topamiz.

Issiqxona yumushlarimni maroq bilan so'zlashimning boisi shundaki, to'g'risi, o'zim shu sohaga qiziqib qoldim. Barg yozayotgan nihollar, chiroyli gul chiqargan o'simlikni ko'rganimda yayrab ketaman. Ekinlar parvarishi ham o'qituvchilikka o'xshar ekan. Qator-qator nihollar men – "o'qituvchi" kirib kelganimda xuddi salom berayotgandek, men esa navbatdagi mavzuini o'tayotgandek tasavvur hosil qilaman.

Yillar davomida daromad hisobidan to'ylar qildik. "Zil", "Damas" va "Kobalt" avtomashinasi oilamiz og'irini yengil qilmoqda.

Eksang olasan, deganlari rost ekan. Yiliga 4 martadan ko'proq hosil yiqqan vaqtlarimiz ham bo'ldi. Bu ishga o'zimiz qiziqqanimiz uchun mashaqqati uncha sezilmaydi. Erta tongda issiqxonaga kirib, o'simlikning bir qator shoxlarini ipga o'rab, suvini quyib, vitaminlar beramiz. Shaffof gumbaz ichida o'simliklar quyoshdan vitamin olmaydi. Shuning uchun o'simliklarga mikroelementlar sepamiz.





Lekin baribir almashib ekmasa, yer ham charchaydi. Shuning uchun so'rab-surishtirib, turfa ekinlarni ekishga kirishdik. Bir yil bulg'or qalampiri eksak, keyingi yil pomidor ekamiz. Pomidor ekilgan yili aprelda bodring, iyunda ko'katlar, avgust oxirida oq salat, kuzi bilan sarimsoqpiyoz yetishtiramiz. Pomidordan keyin bulg'or qalampiri ekilgan yili hosilni yig'ish sentyabrgacha davom etadi. Egatlar orasida baqlajon, mosh, makkajo'xori ekib olamiz, yerga kuch berish uchun.

Tuproqni sog'lomlashtirish choralarini ko'ramiz. Misol uchun, har yilning kuz oylarida bir hafta davomida yerni yuvamiz. Bunda suv bir tarafdin qo'yilib, ikkinchi tarafdin chiqib ketadi. Shunda yer yetiladi, hosildorligi oshadi. Lekin keyingi ikki yilda mazkur usul uncha ish bermayapti, hasharotlar ko'payib, hosil nisbatan kamayib qoldi. Yer ham charchadi, endi unga biror yil dam bermoqchimiz. Shuning uchun issiqxonani ustini ochib qo'ydik, qor ko'rsa, yer yanada bo'liq bo'lib keyingi yillar yaxshi hosil olamiz.

Yangilik qilmasangiz, oldinga intilmasangiz bir joyda qotib qolasiz. Har bir ishni boshlashdan avval foyda va zararni hisoblab chiqamiz. Shunda yerni ham, suv va ekinni ham aniq o'lchovini bilasiz. Hisob-kitoblarimizga ko'ra, organik mahsulot yetishtirish yaxshi daromad keltirar ekan. Qiziqib qoldik. Shunda qo'shni fermerdan 10 sotix yerni ijaraga olib, tavakkaliga qulupnay ekdik. 2023-yilning qishi juda sovuq keldi, oppoq qorda qulupnay mevalari qip-qizil bo'lib pishgani ko'zlarni quvontirdi. Hosil ham mo'l bo'ldi, har kilosini 250 ming so'mdan sotdik. Uyimizga so'rab kelib, xarid qilishdi.

Bu yil esa ijaraga bir gektar yer oldik. Uning 40 sotixiga qulupnay, qolgani-ga sabzi ekmoqchimiz. Dehqonchilik bir kishini ishi emas, hammamiz, butun oilamiz birgalashib ishlaymiz. O'g'lim qulupnayni issiqxonada yetishtirishni niyat qilib turibdi. Bunga ko'proq mablag' kerak bo'lgani hamda bu yil issiqxonani ochib qo'yganimiz uchun keyingi yilda tajriba uchun yetishtirib ko'ramiz.

Issiqxonada mehnat qilayotganimga ham, mana, yigirma yildan oshibdi. Bolalarga qaradim, ro'zg'or qildim, hosil yetishtirdim.

O'ylab ko'rsam, o'qishimni davom ettirishim kerak ekan. Negaki, adabiyotga, jurnalistikaga ishtiyoqim baland. Odamlar 70 yoshda ham o'qishdan to'xtamayapti-ku. Men endigina 40 yoshga kirdim. Chirchiq pedagogika universitetida boshlang'ich



ta'lim yo'nalishida sirdan tahsil olyapman. Ko'p narsalarni o'rgandim, nevaralarimga ham o'rgatish, ularning zukko qilib tarbiyalash uchun ham o'qishim kerak edi-da. Mahalla fuqarolar yig'iniga ishga kirdim. Kelin olganman, u tikuvchi. Kelgusida kelinimni ham oliygohda o'qitish niyatidaman.

Umrim mayda-chuyda narsalar bilan zoye ketmadi. Bekorchi gap-so'zlar bilan vaqt o'tkazmadim. Mehnat qilishni va ekilgan har bir o'simlikdan bahra olishni o'rgandim. Ekinlar quloq chiqargani, gulga kirkani, keyin bu gulning hosilga aylanishi mo'jiza. Men ana shunday mo'jiza yaratib, uning ichida yashayapman.



Qadami gursillaydigan, shaddod, ammo kamtarin, xushmuomala va soddadil bu ayolga qarab, o'zbekning baxtli bekasini ko'rgandek bo'lasiz. Shohida opa kabilar sabab yurtimiz gullab-yashnamoqda, bozor rastalari qishin-yozin turli noz-ne'matlar bilan boyimoqda. Zotan, mo'jazgina yerni jannatga aylantirib, ham o'zini, ham elning dasturxonini to'kin qilayotganlar bor ekan, mo'jjalar har kuni ro'y beraveradi.

TOSHKENT VILOYATI

ZEBO XAITOVA

"AYOLLAR DAFTARI" RO'YXATIDAN CHIQIB, RO'ZG'ORINI OBOD
ETIB YASHAYOTGAN ZEBOXON

*...Hayotda amin
bo'ldimki, hammasi
niyatga bog'liq ekan*





Zeboxon Xaitova Samarqandning Paxtachi tumanidan. Hudud qishloq xo'jaligiga, paxtachilikka ixtisoslashtirilgan. Oiladagi 7 nafar farzandning kenjasi bo'lsa ham mehnatdan bo'yin tovlamadi Uning bolalik yillari tengqurlari kabi paxta dalalarida o'tdi.

Zebo onasi misolida, ayol – oilaning oftobi ekanligini angladi. Bu esa vaqti kelib ulg'ayganda, boshiga turli tashvishlar yog'ilganida juda-juda qo'l keldi.

Orzulari osmon qiz Zeboxon maktabning 9-sinfni tamomlab, pedagogika yo'nalishidagi kollejda o'qidi. Bitirgach, mahalladagi maktabda tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi bo'lib, to'garak mashg'ulotlari o'ta boshladi. Shuningdek, oliy o'quv yurtiga kirish imtihonlariga zo'r berib tayyorlandi.

Biroq taqdir qizning umr yo'lini boshqa tarafga burib yubordi. Ota-onasi yaqin qarindoshining yuzidan o'tolmasdan, Zeboxonni turmushga berib yubordi.

Erta turmush, bu ham yetmagandek, qarindoshlar o'rtasida bog'langan rishta turli sabablarga ko'ra uzoqqa bormadi – oilaga darz ketdi.

Qishloq xotin-qizlari mehnatkashligi bilan ajralib turadi. Ammo hozirgi tezkor davrda bu xislatning o'zi kamlik qiladi. U bilan ish bitmaydi. Mehnatga yarasha haq ham olish kerak.

Qishloqda tuzukroq maoshli ish topilmaganidan Zebo ham yozgi ta'tillardan birida dugonalari bilan Toshkent shahridagi korxonaga ishlash uchun keladi. Uning gap-so'zi, odobi, mehnatsevarligi u yerda ishlayotgan ayollardan biriga yoqib qoldi. Xusnora opaning ukasi Akbarali ham turmushidan ajralgan bo'lib, Qibray tumanida turishardi.

...Toshkentdan Samarqandga sovchilar bordi. Taqdir qo'shilgan ekan, nikoh rishtalari bog'landi.



Zebo 2017-yili Qibrayga kelin bo'ldi. Ro'zg'or nochor bo'lsa ham turmush o'rtog'ining "Ishlamaysan, uyda o'tirasan", degan talabi tufayli uyda qoldi. Yigitni biror tayinli kasbi ham, ishi ham yo'qligi bois eski mashinasi orqali ro'zg'or tebratardi. Keksa qaynonaning 450 ming so'm pensiyasi ro'zg'orni amal-taqal boshqarishda yordam berardi.

Bu vaqtda Zebo ishsiz ayol sifatida mahalladagi "ayollar daftari"da ro'yxatga olindi. Bir kuni mahallaning faol ayoli bilan suhbatda "Imtiyozli kredit berilsa, tadbirkorlik qilardim", deydi. Mahalladagilar bu tashabbusni qo'llab-quvvatlagani bois, ayolga 33 million so'm imtiyozli kredit ajratildi.

33 million so'm! Balki bu kimgadir oz tuyular. Biznesi rivojlangan katta tadbirkorlar uchun bu balki bir kunlik daromadga tengdir. Ammo gap pulning miqdorida emas, undan qanday foydalanishda ekan.

Oddiy qishloq ayoli bu puldan samarali foydalanib, ro'zg'orini obod qildi. O'ziga baxtli turmush yaratdi. Ya'ni 2021-yilda 7,5 sotix hovlining bir qismida 1000 bosh bedana boqishni yo'lga qo'ydi. Dastlabki yili bedana tuxumini yetishtirib, 4-5 million so'm daromad topdi. 2022-yildan esa go'sht uchun bo'rdoqiga boqiladigan bedana turini ko'paytirishni boshladi.

Zebo va turmush o'rtog'ining birgalikdagi sa'iy-harakatlari bois oyiga 150-200 kilogacha bedana go'shti yetishtirilmoqda. Bedana go'shti ekologik toza mahsulot ekanligi va xaridorlar tomonidan qadrlanishi bois uning narxi boshqa parranda go'shtlariga nisbatan ancha baland. Misol uchun, mavsumga va buyurtmachining talabiga qarab narx 60-80 ming so'm atrofida bo'ladi. Kimdir 210 gram bo'lishini talab qilsa, boshqasiga 280-300 gramm og'irlikdagi bedana kerak bo'ladi.

– Agarda o'rtacha 150 gramni 70 ming so'm atrofida hisoblasak 10 milliondan oshadi, – deydi Zebo.– Sof foydani aniqlash uchun omuxta em va elektr uchun sarflangan mablag'ni chiqarib tashlaymiz. Shunda har oyda o'rtacha 5 million so'm atrofida sof foyda olamiz.



Mijozlar bor, talab yetarli. Hatto qo'shni davlatlardan 1 tonnagacha bedana go'shti olamiz degan buyurtmalar tushyapti. Ammo, hozirda bunchalik katta ko'lamda bedana parvarishlashga joy tanqislik qilmoqda. Agarda hokimiyat kelgusida kengroq maydon taklif qilsa, bedanachilik fermasini tashkil qilish uchun biznes-reja tuzilgan.

Oila har oyda kreditni yopish uchun 1 mln 400 ming so'm to'lamoqda. Go'sht, tuxum mahsuloti ro'zg'orning o'zidan chiqadi. Avval boshda uncha qiziqmagan oila boshlig'i ham ayolining mehnatlaridan ruhlanib, unga yordam berishga kirishib ketdi.

– Aynan bedana boqishni nega tanladingiz, kimdan o'rgandingiz va qanday boshladingiz? – so'raymiz Zeboxondan.

– Aytсам, ishonarmikansiz, – deb kuladi suhbatdoshimiz. – Zamona zayli ekan, ijtimoiy tarmoqlardan o'rgandim.

“YouTube”ga kirib eng kam pul evaziga yaxshiroq, tezroq natijaga erishadigan biznes izlab topmoqchi bo'ldim. Bu – bedanachilik ekan. Qibrayga yaqin joyda kimda bedana jo'jasi borligini qidirdim va keyinchalik bu borada menga ustozlik qilgan Shuhrat akadan 1000 bosh bedana jo'jasi sotib oldik. Olachipor “yapon–manjur” zotli bedana edi. So'ng bedana boqishga zarur bo'lgan jihozlar – inkubator, ventilyator va boshqa zarur narsalarni sotib oldik.

Avvaliga 200 yoki 500 bosh jo'ja olmoqchi edim. Ammo tajribali ustozim “oz sarmoya bilan boshlasang, foyda kam bo'ladi, aslida 200 bosh jo'jaga ham, 1000 bosh jo'jaga ham bir xil vaqting ketadi”, deb to'g'ri yo'l–yo'riq ko'rsatdi. Hozir o'zim ham shogirdlarimga shunday maslahat beraman. Kasb sirlarini boshdan oyoq tushuntirib beraman. Qiynalib, tashlab ketmasin deymanda.



Biz ming bosh jo'ja bilan ish boshladik va no'noqligim sababli 200 boshi nobud bo'ldi. 800 bosh bedana kuniga 600 donadan ortiq tuxum bera boshladi. Dastlab Qibray bozoriga chelakda olib borardim. Kam sotilardi. Shunda oziq-ovqat do'konlariga kirib, sotuvchilar bilan suhbatlashdim. Ular tuxumlarni qadoqlab, kel-sangiz olamiz, deyishdi. Shundan so'ng, "O'rikzor" bozoriga borib qadoqlash uchun nima zarur bo'lsa olib keldim va yaqin atrofdagi 25ta oziq-ovqat do'koniga mahsulotimizni tarqatdim. Shu tariqa xaridorlar tarmog'iga ega bo'ldik va mahsulot tez sotila boshladi. Natijada ro'zg'orimizga baraka kirdi. Bedanalarni boqish uchun qilgan xarajatdan ortganiga ro'zg'orni butlay boshladik. Hozir uyda hamma sharoit bor.

Zeboxon tuxum beradigan bedanalarni bir yil boqdi. Tajribasidan bildiki go'sht yo'nalishi ko'proq foyda keltirar ekan. Shu tariqa surishtirib, oq bedan zoti samarali ekanini aniqlab, ularning jo'jasini topib keltirdi. Har qanday ishni asl mohiyati shundayki, tajriba oshgani sayin tarmoq rivojlanib boraveradi.

Ishtiyiq va qiziqish bilan ishlagan odam charchamaydi. Zeboxon mahalla ayollariga ibrat. "Intilganga tole yor", degan naqlni oilaviy tadbirkorlik faoliyati bilan isbotlamoqda. Turmush o'rtog'ini faol mehnatga o'rgatdi. Qarindosh-urug'lar va qo'ni-qo'shnilarga oddiy uy bekasining nimalarga qodirligini amalda ko'rsatdi. Muhtojlarga ko'mak beradi. Ishlashni xoxlaganlardan tajribasini ayamaydi.

Zeboxon kelgusida katta ferma tashkil qilib, 5-10 ming bosh bedana parvarishini yo'lga qo'ymoqchi. Uning orzulari orasida uyda oilaviy bog'cha ochish niyati ham bor.

– Hayotda amin bo'ldimki, hammasi niyatga bog'liq ekan, – deydi Zebo. – Niyatlarim birma-bir amalga oshmoqda. Kichkinagina hovlim bo'lsin, bir insonga baxt berib, hayotini, turmush tarzini o'zgartiraman, deb orzu qilardim. Xudoga shukr, baxtlimiz. Qiyinchiliklarni birga yengib kelmoqdamiz. Bedana haqiqatda yetti mo'jizaning biri ekan. Hayotimizga tinchlik, oilamizga baraka olib keldi. U sabab atrof-dagilarning hurmatini qozondik.

"Baxt qushi bormisan-yo'qmisan?" deb kuylanadgigan bir qo'shiq bo'lar-di. Kimlardir ertaklarda tasvirlangan olisdagi baxt qushini orzu qilib o'tadi. Zeboxon esa, ta'bir joiz bo'lsa, oddiygina bedanani ro'zg'ori, oilasi, xonadoni uchun baxt qushi, omad qushiga aylantirdi.

Aslida yaxshilab o'ylab ko'rib, chuqurroq mulohaza yuritilsa, tadbirkor va mehnatsevar ayol oilasi uchun chinakam Baxt qushi, Omad qushidir. Tilak shuki, uning sira qanotlari qayrilmasin. Parvozi baland bo'lsin.

FARG'ONA VILOYATI

OZODA ABDURAZZOQOVA

MALINADAN MILLION TOPAYOTGANLAR

*...Dorivor mevalarni
yetishtiradigan
dehqon oqilona
mehnat qilish bilan bir
qatorda, sabr-toqatli
bo'lishi ham kerak*





O'zbekistonda tomorqa yerlaridan samarali foydalanish, undan ko'proq daromad olish borasida innovatsion izlanishlar olib borilmoqda.

Farg'ona tumanidagi "Dilkusho" mahalla fuqarolar yig'ini hududida yashayotgan Ozoda Abdurazzoqova ana shunday tinib-tinchimas xotin-qizlardan biri. U bir necha yillardan buyon 45 sotixda malina parvarishlab, o'nlab mahalladoshlarini ishga jalb qilayotir.

Ozodaxonning asli kasbi tarbiyachilik bo'lgani bois bir necha yil tumandagi maktabgacha ta'lim muassasasida ishladi. Farzand tarbiyasi uchun uyda qolganida bog' yaratish, nimadir parvarishlash orzusi unga tinchlik bermasdi. Buni qarangki, orzular real voqelikka aylandi. U o'rikzor bog' sotuvga qo'yilganini eshitib, uni tender asosida sotib olish harakatiga tushdi. 2002 yilda er-xotin maslahatlashib, 70 sotix bog'ni tender asosida yutib oldi. Madrahim aka ham asli dehqonni bolasi emasmi, birgalashib bog'dorchilik yumushlarini boshlab yuborishdi. Biroq o'rik ular o'ylaganchalik serhosil bo'lmadi. Undan kelayotgan foyda kutilganidan kam bo'lgani yetmagandek o'sha yillarda daraxtlarni sovuq urib ketdi.

Shunda qurigan o'riklar o'rniga anor ko'chatlari ekildi. Hozirgi kunda 25 sotixda 50 tup anor parvarishlanmoqda. Qolgan daraxtlar o'rniga pomidor, bodring, kartoshka, piyoz kabi mahsulotlar ekildi. Natija kutilgan samarani bermagach malina ekishga qaror qilindi.

Uning malinazoriga kirsangiz bahri dilingiz yayraydi. Ko'm-ko'k butalar orasida alvondek tovlanib turgan mevalar hosil cho'g'i mo'lligidan darak berib turibdi. Yiliga ikki marta hosil olinadi. Shuning uchun ham mazkur shifobaxsh mevani qishloq odamlari tomorqadan topilgan xazinaga qiyoslashadi. To'g'ri-da, malinaning orqasidan million-million pul kelib tursa, xazinada bu meva!

Mahalladagi har bir xonadonda kamroq bo'lsa-da, malina yetishtiriladi. Undan olinadigan foyda ro'zg'orga baraka keltirmoqda. 10-15 sotix tomorqasi bor oila yiliga 15 million so'mgacha daromad topayotgani quvontiradi kishini. Negaki, malinani bozori chaqqon, nafaqat vodiy viloyatlariga, balki O'zbekistonning barcha tuman-shaharlariga yetkaziladi. Hatto Qozog'iston, Qirg'iziston hamda Rossiyaga eksport qilinadi.

Ozodaxon turmush o'rtog'i Madrahim aka bilan malina yetishtirish, ko'chat tayyorlash borasida qishloqdoshlariga ibrat bo'lib kelmoqda. Bir kilogramm malinaning ulgurji bahosi 18-20 ming so'm ekanligini hisobga olsak, mavsum davomida olinadigan daromadning cho'g'ini chamalab olish qiyin emas. Bundan tashqari, 30



sotix bog'da anor, o'rik singari mevalar ham parvarishlanmoqda. Yerdan yanada unumli foydalanish maqsadida tok oralig'ida ham malina yetishtiriladi.

– Malina butasi bizning iqlimga juda mos, tez rivojlanadi, – deydi Ozodaxon. – Ikki yilda nishona berib, uchinchi yili yaxshigina hosil tugadi. Qirg'izistonlik tanishlarimizdan olgan ko'chatlar bir yilda hosilga kirdi. Yiliga ikki marta – may-iyun oylarida birinchi, avgustdan boshlab, to qar yoqquniga qadar ikkinchi hosil yig'iladi. Qancha yaxshi parvarishlansa, hosildorlik shuncha ortadi. Bu yil bir kilo malinaning ulgurji narxi 25 ming so'mgacha chiqdi. 45 sotixda olayotgan daromadni aytsam hayratlanasiz. Shuning uchun ham 21 yildan beri dehqonchilik bilan shug'ullanamiz.

Oila har sotixdan o'rtacha 12-14 sentner hosil olmoqda. Donasi 5-6 gramm tosh bosadigan malina shifobaxshligi bilan boshqa ekinlardan alohida ajralib turadi. Mevasi qizil, ba'zan sariq bo'lgan malina tarkibida 11,5 foizgacha qand, 1-2 foiz organik kislotalar, V guruhi vitaminlari, karotin, xushbo'y moddalar mavjud. Mevasi, asosan, yangiligida yeyiladi, konserva sanoatida qiyom, jem, sharbatlar tayyorlanadi.

Yurtimiz tabiati ajoyib-da. Qizilqum sahrolarida jazirama ayni avjiga chiqqanda, Shohimardon tog'larida yomg'ir quyayotgan bo'ladi. Shunga qarab yetishtiriladigan meva-sabzavotlar ham biri-biridan farq qiladi. Masalan, Oltiariq bodringini maqtasangiz, "uzumimiz ham chakki emas" deyishadi. Bu yoqda Sherobod anorini zo'r desangiz, quvaliklarning ko'ngligi tegadi. Chunki Quva anori ham bozorda qo'lmaqo'l-da. Ular safiga endi vodiliklar yetishtirayotgan har donasi alvondек tovlanadigan malinalar qo'shildi.

Shu tariqa 2010 yilda 45 sotix maydon malinazorga aylantirildi. Buning uchun boshlanishiga 3 sotix maydonda ming dona malina ko'chati o'tqazildi. Keyingi yillarda ko'chatlar ko'paytirilib, erta bahorda yoki kech kuzda qator oralig'i 1,5 metr, tup ora-



lig'i 50–70 santimetr sxemada ekib borildi. Malina har yili juda ko'p miqdorda bachki ildizlar hosil qiladi va tuproqdan ko'pgina oziq moddalarni o'zlashtiradi.

Malina butalari kasalliklarga chidamsiz bo'lgani sababli agrotexnik tadbirlarga e'tiborli bo'lish talab etiladi. Misol uchun g'unchalash davrida va hosil yig'ishtirilganidan keyin 1 foizli kolloidli oltingugurt eritmasi purkaladi. Mo'l hosil olish uchun tuproq unumdorligiga qarab, har yili yoki yil oralatib gektariga 60–80 kilogramm organik o'g'itlar solinadi. Go'ng, fosforli va kaliyli o'g'itlar kuzda yer haydashda, azotli o'g'itlar esa bahorda yerni yumshatishdan oldin solinadi.

Mahalliy aholi "qizil oltin" deya ta'riflaydigan ko'chatlar har yetti yilda yangilab turilmasa, hosildorlik kamayib ketar ekan. O'tgan yilgi anomal sovuq daladagi malina shoxlarini qariyb 50 foizini urib ketdi. Birinchi terimda hosil juda kam bo'ldi. Yaxshi hamki malina shoxlari tez-tez o'sib turadi. Shu bois sovuq sadafdek terilgan nihollar uchun u qadar qo'rqinchli bo'lmadi.

Aslida malina parvarishni, mehrni yaxshi ko'ruvchi ekin turi hisoblanadi. Butasi injiq – suvsizlikka ham, ortiqcha namlikka ham toqat qilmaydi. Namlikning yetishmasligi kurtaklarning zaif o'sishi, ulardan ba'zilari qurib qolishi va ko'plab kurtaklarning siyraklashishiga olib keladi. Rezavorlarning kichik bo'lishiga va ko'pchiligini pishib yetilishidan oldin qurishiga sabab bo'ladi. Novdalarning o'sishi va meva pishish jarayonida, ayniqsa, yetarli namlik kerak bo'ladi.

Shifobaxsh bu o'simlik ko'chatini o'tqazishning yana bir muhim jihati shuki, ko'chatning ildiz bo'g'zi yer sathi bilan to'g'ri kelishi kerak. Ildizlar hamma tomonga bir xilda taraladi, tuproq bilan ko'milgan zahoti 5–6 litr suv quyiladi. Chuqurchalar usti go'ng, torf kabilar bilan berkitiladi va qolgan qismi kesib tashlanadi.

Malina ildiz bachkilari, ildizi va qalamchalaridan ko'paytiriladi. Simbag'azlarga ko'tarib o'stirilgan ko'chatlarni hosili tugagach, bir yillik novdalari qoldirilib, ikki yilliklari

qirqib tashlanadi. Malina oziq moddalarga boy, sernam, suvni yaxshi o'tkazadigan, yer osti suvlari kamida 1,5 metr chuqurlikda bo'lgan yerlarda yaxshi o'sadi. Yiliga 10-15 marta sug'oriladi va sug'organ sayin hosildorligi oshib, o'rtacha 80-120 sentnerga yetadi.

– Dorivor mevalarni yetishtiradigan dehqon oqilona mehnat qilish bilan bir qator-da, sabr-toqatli bo'lishi ham kerak, – deydi Ozodaxon. – Malina mevasi nihoyatda nozik, lekin mehr bergan kishi mehnati samarasini ko'radi. Mevani pishib ketishiga yo'l qo'ymasdan, tez-tez, bandi bilan uzib olish kerak. Terilgan kuni iste'mol qilinadigan yoki qayta ishlashga mo'ljallangan mevani bandi bilan termasa ham bo'ladi. Pishish boshlangan dastlabki kunlarda hosil har 2 kunda, oxirlagani sari esa 4 kunda yig'ildi, Hosil 1,5-2 kilogramm sig'imdagi idishlarda yig'iladi va har terimda 200 kilogramm atrofida meva terib olamiz. Malina havo salqin paytda ertalab yoki kechqurun teriladi. Oila kelayotgan bahorda 15 sotix maydonda yangi ko'chatlar ekishni mo'ljallab turibdi. Bu yerlarga ikki yil dam berilib, kartoshka, makkajo'xori, pomidor ekiladi. So'ngra yana malina ko'chatlari o'tqaziladi. O'tgan yili 20 sotixdagi ko'chatlar yangilagan edi. Tomorqaning bir chetida malina ko'chatlari tayyorlash yo'lga qo'yilgani sababli oila serhosil, yuqori sifatli ko'chat topishda qiynalmaydi. Axir o'zidan chiqadi bu mahsulot. Har yili 3 mingta ko'chat tayyorlab, bozorga yetkazish an'anaga aylangan. Har bir dona ko'chat 2-2,5 ming so'mdan sotiladi, uning doimiy xaridorlari bor. Ozodaxon turmush o'rtog'i bilan bu yil ko'proq ko'chat tayyorlashni rejalashtirmoqda. Agar 3 mingta ko'chat 10 sotix yerga ekilishini hisobga olsak, malinzor dalalar yanada kengayib borishiga guvoh bo'lamiz. Vodildagi har bir xonadonda shuncha ko'chat tayyorlansa... Eh-he...



Ozodaxonning xonadonidagi hamjihatlik, to'kin-sochinlik, tinchlik-totuvlikka ko'pchilikning havasi keladi. Topilgan daromad evaziga chorva mollari ko'paytirildi, ikki o'g'il diplomli bo'ldi, uy-joy qilib, yangi imoratlar qurildi. Shartnoma asosida ta'lim olayotgan o'g'ilga shartnoma pullari to'lanmoqda, kenjatoy maktabda a'lo baholar-da o'qiyapti. Oila ehtiyoji uchun yengil avtomobillar xarid qilingan, yerga ishlov beruvchi texnikalar ham yetarli.

Aytmoqchimizki, oiladagi to'kinlik, hamjihatlik mehnatsevarlik, ishning ko'zini bilish va omilkorlik samarasidir. Qo'lni qovushtirib o'tirgan kishi buncha moddiy ne'mat yaratib, elning duosini ololmaydi. Bu oddiy arifmetika. Uning hisob-kitobini esa Ozodaxon turmush o'rtog'i bilan allaqachon chiqarib qo'yan. Rejali ish doim muvaffaqiyatlar keltirishi shu oila misolida yaqqol namoyon bo'lib turibdi.

Ozodaxon bugungi kunda uch nafar shirin-shakar nabiraning sevimli buvijonisi. "O'rigidan danagi shirin" deganidek, u nabiralarini juda yaxshi ko'radi, ularni xuddi o'zidek, mehnatsevar qilib tarbiyalashga intiladi. Farzandlari, kelinlari dala ishlarida yordamchi. Ular ham mehnatda toblangan onasidek, el nazariga tushishga, odamlardan duo olishga intiladi. Axir duo – ulug' mukofot. Unga sazovor bo'lish – eng katta baxt. Ana shu baxt og'ushida yashayotgan, bu baxtu saodatni o'z qo'llari bilan yaratgan Ozodaxon Abdurazzoqovanning hayot yo'li ibratga loyiqdir.

– Qishloqlar bor ekan, shaharlar obod va fayzli, – deydi Ozodaxon. – Shuning uchun ham davlatimiz tomonidan qishloqlarni rivojlantirish, u yerda yashayotgan aholi turmush darajasini yuksaltirish, oilalar daromadini oshirish yo'lida izchil islohotlar olib borilyapti. Men ana shu islohotlarning oldingi safida ekanimdan quvonaman.

Darhaqiqat, Ozodaxon haq. U aytganidek, har bir kishi yurtni yashnatishni, obod qilishni o'zining burchi deb bilsa, yurtimiz tabiati zarar ko'rmagan bo'lardi.

FARG'ONA VILOYATI

SAYYORA ZARIPOVA

"AYOL BOSHINGIZ BILAN FERMER BO'LISHGA NIMA BOR?"

*...Ochiq maydonlarda
biz tavnakkalchilikka
asoslanamiz*





– **Bilasizmi**, shu voqeani hozir eslasam yuragim eziladi,–deydi Farg’ona viloyati O’zbekiston tumanidagi “Jamilaxon-Sayyoraxon” fermer xo’jaligi rahbari Sayyora Zaripova. – Bundan yetti-sakkiz yillar ilgari, ilk bor pilla qurti parvarishlaganimda 10 quti ipak qurti olibman. Bilmagandan keyin qiyin-da, uning mashaqqati keyin sezildi. Qurt jonivorning barg ustida jimirlashini ko’rib, mehrim toblanib, “voy, asallarim” deb bargni solaveribman deng. Bir payt qarasam ular shunday ko’payib ketdiki, 6 ta xonani egalab olishdi. Dastlab ozgina barg yetib turgan bo’lsa, keyin ozuqa tanqisligi boshlandi. Tajribasizligim va barg yetishmasligi sabab jonivorlarning ko’pi nobud bo’ldi. 557 kilogramm o’rniga 200 kilogramm pilla topshirdim. Nobud bo’lgan qurtlarga qarab, qancha ko’z yoshlarim oqdi. Bu xato uchun hozirgacha o’zimni kechira olmayman...

2016 yilning qishida fermer xo’jaligi tashkil etgan Sayyora hali o’zini o’nglab ulgurmay pilla mavsumi boshlanib qoldi. “Foydasi yaxshi bo’ladi, ko’proq pilla olavering”, deya mas’ullar unga 10 quti ipak qurtini berib ketishadi. Yangi tashkil etilgan fermer xo’jaligida ipak qurtini parvarishlashga “aqli yetadigan” pillakor topilmagan.

Keyingi yillarda Sayyoraning “ko’zi ochildi”. Endi uni hech kim chuv tushira olmaydi. Chunki u boshqalarning maslahatidan ko’ra, o’z yuragiga quloq tutishni o’rgandi. Endi 5 qutidan ortiq ipak qurti olmaydi. Bu yil ham boqqan pillasidan 310 kilogrammdan oshirib hosil topshirdi. Me’yordagi talab har qutiga 58 kg ekanini hisobga olsak, bu yomon ko’rsatkich emas. Sababi esa, tajriba to’plash bilan bir vaqtda ko’plab tut ko’chatlari ekilib, mustahkam ozuqa bazasi yaratildi.

Endilikda u mulkdor ekanini teran his qilmoqda. Nainki pilla, balki qishloq xo’jaligining boshqa ekinlaridan yuqori hosil yetishtirish hadisini oldi. Ayniqsa, bog’ yaratishda o’ziga xos tajriba to’pladiki, bu tajribani keng joriy etsa arziydi. Bo’lmasa, qaqrab yotgan 9 gektar dasht yerda bog’ yaratishning o’zi bo’ladimi? U yo’lini topdi.



2019 yilda olma, shaftoli, o’rik, bodom va yong’oqning suvsizlikka chidamli navlarini topib ekdi. O’rik, yong’oq, bodom bu yil nishona hosil berganida quvonganini aytmysizmi? Olma 500 va bodom 600 kilogramm hosil berdi. Shaftoli ko’chatlari tez hosilga kiringani evaziga mavsumda 15-20 tonna sifatli meva terib olindi. Ulgurji xaridorlar bog’ni o’zidan shaftolini kilosini 4-5 ming so’mdan olib ketishdi.

– Dasht hududlarida bog' yaratishga hamma ham jazm eta olmaydi,— deydi S.Zaripova.— Chunkiyozancha issiq keladi—da. Havo "qaynab" ketadi. Garm selini aytmay-sizmi? Bir tup niholni azob bilan o'stirasiz. Shundan bo'lsa kerak, bu yerda bog' yaratishga keluvchilar juda kam. Yengilning ostidan, og'irning ustidan yurib hech kim baraka topmagan. Bog'ni bog' qilish uchun iqlimning hamma "zug'um"lariga chidash kerak. Masalan, vaqtida suvini berib, parvarish qilib turilsa, ana shu dasht yerlarda ham bog' yaratsa bo'lar ekan. Buni men o'zim misolimda tajribadan o'tkazdim. Bugun bog'imizda o'n tupdan ortiq mevali ko'chatlar ekanmiz. Sababi, bozor talablari har yili o'zgaradi, bir yil shaftolini narxi oshsa, keyingi yil olma qimmatlashadi. Shunda biri sotilmasa yoki hosili kam bo'lib qolsa, ikkinchisi o'rnini qoplaydi. Shuningdek, sohibkor yer qaysi daraxtni ko'proq "istashini" ham yaxshi bilishi kerak. Hozir aniq ayta olaman-ki, bizning yerlarda shaftoli va o'rikdan mo'l hosil olsa bo'ladi.

Sayyora yashnab turgan ko'rkam bog'i va mehr og'ushida parvarishlayotgan har bir daraxt haqida batafsil so'zlab berdi. Bog'dagi daraxtlarning hammasi saralangan, eng toza va asl navlar ekilgan. Ularning aksariyati shaftoli va o'rikning yovvoyi, achchiq danagidan chiqqan ko'chatlarga payvand qilingan. Bu ham yaxshi samara beradi. Negaki, yovvoyi navlar iqlim o'zgarishlariga chidamli va serhosil bo'ladi. Yuqori haroratga, iqlimga va suvsizlikka chidamli navlarni saralab ekkani uchun ham Sayyora shu yerlardan daromad topyapti, ichki bozor to'kinligini ta'minlayapti—da.





E'tibor bering, dasht yerlarda bog'-rog'lar yaratib, tonna-tonna sarxil meva olishning o'ziga xos uslubi texnologiyasi bor. Paxta yetishtirishda-chi? Masalan olaylik, paxta yetishtirish omilkorlikni, har tomchi suvdan va ekin urug'idan unumli foydalaniшни talab etadi. Shu sababli 47 gektar yerning paxta ekiladigan 15 gektarida tomchilatib sug'orish yo'lga qo'yildi. Sababi suv masalasi juda og'ir bo'lib, bir nechta drenaj yordamida suv tortilib, hovuzga yig'iladi. Keyin obhayot bormaydigan ekin dalalariga "suvni qamab" olib borish tizimi qo'llanadi. Hosildorlikni yanada oshirish maqsadida 2020 yilda tomchilatib sug'orish joriy etildi. Buning uchun sarflangan 300 million so'mning 108 millioni subsidiya hisobidan qoplandi.

Natijada ilk davrlarda gektaridan 10 sentner hosil bergan yerdagi hosildorlik 35 setnerga yetdi. Bir vaqtlarda ajiriq va begona o'tlar orasida nimjon g'o'zalar zo'rg'a ko'ringan bo'lsa, endi dalada birorta ham begona o't ko'zga tashlanmaydi.

– Faoliyatimizning ilk yillarida ancha-muncha qiyinchiliklarga bardosh berishga to'g'ri keldi, – deydi Sayyora o'sha og'ir damlarni eslab. – Yerni bonitetini oshirishda mahalliy o'g'itdan keng foydalandik. Yerni ajiriqlardan tozalaguncha ona sutimiz og'zimizdan keldi. Bilasizmi, qariyb to'rt yil zarar ko'rib ishlasak ham, niyatimizdan qaytmadik. Yaxshi hamki, turmush o'rtog'im, otam, ukam moliyaviy va ma'naviy qo'llab-quvvatlab turishdi. Kamiga bankdan kredit oldik. Hattoki, 2020 yilda tomchilatib sug'orish yo'lga qo'yilgunga qadar paxtamiz birinchi terimda tugab qolardi. Gohida hammasidan qo'l siltab "bor-ey" deb yuboringiz keladi. Shuncha qilgan mehnatingizga achinasiz. Ekinlar yashnab, ko'karib turganini ko'rib, ulardan voz kecha olmaysiz.

Bugun hech bir fermer ilmsiz, yangi nav, yaxshi qarov, innovatsion texnologiyalarsiz muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Sayyoraning o'zi esa yangicha uslublarni o'ylab topishda ba'zi olimlardan qolishmaydi. Mana qarang, hosilni hasharot va zararkunandalardan himoya qilish maqsadida har yili dala chetidagi uvat va ariq yoqalariga kanakunjit va oshqovoq ekadi. Kanakunjut yerning namligini saqlaydi. Kamiga tanasi va barglari yog'li bo'lgani uchun barcha hasharotlar unga yopishadi. G'o'zaga keladigan shirani oshqovoq o'ziga "chorlaydi". Qator qilib ekilgan tut ko'chatlarining vazifasi yerning sho'rini kamaytirishga qaratilgan. Ko'ryapsizmi, uning mana shu topilmalarini innovatsiya desa bo'ladimi? Albatta, bo'ladi.

Eng qizig'i, dasht hududida sholi yetishtirishiga nima deysiz? Axir sholi to'liq suv ichida o'sadi-ku! Sayyoraxon buning ham yo'lini topdi. Har yili g'alladan bo'shagan qariyb bir gektar yerda guruchning qora qiltanoq navini ekib, bir tonna atrofida hosil olar ekan. Bu nav suvga nisbatan chidamliligi bois, bug'doy kabi ekilib, oz-ozdan sug'orib turilsa, shuning o'zi kifoya ekan.

Sayyoraning gaplariga ko'ra, agarda hosilga salbiy ta'sir qiladigan barcha omillar, xususan iqlim o'zgarishlari hisobga olinmasa, mehnat qilib quruq qo'l bilan qolish hech gap emas. Negaki, bu yerlarda iqlim o'zgarishi juda seziladi. Birgina misol joriy yil qishdagi anomal sovuq bug'doy poyalari urib ketdi. Yaxshi hamki, 22,5 gektarda bug'doyning sovuqqa chidamli navi ekilgan ekan. Shunda ham hosildorlik qariyb 20 foizga past bo'ldi. Ba'zi qo'shni fermerlar xarajatiga kuyib, g'alla yerlarini buzib, o'rniga chigit qadadi.

– Ochiq maydonlarda biz tavnakkalchilikka asoslanamiz, – deydi Sayyora. – Bu borada agronomlarning maslahatlari ham qo'l keladi. Eng muhimi, ekinlarni o'z vaqtida ekib, ko'kartirib olish kerak. Misol uchun, yomg'ir sababli paxta ekish o'n kunga surilsa, hosilni pishishi bir oyga kechikadi. Shu bois reja tuzayotganda ob-havoni, iqlim o'zgarishini hisobga olaman. Atrofimdagi fermer, agronomlarga rahmat, ulardan ko'p narsalarni o'rgandim.

Mehnatidan qochmasa, hamma ishni uddalasa bo'lar ekan. Qarang, uch o'g'ilni tarbiyalayotgan oddiy uy bekasi bir kun kelib shuncha yerni boshqarishi kimning xayoliga kelibdi, deysiz. Otasi duradgor, onasi hamshira bo'lsa-da, kaftdek tomorqani gullatib qo'yibdi. Balki Sayyorada yerga mehr yashnab turgan mo'jazzgina tomorqadan uyg'ongandir, deb o'ylab qolasan kishi.

Sayyoraning jamiyatda o'z o'rnini topib, mashhur fermerlar qatorida tilga olinishida ukasi Sohibjonning ham hissasi katta. Sohibjon otasidan duradgorlikni o'rgangan bo'lsada, tomorqasida ham bir qarich bo'sh yer yo'q edi. U katta-katta bog'lar yaratish orzusi haqida opasiga so'zlab berardi. Gohida fermer dalasiga chiqib, bog' ishlarga ko'maklashib ham yurardi. 2015 yilda tanish fermerlardan biri yerdan foyda ololmayotgani, ekin maydonlarini davlatga qaytarib topshirmoqchiligini aytib qoladi. Shunda otasi, opasi Sayyora va pochchasi Ahadjon bilan maslahatlashib, tenderda ishtirok etishga kelishib olishadi.



Bu vaqtda farzandlari yoniga kirib, Sayyorani ham uy yumushlari ancha kamaygan edi. U ukasi bilan birga fermer xo'jaligini yurgizishga qaror qildi.

Bugun shu yerlarda hosildorlikning oshishiga almashlab ekish ya'ni g'alladan bo'shagan maydonlarda mosh va makkajo'xori ekish yo'lga qo'yilgani ham sabab bo'lmoqda. Shuningdek, chorva mollari tuyoq soni ham oshib bormoqda. Bu esa yerlarni mahalliy o'g'it bilan boyitishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ular xonadonma xonadon yurib, mahalliy o'g'it tashib kelishdan ham sira erinishmaydi.

U ayni vaqtda quyosh panellariga qiziqib turibdi. Negaki, chekka hududlarda elektr energiyasi tez-tez o'chib qolishi sabab tomchilatib sug'orish samarasi sezilmayotgandek. Chiroq o'chishi bilan drenajda tortib chiqarilgan obhayot kelgan joyida to'xtab qoladi. Chiroq qayta yonguncha bu jarayonni ishga tushirishga ancha vaqt ketadi. Shu tariqa uch soatga mo'ljallangan sug'orish jarayoni bir kun davom etishi mumkin.

Sayyoraxondan ko'rilgan foyda haqida so'raganimizda o'tgan uch yil davomida 270 million so'mlik kredit va uning foizlari yopilganidan xursand ekanini, bu yog'iga topilgan mablag' foydaga qolishini aytdi. Bularning hammasi zaxmatli mehnat, ishning ko'zini bilib, global iqlim, suv tanqisligi sharoitida innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda omilkorlik bilan faoliyat yuritilganining amaliy ifodasidir.

Bir gal Sayyoraxonga "ayol boshingiz bilan fermer bo'lishga nima bor" deb savol berishgan ekan. U esa chuqur mulohazaga berilib, keyin savol beruvchining ko'ziga o'tkir nigohlarini qadab debdi: elu yurt dasturxonini tonna-tonna sarxil mevalar bilan boyitib, ichki bozorni qishin-yozin oziq-ovqat mahsulotlari bilan serob qilib turganim o'zim topayotgan daromaddan ko'ra qadrliroq. Agar har bir odam o'zi tug'ilib o'sgan jonajon tuprog'ini qadrlab, undan moddiy ne'matlar yaratishga intilsa, bizning yurtimizdan farovonroq yurtni topib bo'lmaydi.

Fermer haq edi. Shunday fidoiy va jonkuyar ayollar borligi uchun ham xalqimizning yuki yerda qolmaydi. Chunki elga naf keltirmoqlik ulug' saodatdir. Yurtimizda Sayyoraxonlar bor ekan, xalqimiz doim baxtu saodatga esh bo'laveradi.

XORAZM VILOYATI

SAIDA AHMEDOVA

"AMU ASALI"NI YEMABSIZ, BU DUNYOGA KELMABSIZ...

...Baraka halollikda, to'g'riso'zlikda.





Dunyoda sira aynimaydigan, buzilmaydigan, qancha saqlasangiz shuncha shifobaxshligi oshib boradigan yagona ne'mat bu – asal. Asalari bol yig'ish uchun guldan-gulga qo'nib, yuzlab kilometr yo'l bosadi. Tinim bil-maydigan, mehnatkash bu jonivorlarni boqish, parvarishlab, undan beba-ho ne'matni yig'ib olish oson ish emas. Bu yumushni uddalash uchun xuddi asalaridek tinimsiz mehnat qilish talab etiladi. Sabr-toqatli, irodali va shu kasbga mehri baland kishigina asalarichilik sohasida ishlab, baraka topadi.

Xorazm vohasida shunday mehnatkash asalarichi opa bor. U yetishtir-gan asal bozorda qo'lma-qo'l. Dasturxonga qo'yilganida, bir tatib ko'rgan mehmon "oh-oh, bunaqa mazali asal yemagandim, ta'mi og'zingizda qola-di-ya,?" deb so'raydi. Gurlan tumanidagi "Amu asali" tomorqa xizmati rah-bari Saida Ahmedova ana shunday mahsulotlar yetishtirmoqda.

– Asalarichilik mashaqqatli, lekin juda serdaromad kasb, – deydi Saida opa.

– Qo'li kalta, daromadi kam oila asalari boqsa, mehnatidan qochmasa, tezda o'zini tutib ketadi. Masalan, 100 ta asalari oilasi parvarish qilinsa, bir xonadon bekamu ko'st yashaydi. Chunki, bitta asalari oilasi yaxshi parvarish qilinsa, 15 kilodan 30 kilogacha asal beradi. Mana, o'zimizdan qiyos, o'tgan yili 55 ton-na asal oldik. Bozorlarda bir kilo asalning narxi o'rtacha 50 ming so'mdan 100 ming so'mgacha turadi. 55 tonna asalning qancha bo'lishini o'zingiz hisoblab ko'ravering. Endi gapning ochig'ini aytadigan bo'lsam, shu kungacha nimaga erishgan bo'lsam, hammasiga bolari tufayli erishdim. O'n kishini bandligi ta'minlangan. Har yili asal olish mavsumida yana 15 nafar odamga ish beramiz. Yaxshi yashayapmiz, farzandlarimiz o'qiyapti, yangi uylar soldik, avtomobil va ish texnikalari xarid qilganmiz.

Saidaxonning hayot yo'li oddiy, boshqalarnikidan sira farq qilmaydi. 1995 yil-da Zokirjon bilan turmush qurgan bo'lsa, shundan buyon asalarilar bilan "hamnafas". Negaki, u kelin bo'lib tushgan oila asalarichilik bilan mashg'ul ekan. Zokirjonni bobosi o'tgan asrning oltmishinchi yillarida shu sohada o'zini sinab ko'rmoqchi bo'lib, hovlisiga 10 ta asalari uyasini o'rnatadi. Buni qarangki, asta-sekinlik bilan oilalar soni ortib, asal hajmi ham ko'payib bordi. Shu tariqa oila ehtiyojidan ortgan mahsulot qo'ni-qo'shni-ga, so'ngra bozorga chiqarib sotila boshladi.

To'rt o'g'ilning to'ng'ichi – Zokirjon 2000 yilda alohida uy-joy qilib chiqqan-da bobosi ham asalarichilikka mehr qo'ygan yosh oila bilan birga yashashga qaror qildi. Shu tariqa Saidaxon ham bu kasbga qiziqib qoldi. Oilaga yaxshigina daromad keltiradigan asalarichilik sir-asrorlarini puxta o'rgandi. Hozirda Saidaxon mingdan ortiq, turmush o'rtog'i Zokirjon besh yuz, to'ng'ich o'g'li Xushnadbek besh yuztadan ko'proq asalari oilasiga egalik qilmoqda.



O'tgan yili ular 55 tonna asal yetishtirib, juda yaxshi daromad qildi. Bundan tashqari ular asalarilarning nasldorligini oshirishni yo'lga qo'yishgan. Kelgusi yildan ona asalarilar sotiladi.

Asalari nafaqat daromad manbai yoki shifobaxsh ne'mat beruvchi jonivor balki ekologiya va tabiat muvozanatini saqlash, ekinlar hosildorligini oshirish omili ham hisoblanadi. Chunki asalari guldan-gulga qo'nib, bol yig'ib, o'simliklarni changlatadi, ularga yangi hayot ato etadi. Asalarilarning bu xizmati undan olinadigan asal keltirayotgan foydadan kam emas.

– Zaharli pestitsidlar ko'p qo'llangani bois, asalari oilalari halokatga yuz tutmoqda, – deydi Saidaxon kuyunchaklik bilan. – Bunga global isish sabab qilib ko'rsatiladi, ko'pincha. Men esa asalarilarga qiron keltirayotgan narsa bu yaylovlardan tartibsiz foydalanish va fermerlarning dalaga haddan ziyod kimyoviy o'g'itlarni qo'llashida deb bilaman. Yaylovlardagi madaniy va yovvoyi o'simliklar yo'qolib borayotgani tu-fayli bolari ozuqasiz qolmoqda. Agarda katta-katta yaylovlarni asalarilarga bersak, yaylovlardagi o'simliklar changlanib gullaydi, urug'laydi va meva tugadi. Oziq-ovqat xavfsizligi zanjirida asalarilar juda katta rol o'ynaydi. Agar asalari yo'q bo'lib qolsa, bu zanjir uziladi. Zero, asalari hasharotlar ichida gul shirasi (nektar) yig'adigan yagona jonzotdir.

Har bir asalari bir tomchi shira yig'ish maqsadida mingdan ortiq gullarga qo'nadi. Bir kilogram asal to'plash uchun esa asalari taxminan bir necha yuz ming kilometr masofani bosib o'tadi. Bir kilogram asal ishlab chiqarish uchun esa taxmi-nan 400 ming kilometr masofani bosib o'tadi. 80-90 foiz o'simliklarning ko'payishi, hayotiy davomiyligi asalarilarga bog'liq. Ya'ni ularning zimmasiga daraxtu o'simliklarni changlatish yumushi yuklatilgan, aks holda ular meva bermaydi. Shu tariqa bu foydali hasharot dunyo iqtisodiyotiga changlatish xususiyati bilan katta foyda keltirmoqda.



Asalarichilik rivojlangan davlatlar tajribasidan ma'lumki, qishloq xo'jalik ekinlari asal-arilar yordamida changlatilganda ularning hosildorligi 20–30 foizga, mevali bog'larining hosildorligi esa 2–3 barobarga, ayrim mevalarda hosildorligi 8–10 barobargacha ko'payishi kuzatilgan.

Asalarilarni begona uyaga hujum qilgani haqida eshitganimsiz? Saidaxon bilan suhbatda bu ma'lumot men uchun yangilik bo'ldi. Agarda asalarichilar orasidagi masofa 3–4 kilometr bo'lmasa, kun issiq va tabiatda sharbat beradigan hech qanday o'simlik bo'lmasa, arilar ona arisi yo'q, kuchsiz oilalarga "lashkar tortadi", ya'ni o'sha oilaning asal ozig'ini tashib ketar ekan.

– Ba'zida havoda yolg'iz uchib yurgan arilarni ko'rib qolamiz, – deydi Saidaxon. – Shunda u hujumga uchrabdi-da, kuchli arilar uyani bosib olibdi-da, deb qo'yamiz. Agar hujumning oldi olinmasa, juda ko'p ari oilalari nobud bo'lishi mumkin. Bunday holat yuz bermasligi uchun ancha-muncha ter to'kishga to'g'ri keladi. Eng avvalo, uyalarni boshqa asalarichilar joylashgan masofadan 3 kilometr uzoqliqda joylashtirishga harakat qilamiz. Arixonada kuchsiz va ona arisi yo'q oilaning ichidagi mumkatak ramkalar sonini arilar to'liq qoplab turadigan bo'lguncha kamaytiramiz. Uya atrofida asal tomgan joy bo'lsa darhol tuproq sepiladi yoki kerosinli latta bilan artib tozalanaadi. Hujum qilinayotgani sezilsa, asalari uyalari teshikchasi oldidagi taxtachaga kerosin yoki vietnam balzami surtiladi. Kerosin tez qurib qolishi sababli uni tez-tez surtib turish lozim. Havoda uya atrofida uchayotgan begona arilarni esa suv purkab yoki supurgi bilan haydab yuboriladi. Shunday qilib talonchilikning oldi olinadi. Bunday noxush holat faqat tabiatdan sharbat kela boshlasa yoki havo sovib, yomg'ir yog'ishi natijasida to'xtashi mumkin.



Birorta kasb tashvishu mashaqqatlardan holi emas. Asalarichilik esa sermashaqqatligi bilan boshqa kasblardan alohida ajralib turadi. Bahorning seryog'in kunlari, yozning jaziramasi demay dalayu dashtni makon tutib, asal yetishtirish mashaqqatlarini shu sohada ishlayotganlar yaxshi bilishadi.

–Asalarilarning asosiy qismini Qoraqalpog'iston yovvoyi tabiatida boqamiz, – deydi Saidaxon. – Bir qismi esa yashash hududimizdagi paxta dalalarida parvarishlanadi. Sababi paxtazorlar juda katta maydonni tashkil etadi va paxta guli yaxshi asal beradi. Keyingi vaqtda shafran, yo'ng'ichqa gulidan ham sifatli asal olinmoqda. Fermerlarga shu kabi o'simliklarni ekish uchun ko'proq maydon ajratilsa, tuproq unumdorligi oshadi, yo'ng'ichqa urug'ini olish va gulidan asal yig'ish imkoniyati yaratiladi.

Asal xarid qiluvchilar toza asalni izlashadi. Chunki sun'iy asal ham ko'payib boryapti. Toza asalgga allambalolar qo'shib, ko'paytirib, daromad topish yo'ligha o'tgan odamlar ham bor. albatta, bu asl asal yetishtiruvchilar obrusiga putur yetkazadi.

– Gapingiz to'g'ri, – deydi Saidaxon. – Bunday yo'l bilan non topadiganlar ham uchrab turadi. Lekin halol bo'lishga ne yetsin. Asl asalchi bunday ishni qilmaydi. Mana men necha yil ishlagan bo'lsam, faqat toza asal sotganman. Baraka halollikda, to'g'ri-so'zlikda. Agar suyuq asalgga ruchkaning siyohi tekkizilganda, yeyilib ketsa, u toza asal bo'lmaydi. Aksincha bo'lsa, mahsulotning sifat yuqoriligidan dalolat beradi.

Misol uchun, erta bahor asalarilarning eng tez rivojlanayotgan davri bo'lib, ularnig nektar va gul changiga bo'lgan talabi juda yuqori bo'ladi. Bahorning salqin, yomg'irli kelishi yoki havo tez isib ketishi sabab tabiatdan arilar oladigan nektar kamayib ketadi. Bu davrda asalarilarni ozuqa bilan ta'minlash juda muhim. Ozuqa sifatida biz arilarga o'tgan yildan qolgan ramkali asal, asalli yoki shakarli sharbat beramiz. E'tibor qilgan bo'lsangiz shakarli ozuqa asal olish davridan ancha oldin beriladi va ozuqani to'laligicha asalarilar iste'mol qiladi. Tabiiy nektarga boy o'simliklar o'sadigan dalalarni topib asalarilarni kuchirmasak yoki hosildorlik past bo'lsa ham shakarli sharbat bilan oziqlantiriladi.



Biz asalarichilik bilan 30 yildan buyon shug'ullanib kelamiz va halollikka rioya qilamiz. Chunki halollikda qut-baraka borligiga ishonamiz. Shu bois oktyabrdan asalarilarni qishki davrga tayyorlash uchun har bir uyada qish davomida yetarli bo'ladigan ozuqa – 10–15 kilogramm asalni ramkalarga joylashtirib qo'yamiz.

“Amu asali” tomorqa xizmati tomonidan har yili o'nlab yoshlarga asalarichilik sir-asrorlari o'rgatilmoqda. Bu jarayonda ular asalari mumini qayta ishlash, tayyorlab berish, yashiklar yasash, asal olish uskunolari va boshqa texnik jihozlar tayyorlash borasida “master klass”lar o'tiladi.

Mahsulotning asosiy qismini Nukus shahridagi harbiy qismlarga, undan qoligani esa Toshkent shahridagi mijozlarga yetkazib berayotgan asalarichi kelgusida mahsulotni qayta ishlashni yo'lga qo'ymoqchi. Shu niyatni amalga oshirish maqsadida Xitoyda ishlab chiqarilgan, 5 grammdan 3–4 kilogrammgacha bo'lgan idishlarda mahsulot qadoqlaydigan uskuna xarid qilish uchun shartnoma imzoladi.

Yaqin yillarda tibbiyotda tan olingan tanani asalariga chaqtirib davolash muolajaxonasini ochish ham rejalashtirilgan. Bu borada xatoga yo'l qo'ymaslik uchun oilaning kenja farzandi Otabek Toshkent farmatsevtika institutida tahsil olmoqda.

Mamlakatimizda asalarichilik jadal rivojlanmoqda. 20 mingdan ortiq asalarichilik subyektlari tomonidan 1,1 million ta asalari oilasi parvarishlanmoqda. Yiliga 25 ming tonnadan ziyod asal yetishtirilmoqda. Shundan 10 foizi tog' asali, 50–55 foizi paxta asali, 30 foizi cho'l asali (yantoq, oqquray, isiriq, kavrak, qizilmiya) va 5–10 foizi turli gullardan olinadi. Umuman asalarichilikda xorij texnologiyalari joriy etish, asalarilar naslini yaxshilash, chatishtirish ishlarini yo'lga qo'yish ishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu sohani rivojlantirish uchun davlatimiz tomonidan katta imtiyoz va yengilliklar joriy etilmoqda. Buning samarasi o'laroq, o'tgan yili 68,3 tonna miqdoridagi tabiiy asal AQSH, Koreya, Rossiya, Tojikiston, Yaponiya kabi davlatlarga eksport qilingan. Shuningdek, xorijga 265 ming 941 dona asalari paketlari eksport qilingan bo'lsa, 2023-yilning 4 oyida bu ko'rsatkich 238 ming 902 donani tashkil etdi.

Bilasizmi, asalarilar gulga qo'nib nektarni so'rib bo'lgach, o'zidan bir belgi qoldirar ekan. Toki, uning sheriklari o'sha gulga qo'nib, vaqtini behuda o'tkazmasligi uchun. Buni haqiqiy ma'noda tabiat mo'jizasi desak, arziydi. Shunday bir-birini qo'llab-quvvatlovchi mukammal jonivorlarni parvarishlayotgan asalarichi Saidaxon Ahmedova shu yurtda tug'ilib kamolga yetgani uchun shu elga yaxshilik qilishni, odamlarga yordam qo'lini cho'zishni insoniy burchi deb biladi. Shuning uchun ham u saxovatli ayol degan sharafli nomga sazavor bo'lib elda katta obru e'tibor topmoqda.

XORAZM VILOYATI

YULDUZ KARIMOVA

SHAFFOF GUMBAZ OSTIDA CHARAQLAGAN YULDUZ

...Daromad mehnatga yarasha





— **Y**ulduzxon baraka topsin, uzog'imizni yaqin qilyapti.

– Nimasini aytasiz, pomidoru bodring deb uzoqqa bormaymiz, shundoqqi-na mahallamizda, Yulduzxonning issiqxonasida pishib yotibdi. Yo'lkira yonga qolyapti, uning ustiga narxi ham arzon-garov.

– Endi tadbirkorning o'zimizdan chiqqaniga nima yetsin. Bilasizmi, Yulduzxon 4 sotix issiqxonadan qancha daromad qilayotganini?

– Qandini ursin, ishlayapti, topyapti, mehnat qilyapti, rohatini ko'rsin-da. Qaniydi shunday chaqqon, qo'ligul ayollar mahallamizda yanada ko'pay-sa...

Bu kabi suhbatlar Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi Paxtakor mahallasi ahli tomonidan tez-tez bo'lib turadi. Mahalla ahli Yulduzxon-dan juda mamnun. Unga havas qilishadi. Uning qo'llari bilan yaratilgan noz-ne'matlarni sevib iste'mol qilishadi. Ko'pincha mahalla ahli Yulduzxon Karimova bunday muvaffaqiyatga qanday erishdi, nimaning evaziga u is-siqxonadan shunday mo'l hosil olyapti?

Axir qanchadan-qancha odamlar issiqxona qurib, undan daromad topish tu-gul yaxshigina hosil ham ololmadi, deyishadi va issiqxonachi opaga qoyil qolishadi.

Yulduzxon Karimovadan bu haqda so'rasangiz, shiringina jilmayib, "Buni hech qanday siri yo'q, mehnatidan qochmasangiz, issiqxonada pomidor yoki bodring yetishtirish ilmini mukammal egallasangiz bas" deydi. Aslidayam shunday, mehnatdan qochmagan odamga doim omad kulib boqadi.

Uning hayot yo'li haqida aytganda, mahalladagi boshqa qizlar singari 1999 yilda maktabni bitirgan yili uzatib yuborishdi. Ketma-ket tug'ilgan farzandlar tarbiyasi va uydagi yumushlar bilan bo'lib, kasb egallashga vaqt topa olmadi. Vaqtni bejiz oqar daryoga qiyoslashmas ekan. Ko'z ochib yumguncha to'ng'ich qizi Maftuna Polshada biznesni tashkil qilish yo'nalishini, kichik qizi Madina esa Toshkentda axborot-texnologiyalari yo'nalishidagi oliygohda o'qiy boshladi.



Turmush o'rtog'i Allabergan haydovchi, uzoq yurtlarga yuk tashish bilan shug'ullanadi. Yulduzxon uyda qolgani bois o'zi uchun ovunchoq qidirish bilan band edi. U internetdan issiqxonaning foydali jihatlari va ekin parvarishlash usullari haqida o'qib, xayoliga hovlisidagi 4 sotix yer keldi. "Shuncha yer bo'sh turibdi, undan foydalanib, million-milion pul topish mumkin ekan" dediyu quvonib ketdi. U nimadir topgan, nimanidir kashf qilgandek edi. Eng muhimi, insonda g'oya bo'lishi kerak ekan. Unda esa o'sha g'oya tug'ildi. Endi uni amalga oshirish qoldi.

Turmush o'rtog'i bilan maslahatlashib, dastlab tomorqasining 2 sotix erga issiqxona qurdi. Unda pomidor va bodring yetishtirish sir-asrorlarini ham internetdan o'qib o'rgandi. Boshida cho'chidi, shuncha mablag'ga tushib qolsam-a, deb. "O'ylovchining o'yi bitguncha tavakkalchining ishi bitadi" deganlaridek, keyin u qat'iylashdi. Natijalar chakki bo'lmadi. Shu-shu u uyida o'zini o'zi foydali mehnat bilan band etdi. Kimdir "ish yo'q, oilam nochor, ro'zg'orimni tebrata olmayapman" desa, u o'zining tajribasini, o'zi qilgan xayrli ishni ko'rsatardi. Shu tariqa Yulduz Karimova 2017 yildan buyon hovlisidagi 4 sotix maydonda issiqxona tashkil etib, xalqimiz dasturxoniga bodring, pomidor, karam, turli ko'katlar yetkazib bermoqda.

Yulduzxon 8 yildirki, hovlisida har biri ikki sotixdan iborat ikkita issiqxona tashkil qilib, unda tomchilatib sug'orish tizimini joriy etdi. Tomchilatib sug'orish tizimi o'simlikning suvga bo'lgan ehtiyojiga teng miqdordagi suvni zarur muddatda uning ildiz qatlamiga yetkazib beradi. Ayniqsa, Xorazmning issiq iqlim sharoitida tomchilatib sug'orish usuli qo'llangani ortidan egatlarda begona o't kamayadi va unga qarshi ishlatiladigan xarajatlar ham qisqaradi. Ko'p yillik ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilish orqali tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy etilganda pomidordan mo'l hosil olish imkoniyati yaratiladi.

O'zbekiston sharoitida issiqxonadan unumli foydalanib, daromadli tijorat g'oyasini amalga oshirish mumkin. Chunki hovlidagi kichik issiqxona ham vaqt o'tishi bilan barqaror daromad manbaiga aylanadi. Shu bilan birga, maqbul sharoitlarda yetishtirilgan yangi, ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari doimo dasturxon ko'rki bo'ladi. Yulduzxon buni o'z tomorqasi misolida yaqqol namoyon eta oldi.

– Issiqxonada mo'tadil haroratni saqlash ham muhim ahamiyatga ega, – deydi u.
– Buni plyonka ostida mahsulot yetishtirayotganlar yaxshi biladi. Masalan, bodring uchun quyoshli kunlarda havo harorati 25–28, bulut bo'lganda 20–22

va kechasi 18–20 darajadan past bo'lmashligi lozim. Bunday harorat o'simlikning rivojlanishiga yaxshi yordam beradi. Hosil yaxshi to'planadi, har xil kasalliklar tarqalishining oldini oladi. Ana shu tartibda





fevralda ekilgan bodringdan avgust oyining oxiriga qadar 10 tonna hosil olamiz. Sentyabrda karam, so'ngra ismaloq ekamiz.

Ayni vaqtda issiqxonada bodring va pomidor ko'chatlari hosilga kirgan. Hademay pishib yetiladi. Oila bekasidan "daromad qanday bo'lyapti?" deya so'raymiz.

– Daromad mehnatga yarasha, – deydi xonadon sohibasi. – Nolimaymiz. Farzandlarimiz bilan el dasturxonini to'kinligini ta'minlash maqsadida mehnat qilamiz. Xaridorlarning o'zlari uyimizdan kelib olib ketadi. Ro'zg'orimiz but, dasturxonimiz to'kin. "Qora qozon"imiz qaynab turibdi. Shu issiqxonaning ortidan orzu-havas qilyapmiz. Bu yilgi mavsumda 25 million so'm foyda ko'rdik. Mehnatingning samarasini ko'rganingda charchoqlaring unutiladi, huzurlanasan.

Mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan "Yashil makon" loyihasiga o'z hissasini qo'shish maqsadida Yulduzxon yo'l yoqasidagi foydalanilmayotgan yerga yong'oq, o'rik, olma kabi turli mevali daraxt ko'chatlari ekib, bog' yaratmoqchi. Shu yil bahorda tajriba uchun issiqxonada qulupnay ko'chatlari yetishtirib ko'rdi. 2024 yilda undan yaxshi hosil olsa va daromad yetarlicha bo'lsa, so'ngra limon parvarishini yo'lga qo'ymoqchi. Uning rejalari nihoyatda bisyor. O'zingiz bir o'ylab ko'ring, u uyda yolg'iz qolib, nima ish qilishini bilmasdan yurardi. Buni qarangki, o'zining intilishi, harakati va mehnatsevarligi bilan o'z biznesini yaratdi, oilasi budjetini mustahkamladi va eng muhimi, oziq-ovqat xavfsizligiga katta hissa qo'shib, eldan olqish olmoqda. Qolaversa, Yulduzxonning ibрати dunyoda globallashuv jarayonlari ketayotgan tahlikali paytda juda katta ahamiyatga ega.

BMT o'rganishlariga ko'ra, 2050 yilga borib jahon aholisi 9,7 milliard kishiga yetadi, 2100 yilda esa, 11 milliardlik cho'qqi zabt etilishi kutilmoqda. Aholining o'sishi, resurslar cheklangani va iqlim o'zgarishlari insoniyat o'zini o'zi boqa olish-olmasligi masalasini kun tartibiga qo'yadi.

Qishloq xo'jaligini yuritishning zamonaviy uslublari va innovatsiyalar, jumladan, o'simliklarni himoyalash, seleksiya hamda sun'iy o'g'itlar joriy talabni qondirishda yordam beradi. Ammo yuqoridagi prognozlarga asoslanilsa, insoniyat katta miqdorda oziq-ovqat ishlab chiqarish va sayyorani sof saqlash o'rtasida to'g'ri muvozanatni ta'minlash uchun navbatdagi innovatsiyalar to'loqiniga ehtiyoj sezadi. Bu har qarich yerdan unumli foydalanishni va suv tanqisligi sharoitida tomchilatib sug'orish texnologiyalarini keng joriy etishni taqozo qiladi.

Boshqacha ifodalaganda, har bir kishi u qaysi kasbda ishlashidan qat'iy nazar, tomorqasidan mahsulot yetishtirib, biror qarich yer ham bo'sh qolmasligiga erishishi zarurligini zamon talab qilib turibdi. Bu jihatdan xonqalik Yulduzxon Karimovaning ibratli sa'y-harakatlari bugungi kun talabiga mos va hududlarda uning izdoshlari ko'payishi tarafdorimiz. U shaffof gumbaz ostida yashil saltanat yaratib, undan elni bahramand qilayotgani tahsinga sazovor. Zero, shu shaffof gumbazlar ostida doim yulduzlar charaqlab tursin!





MUNDARIJA

1-hikoya: Palzada Saliyeva "Yuragiga insof-diyonatu mehnatsevarlikni sig'dira olgan ayol", Qoraqalpog'iston Respublikasi.	<u>7</u>
2-hikoya: Aliya Bazarbaeva "Qum barxanlari bag'rida baxt uyini qurayotgan Aliya", Qoraqalpog'iston Respublikasi.	<u>13</u>
3-hikoya: Farida Mamatisaqova "Issqxonadan unumli foydalanish san'ati", Andijon viloyati.	<u>19</u>
4-hikoya: Ziyoda Hasanova "Biomahsulot yaratib, organik ekinlar etishtirishda ko'maklashayotgan ayol", Andijon viloyati.	<u>25</u>
5-hikoya: To'tigul Majidova "Suvni tejash va tabiatga mehri go'daklarga singdirish orzusidagi bog'bon", Buxoro viloyati.	<u>31</u>
6-hikoya: Zarifa Abdug'anieva "Poliz ekinlari etishtirish uchun dashtga elektr keltirdi", Jizzax viloyati.	<u>37</u>
7-hikoya: Nodira Berdieva "Orzularing yoldo'shing bo'lsin, Nodira!", Qashqadaryo viloyati.	<u>43</u>
8-hikoya: Dirafro'z Jo'raeva "Ayol qatiyatli va shijoatli bo'lsa", Qashqadaryo viloyati.	<u>49</u>
9-hikoya: Nilufar Nuriddinova "Er qa'ridan suv chiqarib, dashtni boqqa aylantirgan ayol", Navoiy viloyati.	<u>55</u>
10-hikoya: Halimaxon Mirahmedova "Mehnatdan qochmasangiz muvaffaqiyat sizniki...", Namangan viloyati.	<u>61</u>
11-hikoya: Ra'noxon Qorieva "Suvsizlikdan qurib qolgan ekinlarni quchib, uzr so'radim...", Namangan viloyati.	<u>67</u>
12-hikoya: Malika Suvonova "Ekin etishtirishda tomchilatib sug'orishdan foydalandik", Samarqand viloyati.	<u>73</u>
13-hikoya: Nilufar Ma'rupova "Iqlim o'zgarishiga moslashish ilmi", Samarqand viloyati.	<u>79</u>
14-hikoya: Aziza Saidqulova "Parrandachilik – darmonadli va anchayin nozik soha", Sirdaryo viloyati.	<u>85</u>

15-hikoya: Iqbol Mo‘minova “Bugungi fermer tadqiqotchi, iqlimshunos, iqtisodchi va innovator bo‘lishi kerak”, Surxondaryo viloyati.	<u>91</u>
16-hikoya: Go‘zal Misirova “Bandixonlik kelin yoxud g‘ayratidan o‘t chaqnagan qiz”, Surxondaryo viloyati.	<u>97</u>
17-hikoya: Shohida Said‘gozieva “Men mo‘jizalar ichida yashayapman...”, Toshkent viloyati.	<u>103</u>
18-hikoya: Zeboxon Xaitova “Ayollar daftari” ro‘yxatidan chiqib, ro‘zg‘orini obod etib yashayotgan Zeboxon”, Toshkent viloyati.	<u>109</u>
19-hikoya: Ozoda Abdurazzoqova “Malinadan millionlarni topayotganlar”, Farg‘ona viloyati.	<u>115</u>
20-hikoya: Sayyoraxon Zaripova “Ayol boshingiz bilan fermer bo‘lishga nima bor?”, Farg‘ona viloyati.	<u>121</u>
21-hikoya: Saida Ahmedova “Amu asali”ni yemabsiz, bu dunyoga kelmabsiz...”, Xorazm viloyati	<u>127</u>
22-hikoya: Yulduz Karimova “Shaffof gumbaz ostida charaqlagan yulduz”, Xorazm viloyati	<u>133</u>

BUGUNGI QISHLOQ AYOLLARINING HIKOYALARI

Muallif: Sayyora Shoyeva

Muharrir: Sirojiddin Vohidov

Badiiy rahbar: Adiba Ahmedjanova

Maslahatchilar: Shahnoza Zafariy, Muhabbat Turkmenova

Dizayn: Aleksandra Povarich, Otabek Eshmatov

Sahifalovchi: Aleksandra Povarich

Fotosuratlar mualliflari: Otabek Eshmatov, Abbas Egamberdiyev, Muhammadali Qambarov, O'g'iloy Mingboyeva, Umid Hojiyev, Iqbol Omonboyev

Hikoyalar to'plamidagi fotosuratlarni taqdim etgan quyidagi mualliflarga minnatdorchilik bildiramiz:

Abbos Egamberdiyev, Buxoro viloyati, Romitan tuman hokimi yordamchisi

Muhammadali Qambarov, Namangan viloyati, Uychi tumani hokimligi matbuot kotibi

O'g'iloy Mingboyeva, Surxondaryo viloyati, Uzun tumani hokimligi
axborot xizmati xodimi

Umid Hojiyev, Surxondaryo viloyati, Angor tumani hokimligi axborot xizmati xodimi

Iqbol Omonboyev, Farg'ona viloyati, Farg'ona tuman hokimligi matbuot kotibi

BEPUL TARQATILADI

